



Botir ABDULLAEV,

Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti v.b., PhD

E-mail: 8batir8@mail.ru

TDSHU professori, t.f.d., M.I. Is'hoqov taqrizi asosida

THE HISTORICAL ROLE OF THE TURANIAN PEOPLES IN THE FORMATION OF ZOROASTRIANISM

Annotation

This article analyzes the material and spiritual cultural monuments that formed the basis of the Mazda Yasna religion, the ancient Turanian and Iranian lands, including archaeological finds associated with the proto-Zoroastrian religion, as well as information about the creation and improvement of the prestigious Mazda Yasna religion. Avesta texts.

Key words: Turan, Iran, Zoroastrianism, Aryanism, Turkism, Avesta, faith, religion, ethnicity, symbiosis, transformation, theory, historical research.

ИСТОРИЧЕСКАЯ РОЛЬ ТУРАНСКИХ НАРОДОВ В ФОРМИРОВАНИИ ЗОРОАСТРИЗМА

Аннотация

В данной статье анализируются материальные и духовные памятники культуры, составившие основу религии Мазда Ясна, древних туранских и иранских земель, в том числе археологические находки, связанные с протозороастрийской религией, а также сведения о создании и совершенствовании религии Мазда Ясна и текстов Авесты.

Ключевые слова: Туран, Иран, зороастризм, арийство, тюркизм, Авеста, вера, религия, этнос, симбиоз, трансформация, теория, историческое исследование.

ZARDUSHTIYLIKNING SHAKLLANISHIDA TURON XALQLARINING TARIXIY ROLI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Mazda Yasna dinining shakllanishiga asos bo'lgan, hamda qadimda Turon va Eron o'lkalari mushtarakligida yaratgan moddiy-ma'naviy madaniyat yodgorliklari, jumladan, protozardushtiylik diniga oid arxeologik topilmalar va qolaversa mo'tabar Avesta matnlarining yaratilishi va takomillashib borishiga oid ma'lumotlar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Turon, Eron, zardushtiylik, ariylilik, turkiylik, Avesta, e'tiqod, din, etnos, simbioz, transformatsiya, nazariya, tarixiy tadqiqotlar.

Kirish. O'rta Osiyoning qadimgi axolisi xaqida ko'pgina noaniq, yoki paniranistik g'oyalar bilan kuchli sug'orilgan qarashlar fanda ustunlik qilib kelmoqda. Bu kabi qarashlar tarafdirlari O'rta Osiyoga sivilizasiya miloddan avvalgi 2-ming yilliklarda ariylar bilan kirib kelgan degan fikrda qatyi turib olganlar. Ular fikriga ko'ra O'rta Osiyo qadimgi sivilizasiysi ariylarning bu yerlarga qilgan migrasiyasidan boshlanadi. Ular Yevro-Osiyo bo'ylab tarqalib miladdan avval 2-ming yilliklarda eng qadimgi sivilizasiyalarni tashkil qilgan emish. Ariylar xind-ariylarning bir qismi, xind-ariylar esa xind-yevropa tillarida so'zlashuvchi xalqlarining bir bo'lagi. Ariylilik nazariysi esa Yevropadan Hindistonga qadar yerlarda eng qadimgi sivilizasion kamar muhitini aynan ariylar tashkil etgan degan g'oyani ilgari surishga sabab bo'lib kelmoqda. Bir yarim asr davomida turli tarixiy tadqiqotlar asosiga singdirib yuborilgan ushbu qarashlar va shunga xos bo'lgan tafakkur qolipidan qutilish zamonaviy tadqiqotchilar uchun nixoyatda qiyin bo'lmoqda. Umuman olganda bu konseptual qarashning zamirida Yevro-Osiyoning qadimda, hamda xozirda son jihatdan yetakchilik qilgan turkiy xalqlarning insoniyat sivilizasiysi tarixidagi ahamiyatini pasaytirib ko'rsatishga qaratilgan. Vaziyat xatto shu darajaga yetdiki, Turonzaminda turkiy etnosni inkor etishgacha olib kelindi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ariylilik nazariyasi o'z navbatida paniranistik g'oyalar bilan sug'orilgan tadqiqotlarni paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Ushbu

metodologik qarashlar asosida konsepsiylar yaratildi. Bu konseptual qarashlar asosida xozirda ham ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Afsuski, bu kabi qarashlar hali xamon tarix soxasida ustunlik qilib kelmoqda.

Ko'rileyotgan masala yuzasidan akademik A.Asqarov shunday degan edi: "Sobiq sho'ro davri tarixiy lingvistika tadqiqotlari va ularning ta'sirida rivojlangan tarix fanida O'rta Osiyoning qadimgi xalqlari tili masalasida ularni eroniylarni xalq sifatida talqin qilib kelindi. Chunki, O'rta Osiyo va uning janubida yashovchi qadimgi ajdodlarning muqaddas kitobi Avesto va Rigveda tili Ovro'pa xalqlarining tillari bilan qarindosh ekanligi haqida fikrlar o'rtaga tashlangach, bu mintaqaning tub aholisini barchasi Avesto va Rigveda yozma manbalari tilidan kelib chiqqan xolda "eroniy" deb qabul qilinib, bu zaminda qadim zamonlardan ular bilan birga qon-qarindosh, qo'ni-qo'shni va quda-anda bo'lib yashab kelgan turkchilikka hech qanday o'rin qoldirilmadi. Xatto eronshunos olimlar hind-ovropa nazariyasidan kelib chiqqan xolda neolit, eneolit va bronza davrida O'rta Osiyodan to Baykalgacha bo'lgan mintaqalarda eroniylarni til muhitini xukmron edi, degan asossiz qarashni ilmiy jamoatchilik ongiga singdirib bordi" [1].

Tadqiqot metodologiyasi. Ariylar masalasida xatto zamonaviy tadqiqotchilar ham bir to'xtamga kelmag'anlar. Bu boroda ular fikrlari turlicha. Ulardan ba'zilari keltirishni lozim topdik. Birinchi guruh tadqiqotchilar ariylikni (hind-yevropa xalqlarini) til xususiyatlardan kelib chiqqan xolda ularni irq vakillari sifatida talqin qilishga moyildirlar [2]. Ya'ni,

ariylikni bir etnik qatlama sifatida ko'rishni afzal biladilar. Fikrimizcha ariylik jamoalari polietnik qatlamlardan tashkil topgan. Masalaga bunday yondashish o'z navbatida ilmiy tadqiqotlar negizida yevropasentrizm, paniranizm, irqchilik, aggressiv millatchilik, shavinizm kabi g'oyalarni targ'ib etilishiga sabab bo'ldi. Tadqiqotlarning konseptual, nazariy-metodologik asoslarining "shamoli" qaerqa qarab esayotganini barcha tarixchi-mutaxassislar ham ilg'ab ololmasligi achinarli xol. Zamonaviy turkiyzabon dunyosining tarixchi-olimlari tomonidan bu kabi qarashlarni g'ayriilmiy ekanligini ilmiy asoslashga urinishlar bo'layotganligiga qaramay ular xali hamon salmoqli ahamiyat kasb etmoqda. Bunga javoban tadqiqotchi A.M.Ivanov shunday deydi: "Aslida hind-yevropa yoki ariylik irqi mavjud emas, lekin shunga qaramay ba'zi ilmiy saviyasi past asarlarda bu kabi qarashlar uchrab turadi" [3]. Uning ustiga barcha hind-yevropa tillarida so'zlashuvchi xalqlarni arylarga yo'yish fonda o'z isbotini topmanan. Olimlar hind-yevropa xalqlarining bir tarmog'i – hind-eron tillarida so'zlashuvchi xalqlargina ariylikka da'vo qilishga haqli deb xisoblaydi [3]. Chunki, to'g'ridan to'g'ri aynan ulargina manbalarda arylar sifatida tilga olingan.

Ikkinci guruh olimlар ariylikni eneolit davrida ishlab chiqarishning o'sishi zamirida yuzaga kelgan chorvador jamoalarining aslzoda mulk egalaringin ijtimoiy tabaqasi sifatida talqin qiladilar [4]. Bu ikki bir biriga qarama-qarshi qarashlar asosidagi tortishuvlar xamon davom etmoqda va tugal yechimini topmagan.

Hind-yevropa tillarida so'zlashuvchi qadimgi xalqlarni bir irq vakillariga tegishli bo'lganliklarini e'tirof etish antropologik manbalarga ham mos emas.

Turon mintaqasida shakllangan qadimiyligi tillarni eroniy emas, turoniyligi tillar deya atash kerakligini tadqiqotchi F.Otaxo'jayev ilmiy qarashlarida uchratish mumkin [5]. Negaki ular haqiqatan Turon mintaqasida qolgan eroniyligi tillardan xoli ravishda shakllangan.

Tahsil va natijalar. Turkiy xalqlarning ajoddolari Yevro-Osiyoning kengliklarida, shu jumladan O'rtal Osiyoda eng qadimgi davrlardan mavjud bo'lib, sivilisasion tarix bosqichida ularni birinchiligi tarixiy xodisa deyish to'g'ridir. Aniqrog'i turkiy xalqlar Yevro-Osiyo xodisasi desak yanada aniqroq bo'ladi. Negaki ularidan qolgan arxeologik manbalar shunga guvohlik beradi. Miloddan avvalgi 2-ming yillik o'rtalarida arylarning sharqqa tomon, jumladan O'rtal Osiyoga migrasiyasi tarixan ikkinchi xodisadir. Bu payt O'rtal Osiyo xududlari haddan tashqari serxosil, yaylovlari bo'liq, tabiatni boy bo'lganligi tufayli chorvador arylar imkon qadar bu yerda o'rnashib kolishga xarakat qilgan. O'rnashib qola olmagan hind-eron qabilalari O'rtal Osiyo orqali bir qismi Hindistonga [2], bir qismi qadimgi Elamga kirib bordilar. O'rtal Osiyo, Hindiston va Fors o'lkasiga kirib borib, o'rnashib, bu yerlardagi maxalliy axoli bilan qorisha boshlaganlar. Ushbu bo'linish sodir bo'lgandan bir necha asr o'tib joylarda arylar tili negizida o'zarlo qarindosh, ayni damda bir biridan farq qiluvchi tillar kamari yuzaga keldi Fanda buni hind-eron tillari deb yuritiladi. Eroniy tillari arylar migrasiyasi tafayli keng xududlarga yoyilgan va ko'plab lajhajlarga bo'linib ketdi. Ular asosan "Sharqiy" va "G'arbiy" eroniyligi tillariga bo'lib o'rganiladi. Sharqiy eroniyligi tillari xoziroda o'lik tilga aylangan bo'lib, bu tillar asosan O'rtal Osiyo xududlarida amalda bo'lgan. Bular: sug'diy, xorazmiy, boqtariy tillaridir. Bu tillar o'rtal asrlar davrida turkiy eroniyligi ta'siri ostida muomaladan siqib chiqarilgan, axolisi esa turkiyashib assimilyatsiyaga uchragan. Xozirgi tojik tili masalasiga kelsak, bu til g'arbiy eroniyligi tillar tarmog'iga taalluqli bo'lib, VII asrning ikkinchi yarmi va VIII asr boshlarida Eron va Xuroson hududlaridan arablarning O'rtal

Osiyoni fath qilish davrida bu yerga fors o'lkasidan kirib kelgan. Chunki, tarixan Eron arablar tomonidan O'rtal Osiyoga nisbatan avvalroq bosib olinib, islomlashtirildi. Eron zardushtiyatlari islom dinini qabul qilib musulmon bo'ldilar. Qo'shni O'rtal Osiyo zardushtiyatlari islomni qabul qilib musulmon bo'lgan sobiq Eron zardushtiyatlari yordamida islomlashtirish jarayoni amalga oshirildi. Bunda arablar fors-dariy qabilalaridan foydalandilar. Shu yo'l bilan fors-dariy (g'arbiy-eroniy) til O'rtal Osiyoga kirib keldi va tojik tilining shakllanishiga asos bo'ldi. Ayni damda sharqiy-eroniy tillar (sug'diy, xorazmiy boqtariy) turkiy eroniyligi tillar (sug'diy, xorazmiy boqtariy) turkiy tilning ta'sirida siqib chiqarilayotgan edi. Turkiy tilning dariy-forsiy til bilan qorishuvni natijasida tojik tili yuzaga keldi.

Paniranizstik qarashlar tarafdarlari arylar migrasiyasiga qadar O'rtal Osiyo yerlari deyarli bo'sh, axolisi siyrak yashagan deyishga moyildirlari [5]. Zardushtiylikning proto ko'rinishlari ham arylar migrasiyasi bilan birga O'rtal Osiyo xududlari uchrab turkiy duniyosi miloddan avvalgi 2-ming yillikda kirib kelgan arylarga nisbatan ko'pchilikni tashkil qilgan va son jihatdan ustun bo'lgan [2]. Shuning uchun arylar Hindiston va Fors o'lkasi tomon siljishni davom ettirgan. Ilmiy adabiyotlarda bu xolat tamomila teskari tus berib ifodalanadi. Turonzamining qadimgi turkiy etnoslarning sivilizasiyaviy ahamiyati go'yoki atayin pasaytirib ko'rsatilayotgandek.

Shubhasiz, Markaziy Osiyo mintaqasiga kirib kelgan arylar dunyosi Mazda Ясна dining vujudga kelishida muhim rol o'ynagan. Lekin, bu jarayonni O'rtal Osiyoning prototurkiy dunyosining ishtirokisiz amalga oshgan jarayon sifatida qarash, yoki turkiy dunyo kirib kelgan arylarning diniy mifologiyasini to'liqligicha o'zlashtirganlar deb xisoblash fikrimizcha unchalik to'g'ri emas [2]. Chunki, zardushtiylik diniga xos proto elementlarning shakllanishi arylarning bu zaminga qadamlari yetmasidan ming yillar avval ro'y bergan (miloddan avvalgi IV-III ming yilliklar). XIX asrning oxiri, XX asr boshlarida lingvistik tadqiqotlar natijasida ilk bora yevropa tillarini sanskrit tiliga qarindosh ekanligi aniqlangan. Shundan etiboran hind-yevropa tillari degan tushuncha fanga kirib kelgan. Hind-yevropa tillarida so'zlashuvchi xalqlarning protovatani O'rtal Osiyo xududlari to'g'ri keladi degan xulosalar ham berilgan [3]. Xozirgi kunda qadimgi Sharq xalqlari tarixi va avestoshunoslik fanlarida "qanday qilib O'rtal Osiyo xalqlari ilk jahon diniga asos solgan", degan masala muxokama maydoniga aylangan. Bu borada tadqiqotchi Sh.Shaydullaev "Zardushtiylik diniga Turon xalqlari asos solganlari allaqachon isbotlangan va bu masala avestoshunos olimlar tomonidan muxokama qilinmay qo'yilgan" deb yozadi [8].

Zardushtiylik dini asoslarining shakllanishida har ikkala etnik qatlama ishtiroki mavjud deb qarash masala mohiyatini ancha oydinlashtiradi, va yangi ilmiy xulosalar qilishga yo'l beradi. Shuningdek, arylar kirib borgan joylarda ularning e'tiqod ob'ektlari, xudolari mahalliy e'tiqod ob'ktlari ham e'zozlangan hamda vaqt o'tishi bilan ular bir birini to'ldiruvchi xususiyat kasb etib transformasiyalashib borganligi haqiqatga yaqin deyish mumkin [2]. Binobarin, zardushtiylik dini muqaddas kitobi Avesta o'zbek, tojik, afg'on, fors, ozarbayjon va boshqa xalqlarning diniy-ahloqiy qarashlarini o'rganishda muhim manbadir. Aslini olganda Avesta asos e'tibori bilan zardushtiylik dinini emas, Mazda Yasnachilarning e'tiqodini o'zida mujassam etgan. Зардуштизм таълимоти вақтлар ўтиши билан замон ва маконга мослаштирилган холда фан ва таълим таниган зардуштийлик вужудга келди. Бу динни шаклланишида

Турон заминнинг қадимий ахолиси (туркийзабон ва эронийзабон халқлар) асосий тарихий ахамияти бекиёс бўлди.

Hozirgi O'zbekiston hududlarida tarixan tarkib topgan va qadimgi yozma manbalarda tilga olingen Sug'd, Baqtriya, Qadimgi Xorazm, Choch, Parg'ana, Ustrushona kabi iqtisodiyxo'jalik, siyosiy va modaniy sivilizatsiya o'choqlari joylashgan edi [13].

Ularning tarixan shakllanishi va rivojlanishi qadimgi Turonning ikki azim daryolari – Amudaryo va Sirdaryo va ular irmoqlarining suv zaxiralari bilan bog'liq. Bu daryolar havzalarida qadimdan tarkib topgan manzilgohlar, qishloqlar va qadimgi shaharlar qad ko'targan.

Qadimdan Turonzaminning turkiy xalqlari iqtisodiyho'jalik xayotini tashkil etgan sug'orma dehqonchilik, chorvachilik, ko'p tarmoqli xunarmandchilik, ichki va tashqi savdo-sotiq asosida yuksak darajada tarkib topgan shaharsozlik madaniyati va o'zbek davlatchiligi ikki yo'nalishda rivojlangan. Ularning birinchesi Amudaryo havzalarida tarkib topgan bo'lsa, ikkinchesi Sirdaryo havzalarida shakllangan.

Arxeologik va qadimgi yozma manbalar talqini va ilmiy tahliliga ko'ra eng qadimgi zamonlardan Amudaryo havzalarida Baqtriya-Toxariston, Marg'iyyona, Parfiyona, Sug'd va Qadimgi Xorazm hududlari joylashgan bo'lib, bu hududlarning moddiy madaniyati Qadimgi Sharq sivilizatsiyasi an'analari asosida rivojlangan. Ularda Avestada tilga olingen sug'diy, boqtariy, marg'iyoni, parfiyoniy, xorazmiy va sak etnik birliklarining tili asosida qadimgi eroniyl til muhitini tashkil topgan.

Sirdaryo havzalari hududlarida esa Choch, Parg'ana, Ustrushona kabi tarixiy-madaniy o'lkkalar joylashgan bo'lib, bu tarixiy-madaniy o'lkkalar Qadimgi Sharq tarixiy-madaniy o'lkkalarining ta'sirisiz mahalliy aholi madaniy ho'jalik an'analari asosida rivojlanish bosqichlarini bosib o'tgan. Sirdaryo havzalari mintaqalarining etnomadaniy va etnosiyosiy hayotida azaldan o'troq turkiylikka xos etnik an'analar va xayot tarzi ustuvor bo'lib kelgan. Chunki Sirdaryo havzalari juda qadim-qadim zamonlardan ikki ho'jalik (dehqonchilik va chorvachilik) jamoalarining, ikki til sohiblarining (qadimgi eroniya va prototurkiy tilli) qabilalarining chegara hududlari,

ADABIYOTLAR

- Аскаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиши тарихи. Тошкент. "O'zbekiston" нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2015.
- Чайлд Г. Арийцы. Основатели Европейской цивилизации. М.: Центрполиграф. 2007. – 270 с.
- Иванов А.М. Заратустра говорил не так. <https://www.rulit.me/books/zaratustra-govoril-ne-tak-read-288140-1.html> электрон китоб.
- Аскаров А. Арийская проблема: новые подходы и взгляды. <https://centrasia.org/newsA.php?st=1138060920>
- Отахўжаев А. Турон халқларининг қадимги тиллари хусусида мулоҳазалар. // Ўзбекистон миллий ахборот агентлиги. ЎзА илм-фан бўлими. Электрон журнал. 2024 йил №6 сон (56).
- Сариниди В.И. Задолго до Заратуштры.(Археологические доказательства прото зороастризма в Бактрии и Маргияне). Под общей редакцией Н.А.Дубовой. Москва. Старый сад. 2010.
- Кузьмина Е.Е.Откуда пришли индоарии? Материальная культура племен андроновской обўности и происхождение индоираницев. Москва. Восточная литература., 1994. 461 с;
- Кузьмина Е.Е. Арии – путь на юг. М.: Летний сад. 2008. – 558 с.
- Шайдуллаев Ш. Илк динлар тарихини ўрганиша услубий англашмовчилик (археология манбалари ва янгича ёндашув) // Ўзбекистон тарихи. 2020. № 3. – Б. 50.
- Абаев В.И. Два зороастризма в Иране. (Иран Восточный – Иран западный. Два лица одной этнической культуры). // ВДИ/ 1990. № 4. – С. 198-207.
- Аркаим – Синташта: древнее наследие Южного Урала. К 70-летию Геннадия Борисовичи Здановича. Сборник научных трудов. Часть 2. Челябинск 2010. – 184 с;
- Геннинг В.Ф., Зданович Г.Б., Геннинг В.В. Синташта. Челябинск 1992. – 408 с.
- Масов Р. Тюркизация арийцев: чушъ или недомыслие? Ответ на статью А.Аскарова "Арийская проблема: новые подходы и взгляды". <https://centrasia.org/newsA.php?st=1136562180>
- Аскаров А. Қадимги Турон энеолит, бронза ва илк темир даври цивилизациялар тарихидан лавҳалар. Тошкент. Фан. 2023. – Б. 7.

to'qnashuv makoni, ikki tillik etnik guruhlarning aloqa maydoni bo'lib kelgan. Buni ba'zi tadqiqotchilar simbioz hudud deb nomlashga moyildirlar. Ilk o'rta asrlardan boshlab bu o'zaro aloqa maydoni Sirdaryodan Amudaryoning yuqori va o'rta havzalariga ko'chib, bu ikki daryo oralig'ida hamda ularga tutash hududu zonada asta sekin turkiylik muhiti shakllana boshlagan.

Arxeologik manbalar qadimda Turon va Eron o'lkkalari mushtaraklikda yaratgan moddiy madaniyat yodgorliklarining arxeologik materiallari taxliliga ko'ra, bu etno-madaniy mushtaraklik, o'zaro uzviylik qadimiylar tarixiy ildizlarga ega ekanligini isbotlaydi [13].

O'rta Sharq mintaqasida bronza davriga qadar bu makonning tub yerli aholisi qadimgi eroniyl tillar oilasining shimoliy-sharqiy lahjalar: sug'diy, xorazmiy, boqtariy, marg'iyoni, parfiyoniy, sak qabila va qavmlari tillari amalda keng qo'llanilgan. Bronza davridan e'tiboran ushbu zaminga Sirderyoning shimoliy-sharqiy tomonlaridan: Yettisuv o'lkkalari, Qozog'iston dashtlari, Janubiy Sibir, Yenisey havzalari, Ural tog' tizmalarining janubiy-sharqiy yonbag'irlari, Janubiy-g'arbiy Tyanshan, Tog'li Oltoy, Xakasiya va Tuva o'lkkalaridan prototurkiy va turkiy etnik guruhlarining birin-ketin to'xtovsiz kirib kelishi boshlandi.

Xulosa va takliflar. Yuqorida tilga olganimizdek, ostadonlarda dafn qilish marosimi shubhasiz zardushtiylikka xosdir. Lekin hamma yerda ham bu odat bo'lmagan deyishimizga asos ko'p. Ostadonlarda dafn qilish marosimi ko'proq O'rta Sharq mintaqasiga xos bo'lib, ular aynan shu yerdan arxeologlar tomonidan ko'plab topib o'rganilgan. Ostadonlarda dafn qilish amaliyoti Eronda deyarli sezilmaydi. Bu kabi diniy tushunchalar aynan turkiy xalqlarni zardushtiylik dinini qabul qilishi bilan bog'liq deb xisoblash masala atrofida paydo bo'lgan savollar o'z javobini topganday bo'ladi. Hindariy xalqlarining diniy mifologik ma'naviy merosini ular bilan birga yonma yon yashagan turkiy xalqlar Zardusht ta'limotini qabul qilish bilan barobar bu dinni ravnaq topib shakllanishi va rivojlanishida o'z xissalarini qo'shganliklari O'rta Sharq mintaqasida yashayotgan xozirgi xalqlarning xayot tarziga singib ketgan minglab noislomiy marosimlarda ko'rish mumkin.



Zafar ABDULLAYEV,

Namangan davlat pedagogika instituti dekanı

PhD., dotsent M.Asqarova taqrizi asosida

REGULATORY LEGAL ACTS IN THE MANAGEMENT SYSTEM: CONFLICT AND SOLUTIONS

Annotation

This article covers information that, after the overthrow of the Russian Empire and the creation of the Turkestan provisional committee of management, mutually contradictory, normative legal acts were adopted, without taking into account the wishes of the local population, and, as a result, various headings and contradictions arose in the management system.

Key words: Turkestan provisional committee of management, regulatory legal acts, management, conflict situations, Soviet of people's commissars, people's Commissariat for national affairs, bolshevik.

НОРМАТИВНО-ПРАВОВЫЕ АКТЫ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ: КОНФЛИКТЫ И РЕШЕНИЯ

Аннотация

В данной статье освещается информация о том, что после свержения Российской Империи и создания на ее месте временного Туркестанского комитета управления были приняты взаимно противоречивые, взаимоисключающие, нормативно-правовые акты, игнорирующие волю местного населения, и, как следствие, в системе управления возникли различные злоупотребления и противоречия.

Ключевые слова: Временный комитет по управлению Туркестаном, нормативно-правовые акты, управление, конфликтные ситуации, Совет Народных Комиссаров, Народный Комиссариат по делам национальностей, Большевик.

BOSHQARUV TIZIMIDA NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR: ZIDDIYAT VA YECHIMLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada, Rossiya imperiyasi ag'darilib, o'rniga Turkiston boshqaruv Muvaqqat qo'mitasi tashkil etilganligidan so'ng o'zaro ziddiyatlari, bir-birini inkor etadigan, mahalliy aholi xohish-irodalarini inobatga olmagan holda normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinganligi va natijada, boshqaruv tizimida turli boshboshoqliklar va qarama-qarshiliklari yuzaga kelganligi to'g'risida ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Turkiston boshqaruv Muvaqqat qo'mitasi, normativ-huquqiy hujjatlar, boshqaruv, ziddiyatli holatlar, xalq komissarlar soveti, milliy ishlar bo'yicha xalq komissarligi, bolshevik.

Kirish. Republikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlab o'tganlaridek, "Milliy ma'naviyatimizni rivojlantirish, uni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz hayotiga singdirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning ahamiyati juda katta. Afsus, bu fanlar rivoji zamondan ortda qolmoqda. Xususan, biz uchun nihoyatda dolzarb bo'lgan tarix fani ham bundan mustasno emas. Tarixga oid ilmiy tadqiqot ishlari asosan bayonchilik, publisistik usulda olib borilmoqda. Natijada, olis va yaqin o'tmishimizdag'i ko'pgina voqealar mohiyati, ularni yuzaga keltirgan omillar va tarixiy qonuniyatlar ochilmasdan qolmoqda. Bir haqiqatni barchamiz chuqur anglab olishimiz zarur: milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda, uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur [1]. Zero, tarixni o'rganish orqali mamlakat boshqaruv tizimini o'rganish va normativ-huquqiy hujjatlar to'g'ri yuritish mexanizmlarini ishlab chiqishda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Markaz va Turkiston o'rtaqidagi normativ-huquqiy hujjatlar ijrosidagi ziddiyatlar, boshqaruv tizimida mahalliy kadrlarga bo'lgan ishonchsizlik, boshqaruv tizimini milliylashtirish kabi jarayonlar Сафаров Г, С. К. Ходжанов, Н. Туракулов tadqiqot ishlari yoritilgan bo'lsa, И. К Сольц, Н. Борисов, Р. Alekseyenkovlarning

asarları o'zining tarixiy haqiqatga xolisona yondashuvi bilan ajralib turadi. O'rganilayotgan mavzuga oid masalalarining ayrim jihatlari sovet hokimiyyati yillarda amalga oshirilgan bir qator ilmiy tadqiqot ishlari yordamida o'z aksini topgan[2].

Tadqiqot metodologiyasi. Barchamizga tarixdan ma'lumki, Rossiya imperiyasi ag'darilib, joylarda ozodlik, tenglik g'oyalari ilgari surilib, o'lkada ham general-gubernatorlik o'rniga TBMQ tuzilgan bo'lsa-da, o'lkadagi ijtimoiy-siyosiy, harbiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy jarayonlarni barqarorlashtirish, o'zaro kelishmovchiliklarga barham berish, barqaror vaziyatni vujudga keltirish, boshqaruv va ijro tizimida normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rivoja qilish bir muncha qarama-qarshiliklarga, ziddiyatlarga duchor bo'lgan edi. Bunday holat turli tushummovchiliklarni, ziddiyatli holatlarni, boshqaruv va ijro tizimini mavjud, ammo ma'naviy eskirgan normativ-huquqiy tizimga bo'yusunmasligiga, boz ustiga, shu jarayonda yangi hukumat tomonidan hali yangi tartibdagagi normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilmagani, oxir-oqibatda boshboshoqlik holatlarni keltirib chiqara boshladi.

Yana shunisi borki, Muvaqqat hukumat tomonidan yangi tartib-qoidalar ishlab chiqilmagani, normativ-huquqiy hujjatlar o'zgartirilmagani bo'lsa, ikkinchi tomonidan, "eski tuzumdagilarni sotsial-demokratik yoki sotsial-inqilob g'oyasiga ishonganlar bilan almashtirilganda ham", yangi hokimiyyat barqarorligiga erishish, tezda bu borada normativ-

huquqiy hujjatlarni yangilash ma'lum bir vaqtini taqozo qilardi [4].

Hokimiyatni qo'lga kiritgan bolsheviklar ham turkistonliklar umidini oqlamadi. Chunki bolsheviklar Turkistonda boshqaruv tizimini tub aholi nazoratida bo'lshini xohlamas edi. Ammo ayni paytda 1917-yil 12-15-noyabrda Toshkentda o'lkadagi turli musulmon guruhlarining birlashgan majlisи o'tkazilib, unda bitta masala, u ham bo'lsa "Turkistonda hokimiyatni tashkil etish" ko'rib chiqildi. Majlis o'lka boshqaruvida koalitsion hukumat tuzish bo'yicha qat'iy qarorga kelib, quyidagi mazmunda qaror qabul qilgan: Turkiston musulmonlari o'z haq-huquqlari, o'z taqdirini o'zi belgilash yo'lida joylardagi haqiqiy ahvol bilan yaqindan tanish bo'lgan, tub aholi urf-odatlari, turmush tarzini biladigan hokimiyat bilan hamkorlik qiladi. Turkiston musulmonlarini mahalliy hokimiyatda asosan musulmon aholisi vakillari bo'lishi va yana musulmon xalqiga yaqin bo'lgan holda musulmon bo'limganlar bilan ishtirok etishi kerak. Hokimiyatni faqat harbiylar, ishchi-dehqon tashkilotlarining tor doiradagi guruhi qo'lida bo'lib, ularni mahalliy aholi manfaatlaridan yet bo'lganlar tomonidan boshqarilishi, bu yerli musulmonlar hayotini demokratik prinsiplar asosida va to'g'ri yo'lda bo'lishiga kafolat bera olmaydi [4].

Turkiston hukumati qo'mitasini tuzish va undagi davlat boshqaruvi tuzilmasida tub aholi vakillarini ustuvorlik asosida bo'lishi bo'yicha rejalar tuzib turgan paytda, o'lkaning yevropaliklar jamaot-siyosiy tashkilotlari davlat qurilishi tamoyillari bo'yicha o'z rejalarini ishlab chiqib, bunda tub aholi bo'limgan, kam sonli aholi manfaatlarini boshqaruv tizimida asosiy rol o'ynashi zarurligiga oid g'oyalar ilgari surildi. Aytish mumkinki, Turkiston hukumati qo'mitasini shakllantirish va uning boshqaruv tizimida ziddiyatli holatlar yuzaga keldi [3].

Turkiston boshqaruv tizimida bolsheviklar tomonidan o'lka musulmonlari manfaatlarini inkor etish natijasida xalq komissarlar sovetini F.Kolesov raisligida sayladi. Mahalliy aholi orasidan boshqaruvning oliy hokimiyat organiga musulmon aholisi vakillari kiritilmadi. Amalda o'lka boshqaruv tizimi kam sonli millatlar vakillari qo'liga o'tib, bu keyinchalik qabul qilingan aksariyat normativ-huquqiy hujjatlarda: tub aholi bilan hisoblashmaslik, mahalliy xalqlar urf-odati, mentalitetini hisobga olmaslik, asosiy e'tiborni Markaz ko'rsatmasiga qaratishiga olib keldi. Turkiston boshqaruv tizimidagi boshboshdoqlik, aholi hisobidan boshqaruv organlariga turli yig'imlar o'tkazish TBMQ davridayoq boshlangan. Masalan, joylardagi boshqaruv tizimi uchun Farg'ona viloyat komissari tomonidan 1917-yil 10-iyun holatiga bir kunlik yig'im o'tkazilib, uning 25 foizini viloyat soveti hisobiga, 10 foizini o'lka sovetiga, xususan, umumiy hisobda yig'ilgan 6611 so'm 20 tiyinni sovetlarga o'tkazilgan. Sovet hokimiyati davrining boshlaridanoq bu o'ziga xos "boshqaruv tizimi sovetlarini qo'llab-quvvatlash an'anasi" davom etib, Farg'ona viloyat komissari tomonidan 1918-yil 1-iyunida Skobelev shahar ishchi-soldat deputatlari hisobiga bir kunlik yig'im o'tkazish zarurligi ta'kidlangan [6].

Boshqaruv tizimidagi boshboshdoqlik, ziddiyatli holatlar amalda 1917-yil Fevral inqilobi va Oktabr davlat to'ntarishidan keyin izdan chiqib, hokimiyatni qo'lga olgan bolsheviklarni o'zi qanday yo'l tutishni, bilmasdilar. Bolsheviklar hokimiyati uchun aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, "inqilobi jarayonlarga tortilgan Turkiston" da vujudga kelgan boshboshdoqlikka, tartibsizlikka barham berish, "ocharchilik asosida hamda oddiy tartib-qoidalar yo'qligi sababidan" aholini "sotsialistik inqilobdan" voz kechishiga olib kelmasligi yo'lida sa'y-harakatlar qilish yangi hukumat oldidagi muhim vazifalardan biri edi [5].

Turkiston MIXK Ashurxo'jayev tomonidan 1918-yil 27-iyunida o'lka XKS yuborgan xatida eski tuzumni o'rniiga kelgan yangi hokimiyat: bolsheviklar boshqaruvi tizimi hamma tomonidan, xususan, qurilajak sotsialistik jamiyat manfaatlari yo'lida normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish borasida katta hajmdagi ishlarni amalga oshirish kerakligini ta'kidlagan. Mazkur xatda joylardagi boshqaruvti, inqilobiy vazifalar qayd etilib, ayni paytda yangi boshqaruv tizimiga yondashuvlar turlicha bo'layotgani, bu huquqiy boshboshdoqliklarga olib kelayotgani qayd etilgan. Xususan, joylarda "inqilob natijasi" ruhiyatida "musulmon ishchi-dehqon sovetlari" tuzilib, ular ayrim joylarda ta'sirli-ustuvor asosdagagi ahamiyat kasb etadigan sovetga aylangani, chunki ularni orqasida aksariyat tub aholi turgani ta'kidlanib, boshqa bir joylarda "musulmon ishchi-dehqon sovetlari" "tarqatib yuborilgan, keyin yana tashkil topgan, ixtiloflar vujudga kelgan" deyiladi. Bu o'sha sovet hokimiyati mutasaddilarining boshqaruvdagi "uquvsizligi", amalda bolsheviklarning tub aholi haq-huquqiga bepisandilik bilan yondashuvi edi. Bunday yondashuvlar natijasida "aholi nima qilishini, kimga murojaat qilishini, zarurat bo'lganda, qayerdan himoya yoki yordam kutishini bilmay qoldi" deb, bu sovet hokimiyatini joylarda mustahkamlashga xizmat qilmasligi ta'kidlangan [5].

Turkiston MIXK Ashurxo'jayev tomonidan o'lka XKS ga yuborilgan xatda hozirgi kunda hokimiyatni saqlab qolishdagi eng muhim vazifalardan biri aholini oziq-ovqat ta'minotiga e'tibor berish, tartib-qoidalarini mustahkamlash, aholining aksariyati musulmonlar bo'lganidan kelib chiqib va ayni paytda tub aholidan "inqilobdan" keyingi yangi hokimiyat maqsad va vazifalariga, yangi shart-sharoitlarga "tushuncha berish uchun" yagona bir vazifa, u ham bo'lsa "mahalliy hokimiyat uchun boshqaruvga oid nizom chiqarish kerak. Shundagina hokimiyatni o'zi (mahalliy hokimiyatni nazarda tutgan – Z.A.) ham va aholi ham, qanday yo'l tutishini, qayerga murojaat qilishni va kimdan yordam yoki himoya kutishni biliishi kerak. Boshqacharoq aytganda, aholini boshqarishga oid qandaydir nizom tayyorlash va uni chop etish zarur... Mazkur [nizom], mayli yetarli darajada takomillashmagan bo'lsin, mayli tez orada unga qo'shimchalar va o'zgartirishlar kiritishga to'g'ri kelsin, ammo bu [nizom] hech bo'lmasa, aniq bir tartib va ma'lum bir qoida bersin" deyilgan [5].

Turkiston MIXK Ashurxo'jayev Turkiston mahalliy boshqaruv tizimi va aholi uchun tegishli nizomni ishlab chiqarish va chop etish, oxir-oqibatda o'lka XKS uchun ham katta ahamiyatga molik bo'lishi, xususan, hukumat sa'y-harakatlari faoliyatini tizimli, asosli yo'naltirishda, aholini ma'lum bir tartib-qoidadan voqif qilishda, "bolsheviklar hokimiyatini mustahkamlashda va uning obro'sini [oshirishda]... muhim ahamiyat kasb etadi", deydi. Xatda yuqorida vazifalar yuzasidan kelib chiqib, Turkiston XKS dan "zudlik bilan sovetda buni ko'rib chiqish va shunday nizom tayyorlash yuzasidan idoralararo komissiya tuzish" ni so'ragan [5].

Turkiston MIXK Ashurxo'jayevni o'lka boshqaruv tizimiga oid, joylardagi boshqaruv tizimi bilan bog'liq holatlardagi boshboshdoqlik, eski tartib-qoidalar bilan yangi tartib-qoidalar aralashib, tizimli faoliyat yuritilmayotgani to'g'risida bildirgan fikrlarida asos bor edi. Xususan, Turkistonda sovet hokimiyati o'rnatilganiga qaramasdan, boshqaruv tizimida 1917-yilga qadar mavjud tizim 1918-yilda ham saqlanib qolgan. Masalan, 1918-yil 16-maydag'i ma'lumotlarga ko'ra, joylarda hamon eski tuzum boshqaruvdagi "katta oqsoqol (qo'rboshi) lavozimi saqlanib qolayotgani... ular musulmonlar orasida cheklanmagan hokimiyatidan foydalanib, xohlaganicha ommaviy hibsga olish

va aholini xo'rash bilan shug'ullanmoqdalar deb, ichki ishlar komissarligiga xabar berilgan. Bunday holat, ya'ni katta oqsoqol (qo'rboshi) lar tomonidan noqonuniy sa'y-harakat, o'z yoniga ko'plab yigitlarni yig'ib olish Baliqchi, eski Marg'ilon, Skobelev va boshqa joylarda kuzatilayotgani qayd etilgan. Farg'ona viloyat millatlar ishi bo'yicha xalq komissarligi bo'limidan ichki ishlar xalq komissarligiga qilingan murojaatda, "millatlar, shuningdek muslimon millatlari, manfaatlari himoyasi yo'lida, katta oqsoqol lavozimi ortiqcha, bu o'zini oqlamaydi... mavjud tuzumga qaramaqarshi... [ushbu lavozimni] bekor qilib, uning vazifalarini tegishli volost boshqaruvchilar (komissarlar) yoki shahar oqsoqollariga yuklatilsin", - deb so'ralgan [6].

Farg'ona vodiyisida 1918-yilga kelib ham ayrim joylarda katta oqsoqol (qo'rboshi) lavozimi mavjudligi bu o'lkadagi boshqaruv tizimi hamon sovet hokimiyati talablari asosida "izga tushmaganidan" dalolat berardi. Mazkur masala 1918-yil may oyida ko'tarilgan bo'lsa, bu muammo darajasida, Turkiston ichki ishlar xalq komissarligi nazoratiga olinib, 1918-yil avgust oyida ham joylarda katta oqsoqol (qo'rboshi) lavozimini bekor qilish talab qilingan [6].

Turkiston boshqaruv tizimidagi ziddiyatli holatlardan shundan dalolat beradiki, bolsheviklar o'zlarini boshqarayotgan tizimni normativ-huquqiy hujjatlarini tez-tez almashtirib borishlariga to'g'ri kelgan. Aytish mumkinki, boshqaruv tizimi ham sovet hokimiyatining dastlabki yillarida o'ziga xos boshboshoqliklarga ega bo'lgan. Joylardagi quyi pog'onadan yuqorigacha, ayrim joylar va yo'naliishlarda, mavjud tartib-qoidalalar, normativ-huquqiy hujjatlarga rioya qilinmagan yoki shunga oid direktiv qaror, buyruq va farmoyishlar bo'lмаган. Masalan, 1919-yil 13-iyunida Farg'ona viloyat ijroiya qo'mitasi barcha uyezdлardagi ijroiya qo'mitalariga farmoyish xati yuborib, unda "... hozirgi sharoitda volost sovetlari tashkil qilishni iloji yo'qligi, viloyatning ko'plab volostlarida avvalgi tuzem ma'muriyati saqlanib qolgani, volost boshqaruvchisi bo'lgan shaxslar yakka o'zi, nazoratsiz boshqarayotgani, o'z-o'zidan uyezd ijroiya qo'mitalari tomonidan amalda nazorat qilishni iloji bo'lmayotganini" ta'kidlangan. Farmoyish xatida sovet hokimiyati uchun yakka tartibda volost boshqaruvchisining faoliyatini maqsadga muvofiq emasligi ta'kidlanib, bu oxir-oqibatda "volost boshqaruvchilar o'z lavozimlarini suiste'mol qilishlariga olib kelishi mumkinligi" ga e'tibor qaratib, viloyat ijroiya qo'mitasi joylarda volost sovetlari tuzilgunga qadar "uch kishidan iborat maxsus kollegiya tuzish maqsadga muvofiq yoki shunday kollegiyani volost boshqaruvchilar qoshida tashkillashtirish mumkin... kollegiyaga uyezd sovetlari orqali musulmon partiya a'zolari tayinlanishi kerak", - deyilgan [6].

Yuqoridagi farmoyish xati bo'yicha Andijon uyezd deputatlar soveti tomonidan 1919-yil 26-iyundagi majlisda volostlarni yakka tartibda boshqarish maqsadga muvofiq emas. Bunday eski tartibni saqlab qolinishiga sabab: uyezdda qaroqchilar ko'payib ketganligi deb, uch kishidan iborat kollegiya boshqaruvini qo'llab-quvvatlangan [6].

Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rinish turibdiki, joylardagi boshqaruv tizimi 1917-1924-yillar oralig'ida tez-tez o'zgarib, unda mumkin qadar partiya a'zolarini jaib qilish maqsadga muvofiq deb topilgan. Boshqaruv tizimidagi boshboshoqlik, normativ-huquqiy hujjatlarni tez-tez o'zgarishi, oxir-oqibatda ziddiyatli holatlarni ko'payib ketishiga olib kelgan. Masalan, 1918-yil 5-iyunida Sirdaryo viloyat sovetidan Farg'ona viloyat ishchi-soldat deputatlar sovetiga yozgan xatida, joylarda tub aholi tomonidan qaramaqarshi siyosiy harakat, partiyalar bitta lavozimiga xalq sudyasi, ovul, volost komissarligiga o'z nomzodlarini ilgari surib, "bitta

ovul yoki volostda har bir partiya bittadan o'ringa 2-3 nafardan komissar saylab, ulardan qaysi birining saylanganini tasdig'ini kutmay, o'zlariga muhr buyurtma qilib, mustaqil faoliyat olib bormoqdalar" deb, bunday noqonuniy xatti-harakatlardan ogoh bo'lishga chaqirgan. Xatda Farg'ona viloyatida ham shunday noqonuniy harakatlar, xususan bitta lavozimga bir necha kishi da'vogarligrini amalda ijro etib, o'zini saylangan deb hisoblab, muhr va tamg'alar orqali faoliyat olib borayotgan bo'lishi mumkinligi sababli tamg'a va muhrni berishni markazlashtirish zarurligiga e'tibor qaratadi [6].

Mavjud tarixiy manbalarga ko'ra, sovet hokimiyatining dastlabki yillarida, boshqaruvning ayrim joylarida buyruq va farmoyishlar, dekretlar qabul qilinganiga qaramasdan, ularni "ma'lumot uchun" qabul qilib, uning ijrosiga shoshilinmagan. Yana bir tomoni, Turkiston markaziy boshqaruv organlari tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar viloyat va uyezdlarga o'z vaqtida yetib bormagan yoki kechikib kelgani sababli uning ijrosi "orqaga surilgan". Masalan, Turkiston XKS ning 1918-yil martida qabul qilgan buyrug'iда, uyezdlarda hamon devonxona xodimlarini, uchastka komissarlarini, xalq sudyalarini, volost boshqaruvchilarini kelishmagan holda, o'zboshimchalik bilan buyruq chiqarib yoki farmoyish bilan egallab turgan lavozimlaridan bo'shatmaslik talab qilinganiga qaramasdan, bunday beboshlik davom etaverган. Shunday tartib-qoida, buyruq va farmoyishlarga rioya qilmaslik holatlari davom etayotganidan kelib chiqib, Farg'ona viloyat ishchi-soldat deputatlari soveti tomonidan 1918-yil 10-iyunda barcha uyezdlardagi ishchi-askar deputatlar sovetiga farmoyish yuborilib, unda joylardagi devonxona xodimlari, uchastka komissarlarini, xalq sudyalarini, volost boshqaruvchilarini ish joyini almashtirish, tayinlash, lavozimidan ozod qilish faqat viloyat hokimiyati vakolatida ekanligi, quyi organdagilar mazkur masalalar bo'yicha o'z takliflarini berishlari kerakligi ta'kidlangan. Mazkur farmoyishda viloyat komissarligi tomonidan ishlab chiqilgan "Muvaqqat qoida" bo'yicha volost boshqaruvchilarini, oqsoqollarini va xalq sudyalarini qishloq aholi yig'inida saylash belgilangan bo'lsa-da, amalda bu volost yig'ilishlaridagina amalga oshirilib kelingan. Shunisi borki, shunday "volost yig'ilish" larida aholisi 10000 nafardan ortiq bo'lsa-da, atigi 500-600 kishi qatnashgan xolos [6].

Sovet hokimiyatining dastlabki yillaridagi boshqaruv tizimida normativ-huquqiy hujjatlarni chetlab o'tish, ularga rioya qilmaslik, ma'muriy-boshqaruvdan o'rin olgan mas'ullarning tashkilotchilik qobiliyati, sa'y-harakati emas, balki ularning ijtimoiy kelib chiqishi, partiyaviyligi, ularning o'tmishi, yangi "sotsialistik jamiyatga moyilligi" asosiy mezonlar qatorida bo'lganligi ko'zga tashlanadi. Masalan, Turkiston MIXK Ashurxo'jayev 1918-yil 16-oktabrda Chernyayev deputatlar sovetiga murojaat qilib, ma'lumotlarga ko'ra, "uyezdda ma'muriy lavozimlar burjuylar tomonidan egallangan... sobiq volost boshqaruvchilar nomi volost komissarlarini bo'lib..." deb, barcha ilgarigi burjuylar o'rniga partiya, ishchi-xodimlariga almashtirish so'ralgan [5].

Aytish mumkinki, jazo muddati bir xil etib belgilangan bo'lsa-da, uning amaliy ijrosi bajarilishida partiya a'zolari ma'lum bir imtiyozga ega bo'lganlar. Masalan, mavjud arxiv manbalari shundan dalolat beradiki, joylardagi boshqaruv tizimi, xususan, uyezd-shahar ijroiya qo'mitasi va uyezd-shahar militsiyasi o'ttasida tizimli, belgilangan tartib-qoidalarga rioya qilgan holda ish olib borilmagan. Hatto bir xil jazoga loyiq deb topilganlar jazo muddatlarini o'tashlarida ham ularning partiya a'zoligi yoki a'zo emasligi rol o'ynagan. Masalan, 1919-yil noyabridagi ma'lumotlarga ko'ra, Xo'jand shahrida ichkilikbozligi tufayli ikki nafar fuqaro 10 kundanga hibsga olingan bo'lsa-da, ularning biri partiya a'zosi ekanligi tufayli 5

kundan keyin vaqtincha hibsdan ozod qilinib, ayrim hisobotlarni topshirib olishiga ruxsat berilgan [5].

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Turkiston boshqaruv tizimi va aholi hayotida normativ-huquqiy hujjatlarning tutgan o'rni bo'yicha arxiv manbalari hamda tarixiy adabiyotlarni ilmiy o'rganish va tahlil qilish quydagi natijalarga olib keldi:

-Turkiston boshqaruv Muvaqqat qo'mitasi tuzilgan bo'lsa-da, o'lkada ijtimoiy-siyosiy, harbiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy jarayonlarni barqarorlashtirish, o'zaro kelishmovchiliklarga barham berish, boshqaruv va ijro tizimida normativhuquqiy hujjatlarni tizimli yuritish bir muncha qarama-qarshiliklarni, ziddiyatlari holatlarni vujudga keltirdi.

-Turkiston boshqaruv tizimida tez-tez o'zgarishlar, ziddiyatlari holatlari, mahalliy shart-sharoit, musulmonchilik

an'analarini to'liq hisobga olmagan, ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar bolsheviklar olib borgan siyosatning izchil, tahlillarga asoslanmaganidan dalolat beradi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytish mumkinki, sovet hokimiyyati dastlabki yillarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar o'zining ziddiyatlari xususiyatlari bilan ajralib turadi. Markazda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar hamma vaqt ham Turkiston shart-sharoitiga, o'lsa aholis manfaatlariga to'g'ri kelmagan. Shunday bo'lsa-da, Turkiston boshqaruv tizimidagilar, ayniqsa Markaz emissarlari, bu normativ-huquqiy hujjatlarni ijro uchun qabul qilib, o'lsa shart-sharoiti, aholi mentalitetiga mos kelish-kelmasligi bilan hisoblashmaganlar.

ADABIYOTLAR

1. Sh.Mirziyoyev. 2024-yil 19-yanvardagi "Ijtimoiy-gumanitar fanlar rivoji zamondan ortda qolmoqda" mavzusida o'tkazilgan nutqi.
2. Abdullayev Z.G.. Turkiston boshqaruv tizimi va aholi hayotida normativ-huquqiy hujjatlarning tutgan o'rni (1917-1924-yillar). Dissertatsiya avtoreferati. 2024-yil.
3. Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости. Ташкент: "Шарқ", 2000.
4. O'zbekiston Milliy arxiv, I-1044 fond, 1-ro'yxat.
5. O'zbekiston Milliy arxiv, R-36 fond, 1-ro'yxat.
6. Farg'onaviyoyev. 2024-yil 19-yanvardagi "Ijtimoiy-gumanitar fanlar rivoji zamondan ortda qolmoqda" mavzusida o'tkazilgan nutqi.



Yulduz AKRAMOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti, PhD
E-mail: yulduzakramova995@gmail.com

TDIU professori, t.f.d O.Rashidov taqrizi asosida

ANALYSIS OF INFORMATION COLLECTED ON AFGHANISTAN AT THE END OF THE 19TH CENTURY

Annotation

One of the most important international problems of the 19th century was the issue of "Central Asia". As a result, throughout the century, Central Asia became the cause of disputes between England and Russia. By the end of the 19th century, the crisis between these two imperialist countries grew into a long-lasting political conflict. The main problem was the struggle between the colonial countries to occupy the territories that had not yet been divided. In this struggle, the specific features of the development of the capitalist system of the 19th century can be seen. The ruling circles of England and Russia have found many serious arguments to justify their aggressive actions in Central Asia, to justify their rights to certain parts of this region. The policy of both countries in Central Asia was carried out under some guise, no matter what pretexts were used for its implementation, the essence of this policy was aggressive colonialism.

Key words: Central Asia, colonialism, Great Britain, Russia Empire, Afghanistan, J.Older, Maunnstyuart Elfinstaun, Shujo ul-Mulk, Buyuk ipak yo'li, Ch.Kristi, U.Murkroft, Trebek, Frezer, Stirling, Konolli, Ch.Messon, A.Byorns, E.L.Shteynberg, P. Lord.

АНАЛИЗ ИНФОРМАЦИИ, СОБРАННОЙ ОБ АФГАНИСТАНЕ В КОНЦЕ XIX ВЕКА

Аннотация

Одной из важнейших международных проблем XIX века был вопрос «Средней Азии». В результате на протяжении столетия Средняя Азия стала причиной споров между Англией и Россией. В результате к концу XIX века кризис между этими двумя империалистическими странами перерос в длительный политический конфликт. Главной проблемой была борьба между колониальными странами за оккупацию еще не разделенных территорий. В этой борьбе просматриваются специфические черты развития капиталистической системы XIX века. Правящие круги Англии и России нашли немало серьезных аргументов для оправдания своих агрессивных действий в Средней Азии, для обоснования своих прав на отдельные части этого региона. Политика обеих стран в Средней Азии проводилась под тем или иным прикрытием, какие бы предлоги ни использовались для ее реализации, суть этой политики заключалась в агрессивном колониализме.

Ключевые слова: Центральная Азия, колониализм, Великобритания, Российская Империя, Афганистан, Ж. Олдер, Маунстюарт Элфинстаун, Шужу ул- Мулк, Великий шелковый путь, Ч. Кристи, У. Муркрофт, Требек, Фрезер, Конолли, Ч. Мессон, А. Бёрнс, Э.Л. Штейнберг, П. Лорд.

XIX ASR OXIRIDA AFG'ONISTON HAQIDA TO'PLANGAN MA'LUMOTLAR TAHLILI

Annotatsiya

XIX asrning eng muhim xalqaro muammolaridan biri bu "Markaziy Osiyo" masalasi edi. Natijada butun asr mobaynida Markaziy Osiyo Angliya va Rossiya o'rtaisdagi baxsga sabab bo'ldi. Oqibatda XIX asr oxiriga kelib bu ikki imperialistik davlatlar o'rtaisdagi inqiroz kattalashib uzoq davom etgan siyosiy mojaroga aylandi. Asosiy muammo mustamlakachi mamlakatlar o'rtaida hali bo'lib olinmagan hududlarni egallab olish uchun bo'layotgan kurash edi. Bu kurashda XIX asr kapitalistik tizim rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari ko'rindi. Angliya va Rossiyaning hukmron doiralari Markaziy Osiyodagi tajovvuzkor harakatlarini oqlash, ushbu mintaqaning ma'lum qismlariga o'z huquqlarini asoslash uchun ko'plab jiddiy dalillarni topdilar. Markaziy Osiyoda ikkala davlatning siyosati qandaydir niqoblar ostida olib borilgan bo'lmash, uni amalga oshirish uchun har qanday bahonalar ishlataligan bo'lsa ham, bu siyosat mohiyati tajovvuzkor mustamlakachilik edi.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, mustamlakachilik, Buyuk Britaniya , Rossiya Imperiyasi, Afg'oniston, Ost – Indiya, J.Older, Maunnstyuart Elfinstaun, Shujo ul-Mulk, Buyuk ipak yo'li, Ch.Kristi, U.Murkroft, Trebek, Frezer, Stirling, Konolli, Ch.Messon, A.Byorns, E.L.Shteynberg, P. Lord.

Kirish. XIX asrda Angliya yer-mulkulari ulkan, jahonning eng yirik mustamlakachi mamlakati edi. Bir qancha davlatlar va xalqlarni qamrab olgan Hindiston yarim orolida bosqinchilik va mustamlaka ekspluatatsiyasi uchun ingliz burjuaziyasining asosiy tashkiloti Ost-Indiya kompaniyasi bo'lib, u doimiy ravishda bosqinchilik urushlarini olib bordi. Ost-Indiya kompaniyasi Osiyo qitasining istalgan joyini britaniya mulki deb e'lon qilishi va istalgan joyiga qo'shin yuborishi mumkin edi. Xususan Markaziy Osiyoda joylashgan

Afg'oniston o'zining qulay geografik joylashuvi tufayli savdosoti, siyosiy va strategik jihatdan Britaniyanig aloxida qiziqish markazida bo'lgan [1]. Bundan tashqari u Hindiston, Eron, Xitoy va o'zbek xonliklari bilan ham chegaradosh bo'lib, o'z vaqtida jaxon sivilizatsiya rivojiga anchagina katta xissa qo'shgan va XIX asrda o'zining biroz axamiyatini yo'qotgan mintaqqa orqali Xitoydan Yevropaga qadimgi Buyuk Ipak yo'li o'tgan edi. Bu esa Afg'onistonning geopolitik nuqtainazardan ham naqadar muhim hudud ekanligini bildirardi. Ost-Indiya

kompaniyasi Afg'onistonning iqtisodiy va siyosiy holatini, hudud orqali o'tgan barcha yo'llarni aniqlash, muhim geografik nuqtada joylashgan har qanday obektlarni o'rganish, aholining ijtimoiy siyosiy qatlarni tadqiq qilish shuningdek xukumat a'zolarini o'z tarafiga og'dirish va Angliya bilan siyosiy aloqalar o'rnatish maqsadida o'z xodimlarini muntazam ravishda jo'natib turadi. Xodimlar turli qiyofada yuborilgan bo'lib, ular asosan savdogar, darvesh, sayyoh, muqaddas joylarga ziyyarat qiluvchilar niqobi ostida bu hududda xarakat qilishgan. Yuborilgan aymoqchilar mintaqaning eng xilvat joylarigacha kirib, xudud joylashuvini mukammal o'rganishgan va extiyotkorlik bilan to'plangan maslumotlarni qayd etib borishgan[2]. Ular mahalliy aholi tilini va ularning urfdotlarini yaxshi bilishgan bo'lib, bu esa ularga bu xududda uzoq muddat faoliyat yuritishlariga va o'zlariga nisbatan shubha paydo bo'lmasligiga yordam bergan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ushbu maqolani yozish davomida bir qator ilmiy manbalar va tarixiy adabiyotlar tahlil etildi. Mazkur maqolada tarixiy manbalar, asosan, Rossiya imperiyasi tomonidan 1882 – 1914 – yillarda davomida to'plangan strategik, geografik va topografik ma'lumotlarda yoritib o'tilgan Afg'onistonga yuborilgan elchilar, xususan, inglizlarning Ost – Indiya kompaniyasi tomonidan yuborilgan sayyoh va elchilar juda katta ma'lumotlar yozib qoldirishgan.

1882 – 1914 – yillarda Osiyo bo'yicha strategik, topografik va geografik ma'lumotlar to'plami manbasida M.Elfinstoun, Ch.Kristi, U.Murkroft, Trebek, Frezer, Stirling, Konolli, Ch.Messon, A.Byorns kabi elchilar to'plagan qimmatbaho materiallar yoritib berilgan va tahlil qilingan. Ularda asosan Afg'oniston davlatining ichki va tashqi siyosati, chet mamlakatlariga manfaat keltiruvchi barcha sohalari holati ochib berilgan.

Undan tashqari E.L.Shteynbergning "O'rta Sharqqa ingliz tajavuzi tarixi" manbasida ham Afg'oniston to'g'risida va uning harbiy holati haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Elchi A. Byornsning "Buxoroga sayohati" asarida ham Afg'oniston aholisi, hududi va savdo – sotig'i haqida ko'plab ma'lumotlar mavjud. Sayyoh K. Ritter o'z asarlari va to'plangan ma'lumotlarida Afg'onistonda mavjud yer – mulk shakli haqida ma'lumotlar yozib qoldirgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola umum qabul qilingan tarixiylik, qiyosiy – mantiqiy tahlil, ketma – ketlik, xolislik va taqqoslash kabi tamoyillar asosida yoritilgan bo'lib, XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi Afg'oniston ichki va tashqi holati to'g'risidagi qimmatli ma'lumotlar asosida to'plangan.

Tahlil va natijalar. Markaziy Osiyo masalalarini bo'yicha Angliya siyosatida muhim ro'l o'ynagan ingliz tarixchisi J.Older shunday yozadi: "Markaziy Osiyo masalasida diplomatik faoliyat yuritishdan oldin mintaqaga xaqidagi tadqiqotlar naqadar muhim ekanligi va ayniqsa geografik bilimlar har doim siyosat, iqtisodiyot, diplomatiya va harbiy xarakatlar bilan chambarchas bog'liq ekanligini, bunda xarqanday askar va siyosatchidan ko'ra tadqiqotchi va maxfiy jousular muhim ro'l o'ynashimi" ta'kidlaydi [3]. Afg'onistonga dastlabki ingliz missiyasi 1809- yil fevral oyida Maunnstuart Elfinstoun boshchiligidagi yuboriladi. Unga Afg'oistonni batafsil va har tomonlama o'rganish vazifasi yuklatiladi. Agarda inglizlar mamlakatga bostirib kirganda bu xududda Britaniya o'zining hukmronligini o'rnatishda suyanch bo'la oladigan mal'um bir ijtimoiy qatlarni, guruh va qabilalar orasida alohida e'tiborga ega shaxslar bilan ham aloqalar o'rnatish kabi ko'rsatmalar kirardi. Ekspeditsiya tarkibini ingliz ofitsierlari va joslari tashkil etib, Afg'oistonda har taraflama chuqur harbiy-siyosiy razvedka ishlarini olib bordi. Shaxsan M.Elfinstounga mamlakatning xukmron doiralari haqida batafsil ma'lumotlar

yig'ish topshirig'i yuklanadi. Ekspeditsiya deyarli besh oy davom etadi. Shu vaqt mobaynida ular mamlakatdagi karvon yo'llari, afg'on xalqi va qabilalari, alohida e'tiborga ega bo'lgan shaxslar bilan tanishadi [4]. Inglizlar mahalliy amaldorlarga qimmatbag'o sovg'alar berish orqali ular bilan aloqalar o'rnatadi. Pora berib o'z tomoniga og'dirish ingliz siyosatiga xos xususiyat bo'lib, harqanday urushda o'z xukmronligini o'rnatishda vosita bo'lib xizmat qiladi. 1809 yil iyun oyida Peshavorda M.Elfinstouning shox Shujo ul-Mulk bilan olib borgan muzokaralari natijasida birinchi afg'on-ingлиз shartnomasi imzolanadi. Shartnomha shundan iborat ediki mobodo Fransiya va Eron Hindistonga xujum qilgudek bo'lsa Afg'oniston Angliya tomonida turib urushda qatnashishi nazarda tutilgan edi [5]. Ost-Indiya kompaniyasi 1820-1825 yillarda o'zining tajribali xodimi Uilyam Murkroft boshchiligidagi Afg'oniston va unga qo'shni bo'lgan xududlarga ularning iqtisodiyoti, harbiy-siyosiy holati, xududlarning topografik joylashuvini va ayniqsa tog'lardan o'tib bo'ladigan so'qmoqlar, daralar, yo'llar haqida ma'lumotlar to'plash uchun Britaniya ekspeditsiyasini jo'natadi. Uilyam Murkroft va boshqa ekspeditsiya a'zolari 1822 – yilda Jalolobodda, 1824 - yilda Kobul shaharlarida bo'lishadi. U va uning hamrohlari yevropaliklar orasida birinchi bo'lib Bomiyondagi buddanining ulkan xaykalini ko'rishgan. Ekspeditsiya a'zolari 1825 yil fevral oyida Buxoro amrilib qishilik tarkib bilan kirib kelishadi. Bu ekspeditsiya natijasida inglizlar Buxoro amrilibi har taraflama o'rganadi va mahalliy amaldorlar bilan til topishning uddasidan chiqadi[6]. Markaziy Osiyoning iqtisodiy, siyosiy imkoniyatları, savdo yo'llari, strategik ahamiyatga ega nuqtalarini o'rganishda anchagini katta ish qilgan ingliz armiyasi harbiy razvedka leytinanti A.Byorns bo'lib, u Ost-Indiya kompaniyasiga xizmat qilganlar orasida eng qobiliyatlaridan edi. U fors tili va unga yaqin bo'lgan boshqa dialektlarni ham mukammal egallagan bo'lib, bu esa unga O'rta Sharq xalqlari orasida osonlik bilan munosabatta bo'lishiga va ular orasiga kirishib ketishiga xizmat qildi. U to'plagan ma'lumotlar harbiylar, diplomatlar, iqtisodchilar, lingvistlar, savdogarlar, geograf va sayyohlar uchun qimmatli ma'lumotlar bo'lib xizmat qiladi. 1831 - yilda A.Byorns hind savdogari niqobi ostida Buxoroga yo'l oladi. Uning vazifasiga Hindistondan Buxoroga eng qisqa bo'lgan yo'lni topish, mahalliy bozorlarni o'rganish, Buxoro amrilibi bilan Hindiston o'rtaasidagi dastlabki siyosiy va savdo aloqalarini o'rnatish kirardi. A.Byorns sayohatini Dehlidan boshlaydi va Amritsar, Peshavar, Kobul orqali Xulumga keladi. Xulumdan u sharqqa qarab yo'l oladi va Qunduz shahrini batafsil tadqiq qiladi. Uerdan u Balxga keladi so'ngra Amudaryodan o'tib Qarshi orqali Buxoroga yetib keladi. Uerda birnecha oy bo'lib, A.Byorns Chorjo'y va Urganch orqali Mashxadga yo'l oladi. Shu joydan unga Ost-Indiya kompaniyasi xodimi Moxan Lal unga Xirotg'a borishi uchun xamroxlik qiladi. Ular butun Xurosonni aylanib so'ngra Texron va Fors ko'rfazi orqali yana qaytib Hindistonga yo'l oladi[7]. Aslida Byornsning olib borgan barcha ekspeditsion missiyalarining moxiyati Afg'onistonni harbiy yo'l orqali bosib olishga qaratilgan xarakat yotardi. Ost-Indiya kompaniyasi rahbarlari unga mamlakat bilan har tomonlama tanishish, xususan uning xukumati, xukumat rahbarlari, amaldorlari, iqtisodiyoti, uning qurolli kuchlari, boyliklari shuningdek qo'shni mamlakatlar bilan o'zaro munosabatlari haqida ma'lumotlar to'plash to'g'risida ko'rsatmalar beradi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun ekspeditsiya tarkibiga leytinanti Robert Lich, hind floti leytinanti Jon Vud va vrach Persival Lordlar kirardi. R.Lichga mamlakatning harbiy soxasini va uning qo'shin turlarini kuzatish, J.Vudga suv yo'llarini birinchi navbatda

Amudaryoni o'rganish, P.Lordga esa borgan joylarining tabiy boyliklarini o'rganish vazifasi yuklatiladi. Lord uzoq vaqt mobaynida Qunduz xonligini o'rganadi Vud esa Pomir oldi xududlarini xususan yuqori Amudaryo, Vaxan Sariko'l xavzalari to'g'risida ma'lumotlar toplash bilan shug'ullanadi. R.Lich bu vaqtida Qandaxorda qolib A.Byornsga Qandaxor, Xirot va Erondagi bo'layotgan voqealar haqida axborotlar jo'natib turadi [8]. Shuni ta'kidlash kerakki inglez maxfiy xizmat xodimlarining Afg'onistonidagi asosiy rezidentsiyasi Hirot shahri bo'lib xodimlarga buyruqlar asosan shuyerdan berilardi. Hirotdagi bu yashirin tarizda asos solingan markazga mayor d.Arni Todd boshchilik qilgan. Britaniya bir zum ham Afg'oniston xududini tadqiq qilish ishlarini to'xtmadi. Ular Afg'onistonning siyosiy, iqtisodiy ahvolini va qulay bo'lgan savdo yo'llarini topish maqsadida o'lkani sinchkovlik bilan o'rganish ishlarini muntazam ravishda olib borishgan. Mamlakatda faoliyat olib borayotgan Ost-Indiya kompaniyasi xodimlari Kalkutta va Londonga turli xil ma'lumotlar va axborotlarni boricha yetkazib turishgan. Yer yuzining shunday mintaqalari, hududlari borki, ular tabiiy va turli-tuman qazilma boyliklari bilan emas, aynan geografik joylashuv bilan yirik imperiyalar e'tiborini o'ziga jalb etadi. Osiyoning strategik muhim mintaqasida joylashgan Afg'onistonning siyosiy kurashlar va fitnalar markaziga aylanib qolayotganining asosiy sababi ham shunda. "Moziya qaytib ish ko'rmoq xayrildir" Shunday ish ko'rsak, Afg'oniston va uning atrofida (boshqa olovli nuqtalarda ham) kechayotgan geosiyosiy o'yinlar mohiyatini o'rganish osonroq kechadi [9]. XIX asr boshlarida Angliya Afg'onistonga shunchaki mamlakat sifatida e'tibor qaratib qolmay balki uni Hindistondonning shimoliy-g'arbiy ostonasi sifatida ko'radi. Sababi Britaniyaning bosqinchilik siyosati rejasida bo'lgan Eron va Markazi Osiyo yerlariga harbiy yurishlar olib borilgan taqdirda Afg'oniston eng muhim harbiy amaliyotlarga tayyorgarlik ko'radigan maydon sifatida boshlang'ich nuqta vazifasini bajarishi kerak edi. Shu sababli Angliya Afg'onistoni tadqiq etish va batafsil o'rganish maqsadida u yerga o'zlarining maxfiy ayg'oqchilarini va xodimlarini jo'natadi. Masalan ularidan M.Elfinstoun, Ch.Kristi, U.Murkroft, Trebek, Frezer, Stirling, Konolli, Ch.Messon, A.Byorns kabi Ost-Indiya kompaniyasining maxfiy xodimlari to'plagan ma'lumotlar uzoq yillar davomida nafaqat Angliya balki boshqa imperialistik davlatlar uchun ham qimmatli manba bo'lib xizmat qildi [10].

Xulosa va natijalar. Shu tariqa XIX asrning o'ttizinchilari oxirida Britaniya mustamlakasi Afg'onistonga bostirib kirish uchun bo'lgan harbiy-siyosiy va diplomatik tayyorgarlikni yakunlaydi. Ular mamlakatdagi har-bir yo'llarning batafsil chizmalarini, suv yo'llarini, xukumat amaldorlarini, har qanday manbalarni, hududlarning siyosiy-iqtisodiy sharoitlarini sinchkovlik bilan o'rganishadi.

Afg'oniston bilan 1838-1842 yildagi birinchi inglez-afg'on urushidagi mag'lubiyatdan so'ng, u orqali o'zbek honliklariga safar qilish inglizlar uchun o'ta mushkul bo'lib qoldi. Endilikda inglizlar uchun Turkistonga Sin imperiyasi

orqali kirish mumkin bo'lgan yo'l ham bor ediki, ammo bungacha Xitoy xukumati Murkroft ekspeditsiyasidan so'ng yevropaliklarga o'z chegaralariga kirishga ham ta'qiq qo'ygan edi [11]. Xitoyning 1840-1842 yillardagi birinchi "afyun urushi" dagi mag'lubiyati Sharqiy Turkiston (Sinszyan) orqali Markazi Osiyoga kirishga umid berardi. Shunday bo'lsada Kanningxem va Streche ekspeditsiyalarining Xo'tan va Yorkentga kirishlariga mahalliy hokimiyat vakillari ruxsat bermagan.

Shu tariqa XIX asrning o'ttalarida inglez tadqiqotchilari, savdogarları va aylag'ochilarining Afg'onistonga sharqdan Xitoy orqali shimoldan Rossiya, janubdan Eron orqali kirib kelish yo'llari yopiq edi. Rossiya bilan munosabatlarning vaqtinchalik yaxshilanishidan foydalangan inglezlar Afg'onistonga Rossiya Turkiston orqali kirishga urinib ko'rishdi. Shu tariqa XIX asrning 50 yillarda britaniyaning Markazi Osiyo xususan Afg'onistonning josluslik tizimi o'ziga xos inqiroz ko'chasiga kirib qoldi. Vaziyatning bunday tus olishi Britaniyaning tashqi siyosati va bosqinchilik amaliyotlarini olib boruvchi Ost-Indiya kompaniyasida Markazi Osiyo ayniqsa Afg'oniston to'g'risidagi ma'lumotlarning taqchilligiga va ushbu mintaqaga haqidagi mavjud ijtimoiy-siyosiy holatning qanday ekanligi borasidagi tasvvurlarning kamayib ketishiga olib keldi[12]. Bunday vaziyatdan chiqish maqsadida inglezlar mahalliy aholi vakillaridan iborat bo'lgan josluslik tizimini yaratadi. Inglizlar ushbu maqsadni amalga oshirish uchun barcha vositalarni ishga soladi, xususan yollangan mahalliy josluslarni o'z davriming zamonaliviy va kerakli bo'lgan anjomlari bilan ta'minlaydi va ularni ishlatalish yo'llarini, ularga aylag'ochilik ishlarini amalga oshirish sir asrorlarini o'rgatadi va har-bir qimmatli bo'lgan ma'lumot uchun katta miqdordagi pul mukofoti belgilaydi. Ushbu tizim Uokker tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ayniqsa mayor T.S.Montgomeri tomonidan rivojlantirildi va o'zining natijasini berdi. Ilgari mahalliy aholi vakillaridan josluslikka yollash kamyob holat bo'lgan bo'lsa (Mir Izzat Ullo, Munshi Mo'xanlal) endilikda juda ham katta ko'lamga aylangan edi. 1850-1864 yillardagi taypinlar harakati, 1856-1860 yillarda Xitoyning ikkinchi "afyun" urushidagi mag'lubiyati, mahalliy musulmonlar qo'zg'aloni natijasida Sint Imperiyasidan ajralib chiqqan Sintszyan (Shinjon) va inglizlarning qo'llab-quvvatlashi bilan XIX asrning 60- yillarida hokimiyat tepeasiga kelgan Yoqubbek hokimiyyati davrida inglezlar Afg'onistonga sharqdan Ladak va Tarim orqali kirib kelish imkoniyati yuzaga keladi[13].

XIX asr 80-yillarida Britaniya razvedka tizimining rivojlanganligiga qaramasdan Markazi Osiyoga inglez aylag'ochilarining kirishi judayam mushkul bo'lib qoldi. Sababi podsholik xukumati Turkistonga rus bo'limgan barcha yevropaliklarning kirishiga ta'qiq qo'yadi, bu esa "ilmiy" faoliyat bilan shug'ullanadiga inglez sayohatchilariga ham ta'lulqi bo'lib, endilikda ularning Turkiston orqali Afg'onistonga o'tishi xatarli bo'lib qoldi. Ushbu ta'qiq tufayli Turkistonda inglez aylag'ochilariga qarshi "ov" boshlandi.

ADABIYOTLAR

1. In Defence of British India: Great Britain in the Middle East, 1775-1842 By Edward Ingram. Frank Cass & Co, London, 1984. ISBN 0714632465. p7-19
2. Афганское разграничение. Переговоры между Россией и Великобританией: 1872—1885. — СПб.: Тип. А. С. Суворина, 1886. — 381 с.
3. Бартольд В.В. Работы по истории ислама и Арабского халифата. — М.: Восточная литература, 2002. — 784 с.
4. Бёрнс А. Путешествие в Бухару, ч. III. М., 1850, с. 274.
5. Бёрнс А. Путешествие в Бухару, ч. III. М., 1850, с. 278.
6. Сборник географических, топографических и статистических материалов по Азии. - Санкт-Петербург : Военно-ученый ком. Главного штаба, 1882-1914. - 21 см. Вып. 80. - 1907. - XI, 129 с., 4 л. карт., план. Скрыть Ост-Индия

- (Афганистан). Договор, заключенный между британским правительством и эмиром афганским от 21 марта 1905 года, с относящимися к нему приложениями Тимченко С.В. Англо-русское соперничество в Средней Азии в 40- е гг. XIX века. — Алматы. — 120 с.
7. Сборник географических, топографических и статистических материалов по Азии. - Санкт-Петербург : Военно-ученый ком. Главного штаба, 1882-1914. - 21 см. Вып. 80. - 1907. - XI, 129 с., 4 л. карт., план. Скрыть Ост-Индия (Афганистан). Договор, заключенный между британским правительством и эмиром афганским от 21 марта 1905 года, с относящимися к нему приложениями.
 8. Сборник географических, топографических и статистических материалов по Азии. - Санкт-Петербург : Военно-ученый ком. Главного штаба, 1882-1914. - 21 см. Вып. 41. - 1890. - VII, 252 с., 6 л. карт. Скрыть Военные пути сообщения на Индо-Афганской границе П. М. Лессар
 9. Сборник географических, топографических и статистических материалов по Азии. - Санкт-Петербург : Военно-ученый ком. Главного штаба, 1882-1914. - 21 см. Вып. 45. - 1891. - VII, 210 с., 1 карт. Скрыть Англо-афганская железная дорога
 10. Сборник географических, топографических и статистических материалов по Азии. - Санкт-Петербург : Военно-ученый ком. Главного штаба, 1882-1914. - 21 см. Вып. 87. - 1914. - XII, 180 с., + 2 отд. л. ил. Скрыть Военно-статистические сведения по Афганистану
 11. Сборник географических, топографических и статистических материалов по Азии. - Санкт-Петербург : Военно-ученый ком. Главного штаба, 1882-1914. - 21 см. Вып. 87. - 1914. - XII, 180 с., + 2 отд. л. ил. Скрыть Военно-статистические сведения по Афганистану
 12. Хидоятов.Г.А. Британская экспансия в Средней Азии, Т.,1981, с.7
 13. Штейнберг, ЕЛ. История британской агрессии на Среднем Востоке Е.Л. Штейнберг. М.: Воениздат, 1951. -212 с.
 14. In Defence of British India: Great Britain in the Middle East, 1775-1842 By Edward Ingram. Frank Cass & Co, London, 1984. ISBN 0714632465. p7-19
 15. Риттер К. Землеведение. – Вып.2. – СПб., 1873.



UDK: 94(575.1):711.4(09)(575.1)

Zafar KARIMOV,

Urganch davlat universiteti o'qituvchisi

E-mail: temurmalik154@gmail.com

Urganch davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD U.Xo'jamuratov tagrizi asosida

EARLY PROCESSES IN THE CULTURAL AND ECONOMIC CENTERS OF THE SOUTHERN ARAL BASIN AND WESTERN ZARAFSHAN (IV-I CENTURIES BC)

Annotation

The article analyzes the socio-economic and ethno-cultural relations of cultural and economic centers of the right bank of the Amudarya and the lower basin of the Zarafshan Valley.

Key words: "priest's initiative", demographic growth, migration processes, microoases, ancient period, Kaltaminar, Aqshakhankala, Kirqqizkala, Toprokkala, Tazabagyap irrigation system.

ПРОЦЕССЫ, ПРОИСХОДИВШИЕ В КУЛЬТУРНО-ХОЗЯЙСТВЕННЫХ ЦЕНТРАХ ЮЖНОГО ПРИАРАЛЬЯ И ЗАПАДНОГО ЗЕРАФШАНА (IV – I ВВ. ДО Н. Э.)

Аннотация

В статье проанализированы взаимосвязи социально-экономических и этнокультурных отношений культурно-хозяйственных центров Правобережья Амударья и нижнего бассейна Зерафшанской долины.

Ключевые слова: «инициатива жреца», демографический рост, миграционные процессы, микроазисы, античный период, Калтаминар, Акшаханкала, Кирккизкала, Топроккала, ирригационная система Тазабагяпа.

JANUBIY OROLBO'YI VA G'ARBIY ZARAFSHON MADANIY-XO'JALIK MARKAZLARIDA KECHGAN JARAYONLAR (MIL. AVV IV – I ASRLAR)

Annotatsiya

Maqolada Amudaryo o'ng sohili hududi hamda Zarafshon vodiysi quiy havzasi madaniy-xo'jalik markazlari ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlari o'zaro aloqlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: "kohin tashabbusi", demografik o'sish, migratsiyon jarayonlar, mikrovohalar, antik davr, Kaltaminor, Aqshahanqal'a, Qirqqizqal'a, Tuproqqa'l'a, Tozabog'yop sug'orish tizimi.

Kirish. Eng qadimgi davrdan ajdodlarimiz tomonidan tomonidan yaratilgan moddiy-ma'naviy merosni asrabavaylash, rivojlantirish borasida O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligiga erishganidan keyin ko'p salmoqli ishlar amalgaga oshirib kelinmoqda. Ayniqsa yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan xaqqoniylar tarixni to'g'ri yoritish dolzarb vazifa sifatida belgilab berildi. "Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur" [1].

Geologik jarayonlarning bir necha marta takrorlanishi natijasi bo'lgan janubi-sharqi Orolbo'yı va Quyi Zarafshon vodiysi hududlarida faoliyat olib borgan madaniy-xo'jalik hududlarida temir davri turar-joylari aholisi soni o'sishi natijasida vujudga kelgan oziq-ovqat muammosini e'tiborga olgan "kohin tashabbusi" bilan qo'shni hududlarni o'zlashtirish maqsadida Amudaryo hamda Zarafshon va Vobkent daryolaridan sug'orish inshootlari chiqarilgan, ularning boshi, o'rta va adog'ida qurilgan shaharlarning tarixiy ahamiyatini yoritish mazkur maqolada vazifa qilib belgilangan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekiston viloyatlari hududlari arxeolgik yodgorliklarida keng qamrovli tarzda olib borilgan arxeologik izlanishlar ilmiy tahlil natijalarini asos qilib olgan nashrlarda qayd qilingan tarixiy ma'lumotlar nazariy-qiyosiy tahlil asosida ushbu bandni yoritishga xizmat qiladi. Mil. avv IV – milodiy IV asrlarda O'zbekiston hududi antik davr jamiyatida muhim o'zgarishlar yuz berdi. Mazkur davrlarda O'zbekiston hududida joylashgan

xalqlar demografik o'sish yuqoriligi, inson hayoti uchun zarur bo'lgan resurslarga bo'lgan ehtiyojlari tufayli qulay tabiiy-geografik hudud izlab migratsiya jarayonlarini olib borishgan. Natijada asosiy hududdan alohida holda madaniy-xo'jalik mikrovoha shaharlari vujudga kela boshladi. Ahamiyatli jihat shundaki, mikrovoha bosh shahri bilan migratsiyon jarayonlar natijasida tashkil topgan shaharlari o'rtasida doimiy ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy aloqalar muntazam davom etgan. Mazkur tarixiy jarayonlar Qadimgi Yunonistonda vujudga kelgan akropolis va ular negizida tashkil topgan polislari o'rtaasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga o'xshash bo'lgan. Aynan migratsiyon jarayonlar O'zbekiston hududida shaharsozlik madaniyatining rivojlanishiga kuchli turtki bo'lgan.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonning qadimgi davri shaharsozlik madaniyati tarixi uch bosqichiga ajratilgan. 1.Birinchi antik davr (Avesto davri) – mil.avv IX – VI asrlar; 2.O'rta antik davr (Baqtriya-So'g'diyona shaharsozligi) – mil.avv IV – II asrlar; 3.So'ngi antik davr (Kushon davri) – mil. avv I – milodiy I asrlarga ajratilgan [2]. B.Eshov esa, antik davr urbanizatsiyasi o'zining rivojlanish bosqichida ikkita katta davrni mil.avv IV – I asrlar va milodiy I – IV asrlar deb tadqiq qilgan [3]. Tarixiy jarayonlarning mohiyati jihatidan farqlanish xususiyatlari ega ekanligi bois, tadqiqotchining fikriga qo'shilish mumkin. Mazkur maqolada birinchi tarixiy davrda Amudaryo sohili o'ng hududi hamda Quyi Zarafshon vodiysisida kechgan tarixiy jarayonlarni yoritish maqsad qilib olingan. Bu tarixiy davrning jamiyatida yuz bergan ijtimoiy – iqtisodiy va

etnomadaniy munosabatlarning rivojlanishiga bo'lgan omillar, ya'ni siyosiy birlashmalarining vujudga kelishi (So'g'd, Baqtriya, Xorazm, Qang', Davan va Kushon), ichki va tashqi barqaror vaziyat, Amudaryo, Sirdaryo, Chirchiq, Norin, Surxondaryo, Qashqadaryo va Zarafshon daryolaridan ikki yon tomonga chiqarilgan magistral inshootlar, ularning ikki yon tomonga yo'naltirilgan shoxobchalar boshi, o'rtasi va adog'iда ziroatkor aholi tomonidan qad ko'tarilgan turar-joylar ma'lum geografik o'rinni egallab, mil. avv IV – III asrlarda mikrovohalarning shakllanishi keng tus olishiga olib kelgan.

Mazkur tarixiy davr jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlar rivojlanishida Sho'raxon hududi tevarak atroflarida kechgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning o'ziga xos xususiyatlari bilan Buxoro-Qorako'l dehqonchilik vohasida kechgan jarayonlardan geografik holatini kuzatish mumkin. Quyi Amudaryo hududi sharqiy qismida temir davri so'ngi choragida Kaltaminor sug'orish tizimida bunyod qilingan Bozorqal'ada antik davrda ham madaniy-xo'jalik hayot davom etgan [4]. Bozorqal'a aholisi tarkibida faoliyat olib borgan hunarmandlar amaliy tajribalari natijasida bunyod qilingan turar-joylar (Yonboshqal'a, Ayozqal'a – 3, Katta Guldursun, Burgutqal'a, Tuproqqal'a) shakllangan. Tuproqqal'adan chiqarilgan Toshximon sug'orish tizimida Akshahanqal'a, shimoli-g'arbiy tomon chiqarilgan shohobcha etagida Qizilqal'a bunyod etilgan va ular ma'muriy-hududiy markazlar vazifasini bajargan. Quyi Amudaryo sharqiy hududi geografik manzarasini aynan takrorlagan Qizilqum yuzasi gidrografiyasida o'zgarishlar qilgan Zarafshon daryosi suv ta'minoti yuqori darajada bo'lganligi va undan shimoliy tomonqa chiqarilagan Shaxrud sug'orish faoliyati davom etganligi bois Buxoro ma'muriy hududiy markaz sifatida o'z o'mini saqlab qolgan. Shaxrud sug'orish inshootidan g'arbiy tomon chiqarilgan sug'orish inshooti oxirida dehqonchilik vohasi markazi Varaxsha qal'asi barpo qilingan. Vobkent daryosi sohili bo'ylab Romuschtepa qal'asi bunyod qilinib, u ham dehqonchilik vohasi markazi bo'igan. Sho'raxon inshooti va Quyi Zarafshon vodiysi oralig'ida antik davr turar-joylari bunyod qilinishi bilan quyidagi mikrovohalar va ularning markazlari shakllangan.

Amudaryo o'ng sohili sarhadlari madaniy-xo'jalik mikrovohalari:

1. Bozorqal'a madaniy-xo'jalik mikrovohasi faoliyati davom etdi. Uning doirasida madaniy-xo'jalik markazi – Qo'rg'oshinqal'a [5].
2. Jonbosqal'a balandligi atrofida madaniy-xo'jalik mikrovohasi markazi Jonbosqal'a [6].
3. Jonbosqal'a madaniy-xo'jalik mikrovohasi bosh shahri Qo'yqirilganqal'a [7].
4. Kaltaminor sug'orilish tizimi madaniy-xo'jalik mikrovohasi bosh shahri Burgutqal'a [8].
5. Katta Qirqizqal'a sug'orilish inshooti sohili hududida madaniy-xo'jalik mikrovohasi bosh shahri Katta Guldursun [9].
6. Katta Qirqqizqal'a madaniy-xo'jalik mikrovohasi bosh shahri uning doirasida Katta Qirqqizqal'a [10].
7. Katta Qirqqizqal'a madaniy-xo'jalik mikrovohasi bosh shahri doirasida Kichik Qirqqizqal'a [11].
8. Tuproqqal'a sug'orish inshooti adog'iда madaniy-xo'jalik markazi bosh shahri Tuproqqal'a [12].
9. Tuproqqal'a sug'orish tizimining shimoli-g'arbida madaniy-xo'jalik mikrovohasi markazi Qizilqal'a [13].
10. Kaltaminor sug'orilish tizimi madaniy-xo'jalik mikrovohasi bosh shahri Ayozqal'a-3 [14].
11. Ayozqal'a-3 madaniy-xo'jalik mikrovohasi markazi Burliqal'a [15].

12. Ayozqal'a-3 madaniy-xo'jalik mikrovohasi markazi Ayozqal'a-1 [16].

13. Toshximon vohasi madaniy-xo'jalik mikrovohasi bosh shahri Aqshaxanqal'a [17]. Aqshaxanqal'a mil.avv III asrning oxiri – mil. avv II asrning boshlarida bunyod etilgan [18].

14. Aqshaxanqal'a madaniy-xo'jalik mikrovohasi bosh shahri Toshxirmontepa [19].

15. Kat kanali tizimida madaniy-xo'jalik mikrovohasi bosh shahri Katqal'a (Amudaryoning o'ng sohili) [20].

16. Katqal'a madaniy-xo'jalik markazi mikrovohasi bosh shahri Al-Fir (Pilqal'a) [21].

17. Toktau tepaligi atrofini qamrab olgan madaniy-xo'jalik mikrovohasi bosh shahri To'qqal'a [22].

18. Sultan Uvays tog'i, Qoratog' tizimi madaniy-xo'jalik mikrovohasi bosh shahri Gaurqal'a [23].

19. Tuproqqal'a madaniy-xo'jalik markazi mikrovohasi bosh shahri Tuproqqal'a [24].

20. Tuproqqal'a madaniy-xo'jalik mikrovohasi bosh shahri Toshqal'a-2 [25].

21. Kaltaminor sug'orilish tizimi atrofini qamrab olgan madaniy-xo'jalik mikrovohasi bosh shahri Erezqal'a [26].

22. Tozabog'yob sug'orilish tizimi madaniy xo'jalik mikrovohasi bosh shahri Jildikqal'a [27].

23. Kaltaminor sug'orilish tizimida madaniy-xo'jalik mikrovohasi bosh shahri Uyqal'a [28].

24. Kaltaminor sug'orish inshooti quyi oqimini qamrab olgan madaniy-xo'jalik mikrovohasi markazi Dumanqal'a [29].

25. Kaltaminor sug'orish inshooti boshi atrofini qamrab olgan madaniy-xo'jalik mikrovohasi bosh shahri Anqaqal'a [30].

26. Burgutqal'a madaniy-xo'jalik mikrovohasi doirasida mikrovohasi bosh shahri Teshikqal'a [31].

27. Tozabog'yob sug'orilish tizimi quyi havzasi atrofini qamrab olgan mikrovoha markazi Qumboskanqal'a [32].

28. Amirobod sug'orish tizimi atrofini o'rab olgan madaniy-xo'jalik mikrovoha markazi Yakkha Porson [33].

29. Sho'raxon hududi madaniy-xo'jalik mikrovohasi markazi Norinjon [34].

30. Oqchadaro havzasi shimoli-sharqiy mikrovohasi markazi Baraktom [35].

G'arbiy Zarafshon madaniy-xo'jalik mikrovohalari:

1. Zarafshon daryosi Zarirud irmog'i oxirida madaniy-xo'jalik mikrovohasi bosh shahri – Buxoro [36].

2. Zarirud irmog'i sohili hududiga ulangan tekislik madaniy-xo'jalik mikrovohasi markazi Varaxsha [37].

3. Buxoro madaniy-xo'jalik mikrovohasi bosh shahri doirasida madaniy-xo'jalik mikrovohasi markazi Romustepa [38].

4. Buxoro madaniy-xo'jalik markazi bosh shahri doirasida Qozimontepa, Chordara, Qushrabot, Arabon-1,2, Xo'ja Bo'ston, O'ratega mikrovoha markazlari shakllangan [39].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot metodologiyasi quyidagicha:

- obyektivlik (reallashtirish);
- xronologik izchillik;
- ilmiy tahlil, qiyoslash, umumlashtirish;
- asoslash;
- arxeologiya, etnografiya, geografiya fanlari natijalaridan foydalanish.

Tahlil va natijalar. XX asr adabiyotlar va mustaqillik yillari nashrlarida qayd qilingan tarixiy ma'lumotlar asosida Amudaryo o'ng sohili hamda Buxoro-Qorako'l dehqonchilik vohalari antik davr jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy va

etnomadaniy munosabatlarning rivojlanish obyektlari bo'lgan mikrovohalar madaniy-xo'jalik markazlari bo'lgan bosh shaharlarining ma'muriy-hududiy va diniy-mafkuraviy markazlari nazariy-qiyosiy jihatdan tahlil qilindi. Natijalari esa quyidagi fikrlarni keltirib chiqardi, ya'ni Sulton Uvays tog'i va Sho'raxon qishlog'i hamda Buxoro vohasi hududlari geologik jihatdan yaxlit, geogarfik manzarasida esa farqlanish xususiyatlari ko'zga tashlanadi, ya'ni, Amudaryo o'ng sohili hududi Qizilqum manzarasi, Yonboshqal'a balandligi, Ko'kcha tog' tizmasi hamda Oqchadaryo irmog'i tasvir qilgan bo'lsa, Quyi Zarafshon vodiysi geomorfologiyasini Jarqoq, Setalak tepaliklari, Qurjiktov tizmalari hamda Zarafshon daryosining Mohandaryo, Gujayli, Echkiliksoy, Daryosoy va Oyoqagitim irmoqlari namoyon qilgan. Mil. avv IV – III asrlarda Amudaryo o'ng sohili hududlarida o'troq ziroatkoh aholi Kaltaminor, Tozabog' yop va Amirobod sug'orish inshootlari sohili bo'yab, shaharlar maqomiga ega bo'lgan turar-joylarning bir-biriga yaqin masofada joylashganlagi (5-20 km), Quyi Zarafshon hududida Zarafshon daryosi hamda Vobkent daryolaridan

chiqarilgan sug'orish inshootlari sohili bo'yab tashkil qilingan shaharlarning bir-biridan ancha uzoqda joylashishi tahlil qilindi.

Xulosa va takliflar. Takliflar quyidagicha izohlandi:

Birinchi taklif: Amudaryo o'ng sohili va Qorako'l-Buxoro dehqonchilik vohalarining geografik holati, Amudaryoning Oqchadaryo irmog'i hamda Zarafshon daryosining beshta o'zanlari umumgeografik kenglikda neolit davridan ilk antik davrlar o'troq va chorvador aholi o'rtasida olib borilgan aloqalarni yangi arxeologik izlanishlar natijasida o'rganish;

Ikkinchchi taklif: Mil. avv X – V asrlarda ikki madaniy-xo'jalik hududlarida kechgan tarixiy jarayonlarni yozma manbalar va arxeologik tadqiqotlar natijalarini umumlashtirish asosida siyosiy munosabatlar tarixini tahlil qilish;

Uchinchi taklif: Neolit davridan ilk antik davrda o'zbek davlatchiligidagi shaharlar tarixiga oid yaxlit tadqiqot yaratish hozirgi kun zarurati hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

- Mirziyoyev Sh Yangi O'zbekistonda erkin va faravon yashaylik//Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g'oyamizning poydevoridir. Toshkent, 2023, "O'zbekiston". 5-jild. 277 b.
- Mamatmusayev T.Sh. Genesis and Evolution of Ancient Cities in Central Asia. 2020. International Journal of Scientific Engineering and Science. Vol 4, Issue 7, pp. 74-82.
- Эшов Б. Қадимги Ўрта Осиё шаҳарлари тарихи. Тошкент, 2006. -Б 182-183.
- Гуломов Я.Ф. Хоразмнинг сугорилиш тарихи-Тошкент,: Фан, 1959 -Б.8.
- Ходжаниязов Г.К. Оборонительные сооружения городища Кургашин-кала//Археология Приаралья. Вып-2, 1984. – С. 36-46.
- Толстов С.П.Древний Хорезм. –М,: "Наука", 1948. –С 91-93.
- 7.Кой-кирилган-кала – Памятник культуры древнего Хорезма IV в.до.н.э – IV в.н.э//ТР. ХАЭЭ, 1967-М,: "Наука", 1967. Т-5. –С 310.
- Неразик Е.Е. Сельские поселения афригидского Хорезма.-М,: Наука, 1966. -С 56-58.
- Герсимовский А.И. Древности Хивы и Амударинского отдела//Исторический вестник – Сб, 1979, Вып-17, -С 971-973.
- Мамбетуллаев М. История и культура южного Хорезма античной эпохи (города и поселение IV в.до.н.э – IV в.н.э): Автореф. дисс..докт. ист.наук.-Ташкент, 1994. 42-С.
- Ходжаниёзов Г.К. К изучению оборонительных сооружений Малой Кирккиз-кала//ВКФ АН РУз-Нукус, 1985, Вып-1, -С 26-32.
- Городище Тупраккала-М,: "Наука", 1981. 147 с.
- Ходжаниёзов Г.К. Кизилкала (работы 1981-1982 гг)//Археология Приаралья-Ташкент: Фан, 1986. Вып-2 -С 51-64.
- Болелов С.Б. Крепост Аяз-кала – 3 в правобережном Хорезма//Приарале в древности и средневековье-М,: "Наука", 1998-С 117-134.
- Ходжаниязов.Г.К. Қадимги Хоразм мудофаа иншоотлари.-Ташкент,: Ўзбекистон.2007.-Б 12-13.
- Тереножкин А.И. Археологические разведки в Хорезме//СА.-М,: Наука, 1940. №6-С 174.
- Ходжаниёзов Г; Ягодин В.Н; Хелмс С.У; Макларен Б.П. Раскопки на Акшанкале//Археологические исследования в Узбекистане. 2000 г Самарканд, 2001 – С 175-180.
- Betts A. Akchakhan-Kala: Questions of Chorasmian kingship. Цивилизации Великого шелкового пути из прошлого в будущее: перспективы естественных, общественных, гуманитарных наук: материалы Международной научной конференции, Самарканд, 2017, С 66-72.
- Бетц А.В; Ягодин В.Н. Раскопки Тошхирмонтепе//Археологические исследования в Узбекистане в 2001 г Самарканд, 2002.-С 47-55.
- Манилов Ю.П. К изучение городище Кят//Вестник ККФ АН Уз – Ташкент; Фан, 1965. Вып-2 – С 49-56.
- Манилов Ю.П. Работы на городище Пилкала в 1963 г//Ташкент; Фан, АН Уз. 1966 Вып-3 – С 44-45.
- Гудкова А.В. Токкала. Ташкент. Фан, 1964. –С 20-25.
- Рапапорт Ю.А. Трудновская С.А. Городище Гауркалья//ТрХАЭЭ-М, Наука, 1958, Том-2. –С 347-366.
- Толстов С.П. Древности верхнего Хорезма-М, "Наука", 1941, ВДИ, Вып-1 – С 185.
- Баратов С; Раҳманов У. Новый храмовый комплекс античного и средневекового времени на юге Хорезма: Тошкала-2//Традиции древней и средневековой культуры Средней Азии: Сборник статей, посвященной 70-летию П.Бернара-Ташкент,: 2010.-С 102-105.
- Толстов С.П. Древний Хорезм-М,: МГУ. 1948.-С 101. Рис 38.
- Сабиров К. Хоразмнинг кишилоп ва шаҳарлари мудофаа иншоотлари.-Ташкент. Фан, 2009.-Б 54.
- Неразик Е.Е. Сельские поселения афригидского времени.-М,: 1966 – С 20-35.
- Неразик Е.Е. Сельское жилище в Хорезме (I-XIV вв)-М,: "Наука", 1976 – С 28-32.

30. Ходжаниязов Г.К. Анқақалъа-позднеантичная крепость древнего Хорезма//ВКФ АН Уз-Нукус. 1986. Вып-1. –С 57-64.
31. Неразик Е.Е. Селские поселения афригидского времени.-М.: 1966 – С 102-105.
32. Неразик Е.Е. Селское жилище в Хорезме (I-XIV вв)-М.; “Наука”, 1976 – С 48-55.
33. Неразик Е.Е. Раннее средневековые в Хорезме//Этнографическое обозрение.-М.: 1997. Вып-1, -С 45.
34. Тереножкин А.И. Археологические разведки в Хорезме//СА-М.; “Наука”. 1949. №6 – С 160-165.
35. Орлов М.А. “Новые памятники позднеантичной архитектуры Северо-восточного Хорезма”//Археологические и этнографические работы Хорезмской экспедиции 1945-1948 гг/-М.; “Наука”, 1952. Том-1, - С 135-152.
36. Мухаммаджонов А.Р. Бухоро шаҳри 2500 ўшда/Инсониятнинг илмий ва маданий мероси – 3000 минг йилликка. Бухоро ва Хива шаҳарларининг 2500 йиллигига бағишлиланган ҳалқаро симпозиум тезислари – Ташкент,: “Ўзбекистон”, 1997 – Б 9-10.
37. Шишкун В.А. Варахша-Ташкент,: “Фан”, 1963 – С 107-110.
38. Сулайманов Р.Х, Ураков Б. Результаты предварительного исследования античная городище селения Ромыш//ИМКУ,-Ташкент, Фан, 1977, Вып 13-С. 55-64.
39. Аскаров А. Қадимги Бухоро худудида илк шаҳар маданиятининг шаклланиш маңбалари//Инсониятнинг илмий ва маданий мероси – 3000 мингийилликка. Бухоро ва Хива шаҳарларининг 2500 йиллигига бағишлиланган ҳалқаро симпозиум тезислари – Ташкент,: “Ўзбекистон”, 1997 – Б 12-13.



Shaxlo KOMIROVA,
O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: komilovashaxlo25@gmail.com

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti dotsenti, PhD N.Narziyev taqrizi asosida

AYOLLAR MIGRATSİYASI MASALASINI ILMİY O'RGANILISHİGA DOİR MULOHAZALAR

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekistonda ayollar migratsiyasi jarayonlari tarixiga oid tadqiqotlar tahlili, xalqaro va mahalliy tadqiqotlarda bugungi migratsiya jarayonlaridagi ayollar ishtiroki, sabablar va omillar, ayollar migratsiyasi natijasida kelib chiqadigan muammolar Farg'ona viloyati ayollari misolida tahlili bayon qilinadi. Maqolada ayollar migratsiyasi, sabablar, muammolar va ularning yechimiga oid davlat siyosati yo'naliishlariga urg'u berildi.

Kalit so'zlar: Migratsiya, globallashuv, ayollar migratsiyasi, ijtimoiy hayot, oila, migrant oilalar, Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi, o'zbek mentaliteti.

СООБРАЖЕНИЯ ПО НАУЧНОМУ ИЗУЧЕНИЮ ВОПРОСА ЖЕНСКОЙ МИГРАЦИИ

Аннотация

Данной статье на примере женщин Ферганской области аналитически описываются анализ исследований по истории женских миграционных процессов в Узбекистане, участие женщин в современных миграционных процессах в международных и местных исследованиях, причины и факторы, проблемы, возникающие в результате женской миграции. В статье подчеркнуты направления государственной политики в отношении женской миграции, причины, проблемы и пути их решения.

Ключевые слова: Миграция, глобализация, женская миграция, общественная жизнь, семья, семьи мигрантов, Агентство внешней трудовой миграции, узбекский менталитет.

CONSIDERATIONS ON THE SCIENTIFIC STUDY OF THE ISSUE OF WOMEN'S MIGRATION

Annotation

The summary. In this article, the analysis of research on the history of women's migration processes in Uzbekistan, women's participation in today's migration processes in international and local studies, reasons and factors, problems arising from women's migration are analytically described on the example of women of Fergana region. The article emphasized the directions of state policy regarding women's migration, causes, problems and their solutions.

Key words: Migration, globalization, women's migration, social life, family, migrant families, Foreign Labor Migration Agency, Uzbek mentality.

Kirish. XX asr oxiri va XXI asr boshlarida dunyoda aholi migratsiyasi o'zining yangi bosqichiga ko'tarildi. Tarixga nazar tashlasak, migratsiya ma'lum bir hududlardagina (Afrika, Osiyo, AQSH, G'arbiy Evropa)da ro'y bergan, hozirda bu jarayon tobora global hodisaga aylanib bormoqda.

Migratsiya jarayoni jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy migratsiya tamoyillari ichida e'tiborga loyiq jihatni bu -migratsiyaning feminizatsiyalashuvini hisoblanadi. Feminizatsiyalashuvning eng muhim tamoyili shuki, ayollar kuzatib boruvchi shaxs emas, tirikchilik vositalarining asosiy topuvchisi sifatida migratsiya qiladilar [1]. Ya'ni ayollar bu jarayonning bilvosita ishtirokchisiga aylanmoqda.

1990-yilda migrantlar soni 154 million, 2000-yilga kelib 174,8 million, 2010-yilga kelib esa 214 million kishini tashkil etib, dunyo aholisining 3,1 foiziga teng bo'lgan. Migrantlar soni 2017-yilda 2000-yilga nisbatan 49 foiziga ortgan. 2017-yilda 260-milliondan ortiq migrantlarning 68 millioni ayollardan iborat. 2019-yilga kelib xalqaro migrantlar soni 272-millionga yetdi. Hozirda dunyo aholisining 3,5 foizini tashkil qildi. 2021yil holatiga ko'ra, dunyodagi migrantlar

soni 281 million kishini tashkil etadi. Ularning 48 foizini ya'ni, 135 millionini ayollar tashkil etmoqda [2].

Yangi asrning zamonaviy hodisasi sifatida ayollar migratsiyasi butun dunyoda juda faol ommalashmoqda. Ayollar migratsiyasi bu ayollarning ish topish imkoniyati mayjud bo'lgan hududlar va davlatlarga ko'chish jarayonidir. Ayollar migratsiyasi global migratsiyaning asosiy qismiga aylanib ulgurdi. Kam rivojlangan mamlakatlar va mintaqalardan kelgan ayollar birinchi navbatda tirikchilik kuyida rivojlangan mintaqalar va davlatlarga bormoqdalar.

Jahonda ayollar migratsiyasi jarayonlari ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotga ta'sir etmasdan qolmaydi. Prezident Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "O'tgan yillarda 480 mingga yaqin xotin-qizlar uzoq muddatga horijga ishlash uchun ketgan bo'lib, hozirda ularning farzandlariga oid ma'lumotlar hech qaysi idorada mavjud emas" [3].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ayollar migratsiyalar murakkab ijtimoiy jarayon bo'lib, xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotining ko'p sohalarini o'z ichiga oladi. Bu jarayon faqat alohida mamlakatlardagina emas, butun olamda ham aholi sonining o'sishi sur'atiga, etnik tarkib o'zgarishiga sezilarli ta'sir o'tkazadi [4].

Migratsiya hodisalari shu jumladan, ayollar migratsiyasi jarayonlari xorijlik va mahalliy olim va tadqiqotchilar tomonidan o'rganib kelinmoqda. Amerikalik tadqiqotchilar Morrison, Andrew.R, Schiff Mauris, Mirja Sjoblom birgalikda "The international migration of women" kitobida (2007 yilda chop etilgan) xalqaro migratsiyaning deyarli yarmini ayollar tashkil etishini ta'kidlab o'tganlar. Bundan tashqari ayollarning mehnat bozoridagi ishtiroki va pul o'tkazmalariga oid yangi tadqiqotlarini taqqid etishadi [4].

MDH davlatlari olimlaridan G. S. Vitkovskaya, J. A. Zayonchkovskaya, E.V. Tyurikanova, L.L. Ribakovskiy va boshqalar migratsiya jarayoniga oid muammolarni tadqiq qilishga o'z hissalarini qo'shganlar. Bu tadqiqotlarda migratsiya jarayonlarida ayollar ishtiroki sabablari va migrant ayollar muammolariga to'xtalib o'tilgan.

Migratsiya makonida gender muammolari bilan shug'ullangan tadqiqotchilar ichida E. I. Tyuryukanovaning faoliyati eng salmoqli hisoblanadi. o'z asarlarida ayollar harakati xususiyatlarga ahamiyat qaratgan. Asosiy qarashlari "Ayollar mehnat migratsiyasi" 2002-yil asarida keltirilgan [5].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola etnografik dala tadqiqotlari asosida Farg'onha viloyati tumanlarida yashovchi migratsiyadan qaytgan ayollar, axborotchilar tomonidan olingen so'rovnomma natijalari va ilmiy adabiyotlar bilan umumlashtirilib, etnosotsiologik metodlar orqali tahlil qilingan.

Tahlil va natijalar. Migratsiya jarayonlarini nazariy o'rganish XIX asr oxirida boshlangan. Ayollar migratsiyasi muammolarini birinchilardan bo'lib tadqiq etgan olim ingliz kartografi va geografi E. G. Ravenshteyn (1834-1913) hisoblanadi.U XIX asning oxirlarida "Migratsiya qonuniyatlar" (London 1976)nomli asarini yaratgan. E. Ravenshteyn 1880-yilda "aholi migratsiyasi nazariyasini" yaratgan, bu esa hozirgi kungacha migratsiya nazariyasining asosi hisoblanadi. U masofalar va turli turdag'i muhojirlar o'rtaisdagi munosabatni o'rganib, ayollar erkaklarga qaraganda o'z tug'ilgan mamlakatiga ko'proq ko'chib ketishlarini, lekin erkaklarnikiga qaraganda o'z tug'ilgan mamlakatini tark etish ehtimoli kamroq ekanligini ta'kidlagan [6]. E. Ravenshteyn fikriga ko'ra, katta shaharlarda aholining ko'payib borishi uning tabiiy o'sishiga qaraganda asosan aholi migratsiyasi natijasida ko'payishini ta'kidlaydi. Ravenshteyn qonuniyatlariga muvofiq migrantlar bir hududni cheklangan imkoniyatlar bilan tark e'tib, boshqa mintaqalarda katta imkoniyatlar bilan joylashib oladilar [7].

E. Ravenshteyn o'zining ayollar migratsiyasi bo'yicha ilmiy tadqiqotini 1881 – yilda amalga oshiradi. Uning asosiy xulosalaridan biri shundan iboratki, ayollar qisqa masofalarga (o'z qirolligidagi okruglar o'rtaida), keyin esa o'z qirolliklari chegaralarida erkaklar bilan bir qatorda migrantlarga aylanishgan.

E. Ravenshteyn o'z tadqiqotlarida migratsiya harakati sabablari, yo'nalishlari va ijtimoiy oqibatlarini ham tahlil qilgan [6].

Amerikalik tadqiqotchilar xalqaro migratsiya professori K.Donato va D.Gabaccia tadqiqotlari bo'yichamigratsiyada feminizatsiya masalasi yaqinda sodir bo'lgan rivojlanish emas. Gender muvozanatiga nisbatan eng katta o'zgarishlar 1960 yilgacha sodir bo'lgan. Ayollar va qizlarning global migratsiyasi juda uzoq tarixga ega. Bu olimlarning birgalikda 2015 yilda "Gender and International Migration: from Slavery to Present" deb nomlangan ilk kitobini Rassel Seyj fondi nashridan chiqardi. Aynan mana shu kitobda ayollar migratsiyasi Yevropa davlatlarining Afrika qit'asidagi qulchilik siyosati davrida boshlanganligi qayd etilgan [8]. Avvaliga Afrikaning erkak aholisi keyinchalik ishchi kuchiga

bo'lgan talab yuqorilagani sabab ayollar va bolalar ham majburan Amerikaga va Yevropa davlatlariga ko'chirilganligi tahliliy ma'lumotlar asosida keltirilgan. Keyingi davrlarda ayollar erkak migrantning oilasi sifatida ko'chib borishdi.

Mualliflarning fikricha, ayollarning ish va daromad izlab migratsiya qilishi XX asrdan boshlangan [8]. Rossiyalik tadqiqotchilardan migratsiya jarayonlari bo'yicha tadqiqot olib borayotgan olimlardan biri antropolog, tarixchi Sergey Abashin hisoblanadi. Sergey Abashin Markaziy Osiyoda migratsiya masalalari, millatchilik, etnik o'ziga xoslik masalalari bo'yicha tadqiqot olib boradi. Uning asosiy ishlari so'nggi o'n yilliklarda O'zbekistondan Rossiyaga mehnat migratsiyasiga bag'ishlangan. Abashin o'z tadqiqotlariga asoslanib, bu ikki davlat o'rtaisdagi migratsiya ancha oldin boshlangani, muhojirlar salmog'ining ortib borishi, ularning tarkibi, migrantlarning Rossiyaga borishga undovchi asosiy sabablari xaxida xulosa beradi.

N. G. Abdurazakova 2008-yilda Rossiyada Qozon davlat moliya-iqtisodiyot institutida "Globallashuv jarayonida ayollar mehnat migratsiyasi" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Bu nomzodlik ishida ayollarning mehnat migratsiyasiga jalb etilishining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini ham shaxs ham jamiyat miqiyosida ko'rib chiqilganini ko'rishimiz mumkin.

N.G. Abdurazakova tadqiqotlarida Markaziy Osiyodan borgan migrant ayollar, ularning ko'proq qaysi sohalarda faoliyat yuritishlari, muhojirlikda yuzaga keladigan muammolar tahlil qilingan. Bu tadqiqot ishida ayol migrantlarning xulq-atvori, migratsiya usullari va vositalari, ayol migrantlarning yangi yashash joylariga moslashish ko'nikmalar haqida bir qator qarashlar mavjud.

Migratsiya jarayonlari rivojlanishida ayollar ishtiroki va ahamiyatini o'rgangan mualliflardan ya'na biri M.E. Barsukova hisoblanadi. Uning ilmiy maqolalari sotsiologiya fanlari nuqta'i nazaridan yozilgan. Uning «Женщины и миграция: причины, проблемы и последствия» nomli ilmiy maqolasida xalqaro munosabatlarni shakkantirishda ayollarning ahamiyatiga alohida to'xtalib o'tilgan. Bundan tashqari ayollarning migratsiya jarayonlarida duch kelishi mumkin bo'lgan muammolar ham alohida tahlil qilingan. Barsukova tadqiqotlarining e'tiborli jihat shundaki, Rossiya Federatsiyasida migrant ayollarning fuqarolik olish uchun soxta nikohlar tuzish masalalari ko'rib chiqiladi.

Barsukova tadqiqotlarida bugungi migratsiya jarayonlarida Rossiya Federatsiyasi fuqarolari bilan chet elliklar o'rtaida nikoh tuzish holatlari ko'payib borayotganligi keltiriladi. Bu nikohlar ko'payishining sababi, migratsiya xizmati tomonidan ro'yxatga olish va nazorat qilishning barcha bosqichlaridan ko'ra, Rossiya fuqarosi bilan turmush qurish orqali fuqarolikni olish va bu bilan birga davlat huquqlari, ijtimoiy xizmatlar va ishga joylashishda yordam berish ancha osonlashadi.

Ayollar migratsiyasi muammosini ilmiy asoslangan holtda o'rganish mahalliy tadqiqotlarda ham kuzatiladi. O'zbekiston Respublikasida mavzuning ijtimoiy-sotsiologik, falsafiy, tarixiy va iqtisodiy jihatlarini yoritib berishda Q.X.Abduraxmonov, L.P.Maksakova, B.Umrzoqov, M.Rahimov, F.Ya. Parmanov, K. Kalanov, Z.A. Tolametova, D.A. Djunaydullayev, R.H. Murtazayeva, G.B. Azamatovalar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Davlatimizda faoliyat olib borayotgan olimlardan R.H. Murtazayeva eng ko'p ayollar migratsiyasi munosabatlariga e'tibor qaratgan. U o'zining "O'zbekiston ayollarining tashqi mehnat migratsiyasidagi ishtiroki" nomli ilmiy maqolasida shunday xulosaga keladi. Ijtimoiy faol ayollar tashqi

migratsiyada ishtirok etadilar va shu bilan birga oilada gender rollarini taqsimlash bo'yicha an'anaviy qarashlarga amal qiladi [9].

O'zbekistonda migratsiya masalalari bo'yicha tadqiqot olib borgan olimlardan yana biri K.Kalanov hisoblanadi. Uning tadqiqotlari O'zbekistondagi ichki migratsiya sabablari, turlari va tashqi migratsiya muammolariga bag'ishlangan. K.Kalanov maqolalarida ichki migratsiyaning asosiy sababi mahalliy aholi tili bilan aytganda "tirikchilik" ya'ni, migrantning o'zi va uning qarindoshlarining mavjudligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan moddiy resurslarni olish zarurati bilan bog'liq.

Shuningdek, ichki migratsiyada ishtirok etuvchilarning salmoqli qismi mardikorlar ya'ni, erkak ishchi kuchi ekanligi ta'kidlanadi. Hozirgi vaqtida bu atamani mamlakat hududida ish izlab migratsiya qilayotgan ayollariga nisbatan ham qo'llanishi haqida to'xtaladi. K.Kalanov fikricha, tashqi migratsiya jarayonlarining asosiy muammolaridan biri sifatida murakkab ijtimoiy va ijtimoiy-madaniy jarayon ya'ni, chet el madaniy muhiti ta'sirining ortishi hisoblanadi [10].

Ayollar migratsiyasi ta'sirida yuzaga keluvchi xatarlar va ularning oila mustahkamligiga ta'siri migratsiyadagi ayollar muammolarini oldini olishning muhim yo'naliishlariga bag'ishlangan tadqiqotlarni D. A. Madjidova ham olib borgan. "Oilalar mustahkamligini ta'minlashda migratsiya ta'sirida yuzaga keluvchi xatarlarni oldini olishning muhim yo'naliishlarini nomli ilmiy maqolasida o'zini - o'zi boshqarish organlari faoliyatlari va vazifalariga to'xtalgan. Bu maqolada mullif ota-onaning daromad izlab xorijga ketishi, farzandlarning nazoratsiz qolishi, xorij davlatlaridagi urf-odat va madaniyatlarning oilalar, mahallalarga kirib kelishi, farzandlar tarbiyasiga singib borishi kabi muammolar haqida tadqiqot ma'lumotlariga tayanib, tahliliy xulosalar berib o'tgan.

Iqtisod fanlari nomzodi D.M.Mirzaxalilovanning "Tashqi migratsiyaning ijyimojii jihatlarga ta'siri" nomli maqolasida globallashuv davrida aholi migratsiyasi, mehnat migratsiyasi masalalari, ayollar va erkaklarni vaqtinchalik migratsiyaga undaydigan sabablar, shuningdek, tashqi migratsiyaning ijobiy va salbiy oqibatlari muhokama qilinadi. Migrantlarning ishlab topgan daromadlari ba'zi ehtiyojmand oilalardagi asosiy daromad ekanligi, oilalardagi asosiy tadbirlar shu mablag'lar hisobidan amalga oshirilayotgani ta'kidlanadi [11].

D.A.Djunaydullayev tadqiqotlarda migratsiya turlari va uning hududiy jihatlarini tadqiq etilgan. O'z tadqiqotida aholi migratsiyasi, migratsiyaning mintaqalararo yo'naliishlar, ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari iqtisodiy aspektida ohib beriladi. Shuningdek, ushbu tadqiqotda O'zbekiston hududidagi migratsiyon jarayonlar, "mardikor bozorlari" deb atalgan norasmiy ishchi kuchi bozorlari va ularda ayollar ishtiroki tahlil qilinadi. Unga ko'ra bugungi kunda ayollar mehnat migrantlarining sezilarli qismini tashkil etmoqda va ular soni so'nggi yillarda ortib bormoqda. Tadqiqotchi mavzuni

o'rganish va ohib berish maqsadida turli so'rovnomalari, anketa savollari, migrantlarning oila a'zolari bilan intervyular o'tkazgan. Muallif asosan uchta yirik tadqiqot olib borgan. Shulardan e'tiborli jihat ayol mehnat migrantlarning kelib chiqish mamlakatlari va ular borishni mo'ljalangan mintaqalardagi holatni baholash, ayollar mehnat migratsiyasining ijtimoiy va iqtisodiy omillarini kuzatish, ayollar migratsiyasi sabablari, imkoniyatlari, ugya qaytgandan keyingi muammolarga asosiy e'tibor qaratilgan. Ayollar chet elga ishslash uchun chiqishlarini quydigicha izohlashgan: daromad manbaining yo'qolishi (nikohning bekor qilinishi, boquvchisini yo'qotganlik, ishsizlik) sababli ketishga majbur bo'lishadi [12].

G.B.Azamatova "O'zbekiston xotin-qizlarining mehnat migratsiyasi tarixi (1991-2021-yy.)" mavzusida tadqiqot olib borgan. Bu tadqiqot ishining ikkinchi bobida O'zbekistondagi migratsiya holati va muammolari tahlil etilgan. Shu jumladan O'zbekiston xotin-qizlarining mehnat migratsiyasidagi ishtiroki, uning ortidan keladigan muammolar va ularning yechimiga oid davlat siyosatiga alohida to'xtalib o'tilgan. Ushbu tadqiqot ishining uchinchi bobida asosan migratsiya natijasida odam savdosi qurbaniga aylanib qolgan ayollar, ularning ish qidirib qishloqdan shaharga va boshqa davlatlarga noqonuniy borayotgan ayollarning harakatlari jamiyatga xam, oilasiga xam putur yetkazayotgan holatlar tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ayollar migratsiyasining o'ziga xos ijobiy va salbiy tomonlari, muammo va qiyinchiliklar bilan bog'liq turli iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy holatlar, ayollar migratsiyasining nikoh va er-xotin munosabatlarga ta'siri aniqlangan [13].

Xulosa va takliflar. Bugungi kunda migratsiya jarayonlarida ayollar butun jahon miqiyosida ortib bormoqda desak mubolag'a bo'lmaydi. Jahon iqtisodiyoti rivojlanib, xalqaro integratsiya aloqalari kuchaygani sari ayollar mehnat migratsiyasi ham kuchaymoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (2006) hisob-kitoblari ko'ra ayollar 2005 yilda dunyo muhojirlarining yarmini tashkil qilgan, ya'ni taxminan 95 million ayol. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma'lumotlari shumi ko'rsatadiki, dunyodagi muhojirlar zaxirasida ayollar ulushi barqaror ravishda o'sib bormoqda [4].

Xulosa qilib aytganda, xorijiy va mahalliy tadqiqotlarda bugungi kunda migratsiya masalalari asosiy e'tiborga molik mavzu hisoblanadi. Ayniqsa migratsiyaning feminizatsiyalashuvni ko'p tadqiqotlarning asosiy mavzusi hisoblanadi. O'zbekistonda xalqaro migratsiyaning, mehnat migratsiyasining bir qator muhim jihatlariga oid tadqiqotlar mavjudligiga qaramasdan, ayollar migratsiyasini etnologiya nuqtai-nazaridan tahlil qiluvchi ishlar juda kam. Ushbu masalani o'rganishda muammoga antropologik tadqiqotlar doirasida yondashish ilmiy-amalii xulosalar chqarishda ahamiyatli kattadir.

ADABIYOTLAR

- Murtazayeva.R.H.O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik.-Toshkent., "MUMTOZ SO'Z"2019. b.284
- Key global migration figures,2019-2022. <https://demografiya.uz/>
- Mirziyoyev. Sh.M.ning 26.02.2021 yil Xotin-qizlarga har tomonlama ko'maklashish bo'yicha vazifalarga bag'ishlangan videoselektrdag'i nutqidan. 11 aprel.2023 <https://gazeta.uz> <https://president.uz/oz/lists/view/4186>
- Morrison, A.R, Schiff M, M. "The international migration of women"New York.2007
- Тюрюканова Е. Глобализация международной миграции роль женщин / Е. Тюрюканова // Тендер и экономика мировой опыта и экспертиза российской практики/Отв. ред исост к э. н. Е.Б Мезенцева -М,2002 -С 77
- Абдуразакова Н. Г. Женская трудовая миграция в контексте глобализации : дис. канд. социол. наук. Казань, 2008. 219 с
- Пармонов Ф.Я. Халқаро миграцион жараёнлар// Жамият ва бошқарув. Тошкент, 2009. 4-сон. Б.33
- Donato. K., Gabaccia. D. // "Gender and International Migration: from Slavery to Present"Rassel Seyj.2015

9. Murtazayeva.R.H. //O'zbekiston ayollarining tashqi mehnat migratsiyasidagi ishtiroki. O'tmisiga nazar. 2021.4/№12
10. Kalanov.K. O'zbekistonda migratsiya jarayonlarining xususiyatlari. Fuqarolik jamiyati va XXI asrda ijtimoiy taraqqiyot. Olmaota 2008 440-b.
11. Мирзахалилова.Д.М. Влияние внешней миграции на социальные аспекты.Молодой учёный.2020
12. Джунайдуллаев Д. А. Ўзбекистон минтақаларида аҳоли миграцияси ва уни тартибга солишни такомиллаштириш. Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган ДИССЕРТАЦИЯ. Тошкент-2012.
13. Azamatova G.B. O'zbekiston xotin-qizlarining mehnat migratsiyasi tarixi (1991-2021-yy.) Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent-2024.
14. <https://demografiya.uz/>
15. <https://gazeta.uz>
16. <https://president.uz>



UDK:631.6:950(575)

Abduxoliq MINGNOROV,
Toshkent davlat pedagogika universiteti professori v.b., tarix fanlari doktori
E-mail: mingnorov62@mail.ru

PhD E. Radjapov taqrizi asosida

O'ZBEKİSTONDA O'TKAZİLGAN YER-SUV ISЛОHOTİNING DAVRIY MATBUOTDA YORİTİLİŞİ

Annotatsiya

Bolsheviklар hokimiyat teپasiga kelgach, milliy respublikalar, xususan O'zbekistonda ham hukmronligini yanada mustahkamlash maqsadida turli xil islohatlarni amalgal oshira boshladilar. O'zbekistonda o'tkazilgan yer-suv islohati shular jumlasidan hisoblanadi.Ushbu islohat mahalliy xalq uchun bo'lmay balki, bosqinchilik siyosatini olib borayotgan bolsheviklar manfaati uchun hizmat qilar edi.Bu jarayonlar, manbalardan bir hisoblangan davriy matbuot materiallari orqali ochib berildi.

Kalit so'zlar: Harbiy kommunizm, yangi iqtisodiy siyosatning, qurultoy, yer fondi, quloqlashtirish, chorikor.

ПЕРИОДИЧНОСТЬ ЗЕМЕЛЬНО-ВОДНОЙ РЕФОРМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ ОСВЕЩЕНИЕ В ПРЕССЕ

Аннотация

Когда к власти пришли большевики, они стали проводить различные реформы, чтобы еще больше укрепить господство национальных республик, особенно в Узбекистане. Одной из них была земельно-водная реформа в Узбекистане, этого реформа не обращалась к народу, обращалась только к большевику, то есть больше интересов был для большевиков. Через периодических изданий раскрывается этого реформа.

Ключевые слова: Военный коммунизм, новая экономическая политика, съезд, земельный фонд, оглушение, хорикор.

COVERAGE OF LAND-WATER REFORM IN UZBEKISTAN IN THE PERIODIC PRESS

Annotation

When the Bolsheviks came to power, they began to carry out various reforms in order to further strengthen the dominance of the national republics, especially in Uzbekistan. The land-water reform in Uzbekistan is one of them. This reform was not for the benefit of the local people, but for the benefit of the Bolsheviks, who were pursuing a policy of aggression. These processes were disclosed through the periodic press which was considered one of the sources.

Key words: Military communism, new economic policy, congress, land fund, deafening, chorikor.

Kirish. Sovet hokimiyati butun mamlakatda ochlik girdobiga uchragan qizil armiya va ishchilar sinfini oziq-ovqat bilan ta'minlash harakatini "harbiy kommunizm" siyosati deb nomladi. "Harbiy kommunizm" siyosati ayni vaqtida inqilobni va sovet davlatini harbiy yo'l bilan himoya qilish va sotsializm qurish usuli sifatida bolsheviklar tomonidan o'rtaqa tashlangan siyosat edi[1]. Yangi iqtisodiy siyosatning natijasida bolsheviklar Turkistonda ham yer-suv islohotini amalgal oshiradi. Bu harakatlar davriy matbuotda keng yoritib borilgan edi.

1925 yil noyabr-dekabr oylarida "O'zbekiston kommunistlar firqasining ikkinchi qurultoyi [2]" bo'lib o'tadi. Bu davriy matbuot sahifalarida yetarli tarzda yoritilib borildi. Qurultoya "yer-suv islohoti to'g'risida" dekret qabul qilindi. O'zbekistonda yer-suv islohotini ikki bosqichda amalgal oshirish rejalashtirildi. Birinchi bosqichda Samarqand, Toshkent va Farg'onai viloyatlarda amalgal oshirish nazarda

tutildi. Bu islohot joylardagi tayyorgarlik darajasiga qarab uch bosqichda amalgal oshiriladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Turkistonda Bolsheviklarning agrar siyosati yer-suv munosabatlarda xususiy mulkchilikni tugatib, kollektiv xo'jaliklarni tashkil qilishga qaratilgan harakat edi. Shuning uchun bolsheviklar oktyabr to'ntarishining dastlabki kunlaridan boshlab bu siyosatni amalgal oshira bordilar. Yer-suv islohotini amalgal oshirish uchun yer tuzish komissiyalari tashkil etiladi. Yer-suv islohoti orqali tortib olingan yerlar bolsheviklar davlatining "Yer fondi"ga o'tkazila boshladi. Bu siyosatdan maqsad communistlar boylarni, mulkdorlar sinfini tugatish, ortiqcha yer deb hisoblagan barcha yerlarni davlat mulkiga aylantirish edi. "1890 yilda Buxoro va Xorazmdan boshqa joylarda 103 ming 695 desyatina, 1900 yilda 234 ming 277 desyatina yerga Amerika paxtasi ekilgan bo'lsa, 1910 yilda 332 ming desyatina, 1915 yilda 533 ming 771 desyatina yerga paxta ekildi.

1917 yilda	339 ming 401 desyatina
1918 yilda	80 ming desyatina
1919 yilda	70 ming desyatina
1920 yilda	60 ming desyatina
1921 yilda	58 ming desyatina
1922 yilda	51 ming 428 desyatina

1922 yildan keyin paxta ekish asta-sekin o'sa boshladı. 1923 yilda 147 ming desyatina, 1924 yilda esa 303 ming desyatina yerga paxta ekildi” [3]. Yangi iqtisodiy siyosatga o'tilishi va matlubot kooperatsiyasining xo'jalik hisobiga o'tkazilishi munosabati bilan 1924 yildan boshlab kooperativlар va ularning a'zolari asta-sekin ko'paya boshladı. “Paxta Qo'mitası tomonidan qishloqlarda 500 ta kooperativ ochiladi. Paxtachi dehqonlarga beriladigan qarzlar shu kooperativlар orqali tarqatilib, kooperativlар dehqonlar uchun kerak bo'lgan narsalarni ta'min qilish chorasi ko'radi. Biroq, dehqonlar paxta Qo'mitasiga beriladigan miqdordan oshgan paxtalarni ham paxta Qo'mitasiga berishi shart qilindi” [4], – deb belgilab qo'yildi.

Tahlil va natijalar. Yer-suv islohoti 1920 yil boshlarida boshlangan bo'lsada, keyinchalik bu jarayon yanada avj ola boshladı. Davriy matbuotda juda ko'plab “yer-suv islohoti” [5], ga oid materiallar bor. “Bu masala birinchi bor 1918 yil sho'rolarning oltinchi qurultoyida ko'tarilgan edi. Ammo bu harakat ilgari siljimagan” [6], edi.

1925 – 1929 yillardagi yer-suv islohoti ommaviy jamoalaşhtirish (kollektivlashtirish) jarayonlari o'z navbatida respublikamizda ham “qulqlashtirish” siyosatini ma'lum darajada boshlab bergan holat ekanligi bilan belgilanadi. Yer islohoti o'zining butun mazmun mohiyati bilan kommunistlarning badavlat xo'jaliklarni cheklashga va

qishloqda sinfiy kurashni avj oldirib, respublikada o'z movgelarini yanada mustahkamlab olishga qaratilgan harakatlardan biri edi. Kommunistik partiyaning ushu islohotlarni o'tkazishdan maqsadi kambag'al dehqonlarni yer bilan ta'minlab, ularning iqtisodiy ahvolini yaxshilash bo'lmay, balki shu jarayon orqali qishloqda ham sotsialistik jamaa xo'jaligini shakllantirishdan iborat edi. Kommunistlار dehqonlarni yerga, mehnat asboblariga, ish hayvonlariga, qolaversa, mablag' masalalarini hal qilish uchun kerak bo'ladigan kreditiga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish orqali aholini sotsialistik jamaa tizimiga bog'lab qo'ya boshladilar.

Yer islohoti to'g'risida “Qizil O'zbekiston” gazetasi shunday yozadi: “Yer islohotining amaliy ishlari 6 dekabrdan boshlandi. 16 yanvargacha to'plangan ma'lumot bo'yicha yer islohoti o'tkazilayotgan uch viloyatda 423 ta katta boylar ro'zg'ori tugatildi. Ulardan 140 726 tanob yer olingan. Bu ro'zg'orlardan 1 466 ta bosh yirik mol, 2 408 ta uy asboblari olingan. Farg'ona viloyatida 365 ta katta savdogar ro'zg'orlari tugatilgan. Ulardan 12 209 tanob yer olingan. Farg'ona viloyatida 305 ta ro'zg'ordan 21 322 tanob yer, 118 ta mol olingan. Samarqand viloyatida 171 ta ro'zg'ordan 10 322 tanob yer, 218 bosh mol olingan. Toshkent viloyatida yanvarning yarmigacha 120 ta katta boylar ro'zg'ori tugatilib, ulardan quyidagi narsalar olinadi:

Yer islohoti munosabati bilan tortib olingan mol-mulk hisobi	Yangi tuzilgan chorikor ro'zg'orlariiga tortib olin gan mol-mulkni tarqatilgan mol-mulk hisobi	Yer islohoti kompa niyasi orqali o'zlashtirib olinan mol-mulk hisobi.
8 282 desyatina yer	2 280 desyatina yer	6002 desyatina yer
334 ta ot	86 ta ot	248 ta ot
651 ta ho'kiz	193 ta ho'kiz	458 ta ho'kiz
6 ta tuyu	Tarqatilmadi	6 ta tuyu
24 ta eshak va xachir	Tarqatilmadi	24 ta eshak va xachir
128 ta arava	31 ta arava	97 ta arava
39 ta mujik arava	8 ta mujik arava	31 ta mujik arava
96 ta rus omochi	16 ta rus omoch	80 ta rus omoch
308 ta omoch	109 ta omoch	199 ta omoch
158 ta mola	30 ta mola	128 ta mola
14 ta ekish mashinasi	Tarqatilmadi	14 ta ekish mashinasi
55 ta shamol mashinasi	3 ta shamol mashina	52 shamol mashina
25 ta mashina o'roq	8 ta mashina o'roq	17 ta mashina o'roq
8 ta yanchiydigan mashina	1 ta yanchiydigan mashina	7 ta yanchiydigan mashina

“Jizzax tumanida 15 yanvargacha 6 ta katta boylarning ro'zg'orlari tugatilib, ulardan 306 desyatina suvlik yer, 70 desyatina suvsiz yer, 12 ta ot, 30 ta ho'kiz, 1 ta eshak, 15 ta omoch, 2 ta mola, 1 ta shamol mashina, 1 ta mashina o'roq, 2 ta rus omochi, 6 ta ketmon, 8 ta o'roq, 3 ta egar, 2 ta arava olingan. Yana o'zlar ishlamaydigan 17 ta ro'zg'ordan (ko'pi 3-darajali savdogarlar) 137 desyatina suvlik yer, 16 desyatina suvsiz yer, 7 ta ot, 14 ta ho'kiz 2 ta eshak majburiy sottirib olindi. Normadan ortiq yerlari bo'lgan 2 ta ro'zg'ordan 48 desyatina yer olingan. Komissiya ish boshlaganidan biri 84 ta ro'zg'orga 415 desyatina suvlik yer, 16 desyatina suvsiz yer, 2 ta ot, 20 ta ho'kiz 7 ta omoch, 1 ta arava berilgan” [7].

Agar keltirilgan manbaga e'tibor qaratadigan bo'lsak, kambag'al dehqonlarga tarqatilgan narsadan ko'ra bolsheviklar o'zlashtirib olinanliklarini ko'rish mumkin. Masalan, 19 ta ot olib qo'yilgan bo'lsada, kambag'allarga 2 nafarini berib 17 nafarini o'zlashtirib olinlar. 44 ta ho'kiz olingan bo'lsada 20 nafarini tarqatib, 24 nafarini olib qolganlar. Bunday misollarni yana davom ettirish mumkin.

“Qizil O'zbekiston” gazetasining 1926 yil 29 yanvar sonida yer islohotiga oid quyidagicha ma'lumot berilgan: “Farg'ona yer islohoti viloyat komissiyasining o'n kunlik (7yanvardan 16yanvargacha)ishida viloyat yer islohoti komissiyasining a'zolari 10 kunda 20ta rayonni tekshirib 17

yanvargacha butun viloyatda 684 ta ot, 6 ta tuyu, 49 ta arava, 14 ta ot-arava asboblari majburiy sottirib olingan. Butun Farg'ona viloyatida 1926 yil 14 yanvargacha 960 ta savdogarlar ro'zg'oridan 29,404 tanob yer hamda 314 ta katta boylar ro'zg'oridan 9 138 tanob yer, 478 ta ot, 889 ta ho'kiz, 8 ta eshak, 906 ta ketmon, 818 ta omoch, 681 ta o'roq, 34 ta tesha, 99 ta mola, 68 ta ot-arava asbobi, 339 ta arava, 10 ta temir pashxaya, 59 ta xodi, 124 ta egar, 3 ta shamol mashinasi, 8 ta ekish mashinasi musodara qilindi.

Endi esa tashkil qilingan xo'jaliklarga berilgan asbob-anjomlar xususidagi ma'lumotlarga e'tibor qaratamiz:

“9,977 ta chorikor ro'zg'orlari o'rnashtirilib, ularga 82,816 yarim tanob yer, 140 ta ot, 249 ta ho'kiz, 8 ta eshak, 267 ta ketmon, 175 ta omoch, 119 ta o'roq, 34 ta tesha, 68 ta ot-arava asbobi, 113 ta arava, 28 ta mola, 10 ta pashxaya, 26 ta xodi, 107 ta egar, 3 ta shamol mashinasi, 8 ta ekish mashinasi berilgan” [8].

Agar yuqorida keltirilgan ma'lumotlar e'tibor bilan tahlil qilinadigan bo'lsa, yer islohoti kompaniyasi ostida bolsheviklar hukumatining O'zbekistonda o'tkazgan talonchilik, bosqinchilik siyosati yanada aniqroq namoyon bo'ladi. Bolsheviklarning o'z manfaatlari uchun o'zlashtirib olinan mol mulk quyidagi ko'rinishdan iborat:

Yer islohoti orqali tortib olingan mol-mulk hisobi	Yangi tuzilgan chorikorlar ro'zg'origa tarqatilgan mol-mulk hisobi	Bolsheviklar o'zlash tirib olinan mol-mulk hisobi
--	--	---

165,927 tanob yer	82,816,5 tanob yer	83,111,5 tanob yer
478 ta ot	140 ta ot	338 ta ot
889 ta hukiz	249 ta hukiz	640 ta ho'kiz
8 ta eshak	8 ta eshak	0
906 ta ketmon	267 ta ketmon	639 ta ketmon
818 ta omoch	175 ta omoch	643 ta omoch
681 ta o'roq	119 ta o'roq	562 ta o'roq
34 ta tasha	34 ta tasha	0
68 ta ot-arava	68 ta ot-arava anjomi	0
339 ta arava	113 ta arava	226 ta arava
99 ta mola	28 ta mola	71 ta mola
10 ta panshaxa	10 ta panshaxa	0
59 ta jodi	26 ta jodi	33 ta jodi
124 ta egar	107 ta egar	17 ta egar
3 ta shamol mashina	3 ta shamol mashina	0
3 ta ekish mashina	3 ta ekish mashina	0

Xulosa va takliflar. O'zbekistonda o'tkazilgan yer-suv islohoti sovet hokimiyatining respublikadagi xususiy xo'jaliklarni tugatishdagi asosiy qadam bo'ldi.

Bolsheviklar O'zbekistonda yer-suv islohotini o'tkazishi orqali:

-birinchidan, mahalliy boy va o'ziga to'q oilalarni tugatishda kambag'al tabaqalar harakatlardan foydalandilar;

-ikkinchidan, kommunistlar boy oilalarni o'ziga to'liq tobe qilish uchun ular bilan o'rta hol va kambag'al oilalar o'rtasida ziddiyat chiqarishga intildi;

-uchinchidan, bolsheviklar o'zlarini doimo kambag'allarning himoyachisi sifatida ko'rsatishdi;

-to'rtinchidan, kommunistlar yer islohotini turli xil me'yorlar orqali (boylar, mushtumzo'rlar, savdogarlar, oshiqcha yeri borlar, yashirib qo'yilgan yerlar, egasi ma'lum bo'limgan yerlar va x.k) o'tkazib, ularning mulkclarini tortib olganlar;

-beshinchidan, kommunistlar tortib olingan boyliklarning ma'lum qismimigina xalqqa berib, asosiy qismini o'zlashtirganliklarini manbalar tasdiqlab turibdi.

ADABIYOTLAR

1. Harbiy kommunizm" siyosati nazariyasi va amaliyoti // O'zbekiston tarixi. 1-kitob. – Toshkent, 2019. – 244 b.
2. Qizil O'zbekiston. – 1925. – №286; – №288; – №290; – №292; – №293; – №294;
3. Paxta haftasi tashviqot kompaniyasir uchun tezislар // Qizil O'zbekiston. – 1925. – № 53
4. Paxtachilik // Turkiston. – 1924. – №249.
5. Yer islohoti // Qizil O'zbekiston. – 1925. – № 242; Yer islohoti to'g'risida // Qizil O'zbekiston. – 1925. – №243,244; Yer islohoti to'g'risida A.Ikromov ma'ruzasi // Qizil O'zbekiston. – 1925. – №290; Yer islohoti va qo'shchilar // Qizil O'zbekiston. – 1925. – № 246; Yer islohoti inqilobi bir masaladir.1925. – № 290; Yer islohoti va ruhoniylar.1925. – № 292; Yer islohotining o'tkazish kompaniyasi.1925. – №293; Yer islohoti va paxtachilik 1926. – № 30(345) Farg'onada yer islohoti tamom bo'ldi.1926. – №31(346); Yer islohoti amalda bo'lsin // Turkiston. – 1924. – № 220.
6. Masalaning tarixi // Qizil O'zbekiston. – 1925. – № 290.
7. Yer asboblari bilan olindi // Qizil O'zbekiston. – 1926. – №22 (337)
8. Tuman,kent va qishloqlarimizda yer islohotining borishi// Qizil O'zbekiston. – 1926. – №25



Odiljon NIZOMIDDINOV,
Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail:nursux.111@mail.ru

NamDU dotsenti, PhD T.Sharifxo'jayevich taqrizi asosida

1920-1930 YILLARDAGI FARG'ONA VODIysi VOQEALARI: OCHARCHILIK VA IJTIMOIY-MADANIY O'ZGARISHLAR

Annotatsiya

1920-1930 yillarda Farg'ona vodiysida yuz bergan ocharchilik va ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar keng ko'lamli siyosiy va iqtisodiy holatlarning natijasi edi. Ushbu maqola ocharchilikning sabablari va oqibatlarini o'rganib, uning jamiyatga va madaniy hayotga ta'sirini tahlil qiladi. Sovet islohotlari, jumladan, kollektivlashtirish siyosati, davlatning oziq-ovqat resurslarini markazlashtirilgan boshqaruvi va bu jarayoning mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotga bo'lgan ta'siri o'rganilgan. Ocharchilikning xalq turmush tarziga ta'siri, mahalliy aholi hayoti va urf-odatlari hamda davlatning bu boradagi siyosiy qarorlari tahlil qilingan. Arxiv hujjatlari va ilmiy adabiyotlar asosida ocharchilikning Farg'ona vodiysidagi iqtisodiy inqirozni kuchaytirishi, ommaviy noroziliklar va mahalliy ijtimoiy madaniyatga ko'rsatgan ta'siri haqida xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Farg'ona vodiysi, ocharchilik, ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar, kollektivlashtirish, agrar islohotlar, oziq-ovqat monopoliyası, repressiv siyosat, iqtisodiy qashshoqlik, oziq-ovqat diktaturasi, g'alla resurslari, sinifiy payok.

СОБЫТИЯ В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ В 1920-1930х ГОДАХ: ГОЛОД И СОЦИАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ

Аннотация

В 1920–1930-е годы голод и социально-культурные изменения в Ферганской долине стали результатом масштабных политических и экономических преобразований. В данной статье изучены причины и последствия голода, а также его влияние на общественную и культурную жизнь. Рассмотрены советские реформы, в частности политика колLECTIVизации, централизация управления продовольственными ресурсами государством и их воздействие на социально-экономическую жизнь региона. Проанализировано влияние голода на образ жизни населения, местные традиции и обычаи, а также государственные политические решения в этом направлении. На основе архивных документов и научной литературы сделаны выводы о том, что голод усилил экономический кризис в Ферганской долине, вызвал массовое недовольство иоказал влияние на местную социальную культуру.

Ключевые слова: Ферганская долина, голод, социально-культурные изменения, колLECTIVизация, аграрные реформы, продовольственная монополия, репрессивная политика, экономическая бедность, продовольственная диктатура, ресурсы зерна, классовые пайки.

EVENTS IN THE FERGANA VALLEY IN THE 1920s AND 1930s: FAMINE AND SOCIAL-CULTURAL CHANGES

Annotation

In the 1920s and 1930s, the famine and socio-cultural changes in the Fergana Valley were the result of large-scale political and economic transformations. This article examines the causes and consequences of the famine and its impact on society and cultural life. The Soviet reforms, including collectivization policies, state centralization of food resources, and their effects on the socio-economic life of the region, are explored. The famine's influence on people's way of life, local customs, and the government's political decisions in this regard are thoroughly analyzed. Based on archival documents and academic literature, conclusions are drawn about how the famine exacerbated the economic crisis in the Fergana Valley, sparked widespread discontent, and influenced the local social culture.

Key words: Fergana Valley, famine, socio-cultural changes, collectivization, agrarian reforms, food monopoly, repressive policies, economic poverty, food dictatorship, grain resources, class rations, social crisis.

Kirish. 1920 – 1930 yillarda Farg'ona vodiysi nafaqat siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlarning markazi, balki ijtimoiy fojealar, jumladan, ocharchilik bilan ham yuzma-yuz kelgan hudud edi. Bu davr butun O'rta Osiyo bo'ylab boshlangan sovet islohotlari va kollektivlashtirish siyosatining natijasi sifatida tan olinadi. Ayni vaqtda, Farg'ona vodiysining agrar xususiyatlari va aholining iqtisodiy hayoti ham sezilarli darajada o'zgarib, ijtimoiy madaniy jarayonlarga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Ayniqsa, mintaqadagi ocharchilik holati o'sha davrning murakkabligini yana bir bor tasdiqlaydi. Ocharchilik

Farg'ona vodiysida 1920-yillarning oxiri va 1930-yillarning boshlarida keng tarqalgan muammo bo'lib, bu holatning kelib chiqishiga bir qancha omillar sabab bo'lgan. Kollektivlashtirish siyosati, iqlim sharoitlari va don mahsulotlarining markaziy hokimiyat tomonidan eksport qilinishi hududda oziq-ovqat tanqisligiga olib keldi. Bu ocharchilik butun O'rta Osiyo va Farg'ona vodiysi iqtisodiyoti va jamiyatida halokatli oqibatlarga sabab bo'ldi, bu esa o'z navbatida aholini qashshoqlik va ochlikka duchor qildi. Aholining aksariyati qishloq xo'jaligiga qaram bo'lganligi sababli, davlatning

majburiy choralariga qarshi chiqish harakatlari va ommaviy qochishlar sodir bo'ldi.

Biroq, mazkur davrdagi ocharchilik nafaqat iqtisodiy omillar bilan cheklanib qolmay, balki xalqning ijtimoiy va madaniy hayotiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Oziq-ovqat taqchilligi va unga qarshi davlat siyosati xalqning ma'nnaviy dunyosini, an'anaviy qadriyatlarini va urf-odatlarini o'zgartirdi. Ko'p oilalar ocharchilik sababli o'z yurtlarini tark etib, boshqa hududlarga ko'chib ketishga majbur bo'lgan, bu esa mahalliy madaniyatning parchalanishiga olib kelgan.

Usbu maqola Farg'ona vodiysida yuz bergan ocharchilikning sabablari, oqibatlari va uning xalq hayotidagi roli tarixiy, ijtimoiy va madaniy jihatlarini yoritish orqali chuquroq o'rganishga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. 1920 – 1930 yillarda Farg'ona vodiysidagi ocharchilik masalasi Sovet tarixchilarining asarlari ko'p bora tahlil qilingan. Sovet tadqiqotlarining ko'pchiligi, odatda, bu davrni siyosiy islohotlarning yutuqlari orqali tasvirlashga intiladi, biroq ocharchilik kabi murakkab ijtimoiy hodisalar ko'pincha nazardan chetda qolgan. Xorijiy mualliflar bu davrdagi ocharchilikni ko'proq tanqidiy yondashuv bilan o'rgangan. Xususan, taniqli amerikalik olim professor Adib Xolid o'zining "The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia" asarida 1920 – 1930-yillarda Farg'ona vodiysida yuz bergan madaniy va ijtimoiy o'zgarishlarga urg'u beradi. Muallif ko'proq ijtimoiy va madaniy jarayonlarni tahlil ostiga oлgan bo'lsa-da, lekin ocharchilikni ijtimoiy omillar bilan bog'lashga harakat qilgan.

Indiana universitetining Markaziy Yevroosiyo tadqiqotlari bo'yicha dotsenti Marianna Kamp o'z ilmiy ishida O'zbekistonda 1930-yillarda ocharchilik avj oлganligini qayd etib o'tadi. Lekin kolxozchilar och qolmaganligini alohida ta'kidlaydi. U tadqiqotida o'ziga to'q odamlar ochlarga ko'p yordam bergenligi haqidagi fikrlarni bergan [1]. Olima o'z tadqiqot ishlarini 1991-yildan beri olib borib O'zbekiston, Qirg'iziston, Qozog'iston va Tojikistonda ko'p marotaba sayohatda bo'lgan. U o'zbek tilini bilishi tufayli og'zaki tarixni o'rganish maqsadida intervyular olib boradi, rus tilini esa boshqa tadqiqotlar uchun qo'llaydi. Natijada ushu tadqiqot boshqalaridan ko'ra, o'ziga xos yondashuvlar va tadqiqot uslublari bilan farqlanib turadi. Xususan, uning "Ochlik va kartoshka" maqolasi va "O'zbekistonda 1933-yil ochlik va tovar yo'llarini o'zgartirish" nomli tadqiqot ishlari ham bunga misol bo'la oladi. Muallif ushu tadqiqotida og'zaki tarix, statistik tahlillar, tanqidiy va qiyosiy tahlil tadqiqot usullari yordamida ana shu 1930-yillardagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar guvohi bo'lgan odamlarning og'zaki ma'lumotlari asosida statistik va arxiv materiallarini qiyosiy va tanqidiy tahlil etgan. Tadqiqot bir qancha yirik olimlar bilan hamkorlikda Namangan, Farg'ona, Toshkent, Navoiy, Buxoro, Qashqadaryo va Xorazm viloyatlarida olib borilgan.

Mahalliy tadqiqotchilar ham Farg'ona vodiysidagi ocharchilikni turli yondashuvlar orqali o'rganganlar. Ularning asarlari tarixiy voqealarning mahalliy aholiga ta'sirini yoritishda muhim manba hisoblanadi.

1920 – 1930 yillarda Turkiston ASSRdagagi eng muhim masalalardan biri, bu - oziq-ovqat muammosi edi. Bu davrda bolsheviklar tomonidan mahalliy aholi qo'lidiagi g'alla va oziq-ovqat mahsulotlarini tortib olish uchun qat'iy chora-tadbirlar belgilana boshlandi. Amalga oshiraladigan chora-tadbirlarga rasmiy rus berish va o'z huquqlarini muhafaza qilish maqsadida Sovet hukumati tomonidan 1918 yil yanvarda Turkiston XKS huzurida Oziq-ovqat bo'limi ochildi [2].

1918-yil 9-mayda RSFSRda oziq-ovqat diktaturasi joriy qilindi [3]. Oradan ko'p vaqt o'tmasdan Turkistonda ham oziq-ovqat direktoriyasiga o'rnatildi. Lekin direktoriya faoliyatida ko'plab xatolar kuzatildi. Xususan, faqat rus aholisi oziq-ovqat bilan ta'minlandi. Hokimiyatdan chetlatilgan mahalliy musulmon aholisi nonsiz qoldirildi. Bu ocharchilik 1921-yilden so'ng avjiga chiqdi.

1921-yilda nashr qilingan "Военная мысль" jurnalining 2 sonida "Darvish" taxallusi ostida Nazir To'raqulovning "Farg'ona muammosi" ("Ферганская проблема") nomli maqolasidagi berilgan fikrlar ushu holatni tasdiqlaydi [4]. Muallif ushu maqolada Farg'ona vodiysidagi murakkab vaziyatni tahlil qilib, sovet organlarining oziq-ovqat siyosatidagi jiddiy xatolarini yoritgan. Shuningdek, u mazkur siyosatning mahalliy aholi hayotiga qanday og'ir ta'sir ko'rsatganini ilmiy asoslar bilan ko'rsatib, hududdagi iqtisodiy qiyinchiliklar va ijtimoiy muammolarni oshib bergan. Sovet rejimining note'g'ri boshqaruvi natijasida yuzaga kelgan ayanchli ahvol va bu jarayonlarning mahalliy jamiyatga uzoq muddatli salbiy ta'siri haqida fikr bildirgan.

Davriy matbuot sahifalarida ham bu holatlar haqida ko'plab maqolalar topish mumkin. Masalan, "Turkiston" gazetasi sahifalarida 1922-1923 yillarda Farg'ona viloyatidagi umumiylahvot o'g'risida muhim ma'lumotlar keltirilib, unda viloyatning aksariyat aholisi 1920-1922 yillarda yuqumli kasalliklar (tif, istma, bezgak)dan o'lib ketgan [5]. Shuni ham ta'kidlash joizki, yerli xalq o'lib turib ham hech kimga aytmaganini(har bir falokatni taqdirdan ko'rish) ham ta'kidlab o'tish lozim. Qish yaqinlashib, souvuq tushishi bilan qarovsiz bolalar ocharchilikdan o'la boshlaganligi Farg'ona xalqi uchun yana bir katta musibat edi.

U.Mansurov o'zining "Farg'ona vodiysi shaharlari tarixi(1917-1924 yillar)" nomli monografiyasida 1921-yil 26-iyulda Farg'ona viloyatida Krivoruchkin rahbarligida "Ochlarga yordam berish komissiyasi" [6] faoliyat boshlangiligi va komissiya o'z faoliyati davomida ochlarga yordam berish maqsadida spektakllar va xayriya ishlarini amalga oshirib undan tushgan pullarga oziq-ovqat sotib oлganliklari haqida to'xtalib o'tadi. Monografiyada keltirilgan ma'lumotlarni arxiv manbalari asosida to'ldiradigan bo'lsak, 1922 yil 1 yanvarda Turkistonda "Ochlik solig'i" joriy qilindi [7]. Ko'p vaqt o'tmasdan ocharchilikning eng yirik nuqtasi bo'lgan Farg'ona da ham qo'shimcha soliqlar joriy etildi. Xususan, Turkrespublikasi Xalq Komissarları Sovetining 1922 yil 9 yanvardagi 4 sonli qaroriga muvofiq Farg'ona viloyati inqilobiy qo'mitasi mahalliy transport boshqarmasiga, davlatga ochlikdan qutqarish ishlarida yordam berish maqsadida turli to'lovlariga "Ochlik solig'i" deb nomlangan bir qator qo'shimchalar joriy etildi. Masalan mahalliy transport tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun mahalliy transport bo'limlari muassasalar va shaxslarga ko'rsatilgan xizmatlar uchun hisob-fakturalarni taqdim etishda ularga 10% "Ochlik solig'i"ni hisoblash va bu pullar yig'ilgan paytda ularni Ochlikdan Qutqarish Bosh Komissiyasining jamg'armasi moliyachilariga topshirish kerakligi ta'kidlandi. Shuningdek barcha muassasalar va shaxslar mahalliy transport xizmatlaridan foydalanganda ko'rsatilgan soliqlari bahonasiz to'lashlari shartligi, barcha muassasalar, tashkilotlar, mansabdar va xususiy shaxslar bu majburiy qarorni qat'iy bajarishlari va "Ochlik solig'i"ni to'lashdan qochishga yo'il qo'ymasliklari kerak. Taftish organlari esa uning bajarilishini qat'iy kuzatib borishlari va bузilishida aybdor bo'lganlarni javobgarlikka tortishlari shart [8] deb ta'kidlandi.

Afsuski, bu soliq qishloq va shaharlardagi qashshoqlashib qolgan aholining moddiy ahvolini hisobga

olmasdan turib joriy etilgan edi. Natijada ochlik balosi xalq ommasining kulfatlarini yanada oshirdi. Farg'ona viloyat davlat arxivni 121-fondiga oid yig'ma jildlar o'rghanilganda 1924-yilda ham Farg'ona vodiysi shahar va qishloqlarida ochlikdan aziyat chekayotgan odamlar haqida ko'plab ma'lumotlarni uchratish mumkin. Shuningdek, arxivning 435-fondida saqlanayotgan bu davrga oid hujjatlar, ocharchilikning sabablarini yanada chuqurroq o'rganish, hukumatning olib borgan siyosati va aholi hayotiga ta'siri haqidagi ilmiy tahlillarni chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Bu holatning chuqurroq tahlili shuni ko'rsatadiki, ocharchilik faqat tabiiy ofatlar emas, balki siyosiy va iqtisodiy omillar majmuasi tufayli ham yuzaga kelgan. Shu sababli, bu davrni o'rganish ilmiy ahamiyatga ega va turli xil arxiv materiallari asosida yanada kengroq tadqiqotlar olib borilishi zarur.

Farg'onadagi 1933 - yildagi ocharchilik o'z davrida o'ta og'ir ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni keltirib chiqardi. Bu davr xotiralarida yerda o'sayotgan o't-maysalar hali to'liq pishmasdan yig'ib olingan va oziq-ovqat sifatida iste'mol qilinganligi qayd etilgan. Respondent Ahmadjon Mamatzulovning eslashicha, ocharchilik o'z darajasida shu qadar kuchli bo'lgani, u "massaviy o'lim" deb atalgan. Ko'plab ota-onalar og'ir iqtisodiy holat sababli o'z farzandlarini boqish imkoniyatidan mahrum bo'lgan va natijada bolalarini davlat tomonidan ochilgan "Och bolalar uylari"ga topshirishga majbur bo'lganlar. Bu holat milliy miqyosda og'ir iqtisodiy va ijtimoiy inqirozni ko'rsatadi [9].

Tadqiqot metodologiyasi. Tarixiy va ijtimoiy jihatdan olib qaralganda, ushbu ocharchilik mamlakatda o'z davringin agrar iqtisodiyoti va siyosiy o'zgarishlari ta'sirida yuzaga kelgan bo'lishi mumkin. Ota-onalarning o'z farzandlarini yetarli darajada boqolmasligi hamda bolalarni maxsus muassasalarga topshirishga majbur bo'lishi nafaqat oilalarning iqtisodiy holatining yomonlashuvi, balki o'sha davrdagi davlat siyosatining ham natijasi sifatida ko'rish mumkin.

Tahlil va natijalar. 1920 – 1930-yillarda Farg'ona vodiysida sodir bo'lgan ocharchilik va ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar mamlakatdagi siyosiy va iqtisodiy islohotlar natijasi sifatida shakllandi. O'rta Osiyodagi kollektivlashtirish jarayonlari va agrar siyosatning o'zgarishi ushbu voqealarning asosiy sabablaridan biri bo'lib, ushbu davrni iqtisodiy qashshoqlik, oziq-ovqat taqchilligi va ijtimoiy inqiroz bilan bog'lash mumkin. Tadqiqot davomida ocharchilikni keltirib chiqargan asosiy omillar, uning oqibatlari va bu holatning jamiyat hayotiga ta'siri tahlil qilindi.

Yuqorida to'xtalib o'tganimizdek mamlakatda oziq-ovqat diktaturasi joriy etilgandan so'ng, sovet hukumati va bolsheviklar tomonidan "G'alla monopoliyasi to'g'risida", va "Sinfiy non payogi to'g'risida" dekretlar ham qabul qilindi [10]. Ushbu dekretlar Sovet hokimiyatining agrar siyosatini mustahkamlash va mamlakatda oziq-ovqat taqchilligini hal qilish uchun qabul qilingan deb baholangan bo'lsa-da, aslida don va g'alla resurslarining davlat tomonidan markazlashgan boshqaruvini joriy etishga maqsad qilgan edi. Shu bois bir qancha ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlarni keltirib chiqardi. Turkiston o'inka Musulmonlar byurosi raisi T.Risqulov ham bu siyosat to'g'ri emasligi va g'allani aholidan erkin narxda sotib olinishi kerakligini aytib o'tgan edi [11]. Shuningdek, mahsulotlarni davlatga sotib berilishi majburiy qilib qo'yildi

davlat belgilagan narxlar juda past edi. Dehqonlar o'z mehnatlarining haqini ololmay, iqtisodiy jihatdan qiyin ahvolga tushib qolishdi. Bu, o'z navbatida, aholining ko'proq qashshoqlashuviga olib keldi. Bundan tashqari dekret aholini turli ijtimoiy guruhlarga ajratib, ularning sinfiy mansubligiga qarab oziq-ovqat taqsimlash tizimini yo'lga qo'ydi. Bu tizim sinflar o'rtasidagi farqlarni yanada kuchaytirdi, chunki oziq-ovqat payoklari to'g'ridan-to'g'ri insonlarning sinfiy mansubligiga bog'liq edi.

Professor Q.Rajabov o'zining "O'zbekiston tarixi(1917 - 1991 yillar)" asarining birinchi bo'limida Farg'ona viloyatidagi ocharchilikni tavsiflar ekan "1921-1923 yillarda Farg'ona vodiysida ocharchilik avjiga chiqdi. Ochlik oqibatida ko'pchilik bolalar qirilib ketdi. Qishloqlar va shahar ko'chalarini har kuni ochlikdan o'lgan o'nlab va yuzlab odamlarning murdalariga to'lib ketgan bo'lib, bu holat daxshatli manzara hosil qilgan" [12] deb yozadi. Ocharchilikdan aziyat chekkan aholi turli xil o't-o'lanlar, o'simliklarning ildizlari bilan kun kechirishga majbur bo'lgan. Buning oqibatida xalq orasida sil, vabo, ichterlama kabi kasalliklar tarqalgan va aholining ko'p qismi qirilib ketgan. Ana shunday og'ir vaziyatlarda Farg'ona viloyatida ochilgan bolalar uylaridan tashqari masjidlar oldida an'anaga ko'ra mahalliy boylar navbatma-navbat o'z hisoblaridan doshqozonlarda ovqat pishirib ochlarga tarqatganligi alohida diqqatni tortadi.

"Turkiston" gazetasining 1923 yil 10 sonida yozilishicha, 1922-yildan boshlab Farg'ona viloyati Ocharchilikka qarshi kurash komissiyasi (OQKK) tomonidan ochlikdan aziyat chekayotgan aholi uchun cheklangan miqdorda yordam ko'rsatish ishlari amalga oshirildi. Och bolalar uchun maxsus internatlari tashkil etilib, birinchi navbatda yosh bolalar ushbu internatlarga jalb qilindi. Farg'ona viloyat Sanitariya vrachi Bogomolova Qo'qon shahridagi internatlari ish faoliyati to'g'risidagi ma'rurasida 1926 yilga kelib Qo'qon shahrida 6 ta internat mayjud ekanligi haqida aytib o'tadi[13]. Biroq, sovet hukumati viloyatdagi ochlikni bartaraf etish, qishloq xo'jaligini tiklash, suv inshootlarini ta'mirlash, dehqonlarga urug'lik va ish hayvonlari bilan ta'minlash bo'yicha yetarli miqdorda mablag' ajrata olmadи. Shuning uchun, hukumat iqtisodiy muammolarni yengillashtirish maqsadida, mayda "Qarz jamiyatlarini" tashkil etish va kooperativlarni yaratish orqali yordam ko'rsatishga harakat qildi. Bundan tashqari, ota-onasiz bolalar va qarovsiz yetimlarga yordam ko'rsatish uchun "Farg'ona Hilol-Oxmar" (Farg'ona Qizil Yarim oy) jamiyatlarini tashkil etildi.

Xulosa va takliflar. Sovet hokimiyati mayjud muammolarni hal qilishda zarur bo'lgan mablag'ni asosan ichki imkoniyatlarni ishga solish orqali amalga oshirdi. Turkiston hukumati Farg'ona viloyatidagi ocharchilik va oziq-ovqat tanqisligini kamaytirish maqsadida, Markaziy hududlardan yordam kutmasdan, Samarqand va Turkmaniston hududlarini Farg'ona viloyatiga yordam ko'rsatish vazifasini yukladi. Shuningdek, Farg'ona viloyatining katta qismi o'zini ochlikdan saqlash, boshqalarni boqish yoki iste'mol uchun non ishlab chiqarish bilan birga ekishga majbur bo'ldi.

Sovet hukumatining "sa'yi-harakati" bilan Farg'ona viloyatiga ko'rsatilgan yordam asosan ichki imkoniyatlarni hisobiga amalga oshirildi. Shu sababli, tabiat boy va mehnatkash aholi bilan tanilgan Farg'ona xalqining 1917-1923 yillar davomida og'ir ahvolga duchor bo'lishi kuzatildi.

ADABIYOTLAR

- Kamp, Marianne. "Hunger and Potatoes: The 1933 Famine in Uzbekistan and Changing Foodways." Kritika, vol. 20, no. 2, spring 2019, pp. 237.

2. GaleAcademic OneFile,link.gale.com/apps/doc/A589512586/AONE?uanon~2a85cbb&sid=googleScholar&xid=934e8974. Accessed 21 Sept.2022.
3. Победа Советской власти в Средней Азии и Казахстанею- Ташкент: “Фан”, 1967. – С. 569
4. O'zbekiston MDA, 25-fond, 1-ro‘uxat, 6-ish, 273-varaq
5. Дервиш. Ферганская проблема // «Военная мысль». Книга. - № 2. — Ташкент, 1921. — С. 108 – 118
6. Туркистон. 1923 10 февраль.
7. Расулов А. Туркистон ва Волгабўйи, Уралоди халқлари ўртасидаги муносабатлар... - Б. 94.
8. Мустабид тузумнинг Ўзбекистон миллий бойликларини талаш сиёсати: тарих шоҳидлиги ва сабоқлари (1865-1990 йиллар). Маъсул мухаррир Д.Алимова. - Тошкент. Шарқ, 2000.- Б . 246.
9. ФВДА. 435-фонд. 1-рўйхат. 3-ийғма жилд. 26-27 вараклар
10. Dala yozuvlari. Farg'onə viloyati, Farg'onə shahri, Oqariq mahallasi, 2024
11. Ўзбекистон МДА. 17-фонд. 1-рўйхат. 10-ийғма жилд. 136-варак
12. Ўзбекистон МДА. 17-фонд. 1-рўйхат. 10-ийғма жилд. 136-варак
13. Ўзбекистон МДА. 17-фонд. 1-рўйхат. 947-ийғма жилд. 201-варак
14. ФВДА. 436-фонд. 1-рўйхат. 4-ийғма жилд. 35-варак



UDK: 792 (091)

Sarvinoz Omonova,
Qarshi davlat universiteti dotsenti, PhD
E-mail: omonovasarvinoz598@gmail.com

QarsMII dotsenti, PhD A.Eralov taqrizi asosida

SOVET DAVRIDA YOSHLAR O'Rtasida Sport SPARTAKIADALARNI UYUSHTIRILISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada sovet davrida yoshlar o'rtaida sport spartakiadalarini uyuştırılışını haqida so'z boradi. Muallif ilmiy ma'lumotlarga tayanib, mavjud adabiyotlar asosida sovet davrida yoshlar o'rtaida sport spartakiadalarini uyuştırılışını bo'yicha o'ziga xos jihatlarini o'rgangan va tahlil qilgan.

Kalit so'zlar: Sovet davri, yoshlar, sport, spartakiada.

ОРГАНИЗАЦИЯ СПОРТИВНЫХ ЗАНЯТИЙ СРЕДИ МОЛОДЕЖИ В СОВЕТСКИЙ ПЕРИОД

Аннотация

В данной статье говорится об организации спортивных спартакиад среди молодежи в советское время. Автор, опираясь на научные данные, на основе доступной литературы изучил и проанализировал особенности организации спортивных спартакиад среди молодежи в советское время.

Ключевые слова: советская эпоха, молодежь, спорт, Спартакиада.

ORGANIZATION OF SPORTS PARTICIPATIONS AMONG YOUTH DURING THE SOVIET PERIOD

Annotation

This article talks about the organization of sports spartakiades among young people during the Soviet era. The author, relying on scientific data, studied and analyzed the specific aspects of the organization of sports spartakiades among young people in the Soviet era on the basis of available literature.

Key words: Soviet era, youth, sport, Spartakiad.

Kirish. Ikkinci jahon urushidan keyingi yillarda O'zbekistonda ommaviy sport ishlaringin yangi shakllari qo'llanila boshlandi. Masalan, maktab spartakiadalarini va birinchiliklарini shahar, tuman, viloyat bosqichlarida ham o'tkazish keng tus oldi. VKP (b) Markaziy Qo'mitasi 1948 yil 27 dekabrda o'quvchi yoshlar o'rtaida jismoniy tarbiya ishlarni yaxshilash to'g'risida qaror qabul qildi. Mazkur qaror o'quvchi yoshlar o'rtaida sportni ommaviylashtirish, ularni sport to'garaklariga keng miqyosda jalb qilishni nazarda tutar edi.

1950 yilning dekabrida SSSR Ministrler Soveti qishloq joylarda jismoniy madaniyatning ommaviy rivojlanishiga erishish va qishloq sportchilarining mahoratini oshirish maqsadida O'zbekiston SSRda «Paxtakor» ko'ngilli sport jamiyatini tuzish haqida qaror qabul qildi[1].

1951 yilda Qashqadaryo oblastida «Paxtakor» ko'ngilli sport jamiyatini faoliyati yo'liga qo'yildi. Ushbu sport jamiyatini qisqa vaqt ichida 279 ta kolxoza fizkultura jamoasi tuzilib, ularga 18.588 nafar kishi a'zo bo'lib kirdi. Shu jumladan, 4.800 nafar kishi komsomol a'zosi va 4.100 nafar kishi xotinqizlardir. Kolxozlarda fizkultura jamoalarini tuzishda Qarshi va Shahrisabz rayon tashkilotlari jamoalarini yaxshi natijalarini qo'liga kiritdilar. Bu rayonlarda 4 ming nafardan ortiq kolxozi «Paxtakor» ko'ngilli sport jamiyatiga a'zo bo'lib kirdi. Birgina Qarshi rayonida 5 kun ichida 25 ta kolxoza fizkultura jamoasi tuzilib, ularga 1,824 nafar kishi a'zo sifatida qabul etildi. Ammo Qarshi, Koson, Qamashi, Dehqonobod va boshqa bir qator rayonlardagi tashkilot komitetlari qoniqarsiz ishladi. Qarshi rayon tashkilot komiteti o'zining faoliyati davomida

biror marta ham majlis o'tkazmadi, ishni qoniqarsiz uyuştirdi. Shuning oqibatida bu yerda bor-yo'g'i 1.000 nafarga yetar-yetmas kolxozchi, «Paxtakor» ko'ngilli sport jamiyatini a'zoligiga qabul qilingan[2].

Adabiyotlar tahlili. 1951 yil aprel oyida Qarshi va Shahrisabz shaharlaridagi o'quv yurtlari fizkultura jamoalarini o'rtaida yengil atletika va otish bo'yicha mayoldi musobaqalari bo'lib o'tdi. 100 va 1.000 metrga yugurish, balandlikka sakrash bo'yicha Shahrisabz shahridagi A.S.Pushkin nomidagi o'rta maktab fizkulturachilari birinchisi o'rinni egalladi. Otish bo'yicha birinchilikni Qarshi shahridagi Molotov nomli o'rta maktab komandasasi oldi. Qizlar o'rtaida bo'lgan musobaqalarda Qarshi shahridagi Molotov nomidagi o'rta maktab 100 metrga yugurish bo'yicha, I.V.Stalin nomidagi o'rta maktab 500 metrga yugurish bo'yicha va pedagogika bilim yurti balandlikka sakrash bo'yicha birinchisi o'ringa sazovor bo'ldi[3].

1950 yilning avgust oyida bo'lib o'tadigan VI O'zbekiston spartakiadasi oldidan o'tkazilgan musobaqalarda 150 mingdan ortik sportchi qatnashishdi. Birgina Xorazm oblasti, Qo'shko'pir rayonida o'tkazilgan ommaviy musobaqalarda 31 quyi jamoa, shu jumladan 28 kolxoza fizkultura jamoasi ishtirot etdi. Ko'pgina rayon va oblast fizkultura jamoalarini spartakiadada yaxshi natijalarga erishdi.

Xorazm oblasti, Hazorasp rayon fizkulturachilarining spartakiadasida Yangibozor qishloq sovetidagi Stalin nomli kolxozi sportchilari birinchilikni oldilar. Respublika spartakiadasiga tayyorgarlik boshlangandan buyon kolxozlarda, sanoat korxonalarini va muassasalarda yuzlarcha

fizkultura jamoalari tuzildi. Birgina Andijon oblastida 125 ta kuyi fizkultura jamoai tuzildi. Bulardan 57 tasi kolxozlarda tashkil etildi. 2000 nafar sportchi birinchi darajali GTO znachogiga norma topshirdi[4].

1950 yilning avgust oyida Toshkent shahrining barcha sport bazalarida va madaniyat istirohat bog'larida respublika VI spartakiadasi qatnashchilarining musobaqalari bo'lib o'tdi. «Spartak» stadionida yengil atletika musobaqalari o'tkazildi. Ushbu musobaqlarda SSSR sport masteri Farida Hasanova 800 metrga yugurishda birinchi o'rinni egalladi. Farida Hasanova yengil atletika bo'yicha birinchi sportlaridan hisoblanadi. 30-40-yillarda u o'rta masofaga yugurishda respublikada eng kuchli bo'lgan va u sportchilar orasida birinchilardan bo'lib Qizil Bayroq ordeni bilan taqdirlangan edi.

Shuningdek, spartakiada doirasida Markaziy ofitserlar uyida shaxmatchi qizlar musobaqasi bo'lib o'tdi. Ushbu birinchi o'rinni 10 ta ochkodan 9 tasimi egallagan Silvestr sazovor bo'ldi. Unga poytaxt shaxmat championi unvoni berildi. Ikkinci o'rinni ilgari O'zbekiston championi unvoni olgan Baklanova egallab, u Silvestrdan yarim ochko kam to'plagandi[5].

Ushbu musobaqada ishtirok etgan samarqandlik S.Fayrushina chalqancha suzishda, 200 metrga suzishda farg'onalik Ivanova g'olib chiqdi. Ivanova bu masofani 3 minut 48.8 sekundda bosib o'tdi. Yugurish sport musobaqalarida xorazmlik kolxozchi qiz R.Shamaxayeva 400 mertga 1 minut 11.8 sekundda yetib kelib birinchi o'rinni egalladi. Balandlikka sakrash bo'yicha toshkentlik A.Ritikova g'olib chiqqan bo'lsa, ikkinchi o'rinni farg'onalik K.Linina egalladi[6].

Tadqiqot metodologiyasi. 1955 yil poytaxtdagi Maksim Gorkiy nomidagi madaniyat va istirohat parkining shaxmat-shashka bazasi 15 kun davomida yoshlar bilan ayniqsa gavjum bo'lib turdi. Bu yerda o'quvchi bolalar va qizlarning respublika birinchiligi uchun shaxmat va shashka musobaqasi bo'ldi. Musobaqada Toshkent shahri va oblasti, Samarkand, Farg'ona, Andijon, Buxoro hamda boshqa oblastlarning eng kuchli shaxmat va shashkachilaridan 48 nafar yigit va qiz qatnashishdi. Shaxmatchi qizlar o'rtasida Tohira Sobirova g'olib chiqib u, 15 imkoniyatdan 13,5 yutuqqa ega bo'ldi[7].

1956 yilning may oyida Toshkentdag'i barcha sport bazalarida turli sport musobaqlari bo'lib o'tdi. «Dinamo» stadionida oliy o'quv yurtlarining sportchilarn shaxsiy va komanda birinchiligi uchun yengil atletika bo'yicha musobaqa o'tkazildi. Katta maydonda erkak va xotin-qiz hamda yoshlar basketbolchi komandalarining uchrashuvlari bo'ldi. Markaziy ofitserlar uyining erkaklar komandasasi 21:19 hisobi bilan «Lokomotiv» komandasini dog'da qoldirdi. Xotin-qizlar komandalari o'rtasidagi o'yin qizg'in davom etdi. Dinamochilar 24:22 hisobi blan «Burevestnik» komandasini ustidan g'alaba qozondi[8].

1955 yil mart oyida Toshkentda O'zbekiston sport jamiyatlarining spartakiadasi dasturidagi badiiy gimnastika bo'yicha musobaqa bo'lib o'tdi. Unda «Iskra», «Dinamo», «Nauka» jamiyatlaridan 20 nafarga yaqin sportchi qatnashdi. Ikki kunlik musobaqa yakunida birinchi razryad bo'yicha S. Izutskiver, ikkinchi razryad bo'yicha M. Ryabina («Iskra»), uchinchi razryad buyicha R. Djankayeva va L. Borovikova («Dinamo») eng yaxshi natijaga erishdilar. Komanda hisobida birinchi o'rinni «Iskra», ikkinchi o'rinni «Dinamo» komandalari oldi. Musobaqa goliblariga O'zbekiston SSR Ministrler Soveti huzuridagi Fizkultura va sport komitetining diplomlari va qimmatbaho sovg'alarini topshirildi[9].

1955 yil mart oyida Toshkentda xotin-qiz shaxmatchilarning respublika musobakasi 20 kun davom etib,

unda respublikaning xotin-qiz shaxmatchilaridan 14 nafar kishi qatnashdi, xizmat ko'sratgan sport masteri L. Rudenko (Leningrad) tanlovdan tashqari ishtirot etdi. Musobaqa yakunida L. Rudenko eng yaxshi natijaga erishdi. U, 15 imkoniyatdan 13 ochkoga ega bo'ldi. Respublikaning o'tgan yilgi championi L. Pronina L.Rudenkadan faqat yarim ochko kam olib, championlik unvonini bu yil ham saqlab qoldi. L. Kozlovich 12 ochko, Dmitruk va K. Silvestr 11 ochkadan yutdi[10].

1956 yil iyunb oyining boshlarida Toshkent shahar IX spartakiadasi bo'lib o'tdi. 400 metrga yugurish xotin-qizlar orasida 59,0 sekund natija bilan F. Hasanova marraga birinchi bo'lib keldi. Diska uloqtirish bo'yicha R. Fotyanova (Kuibishev rayoni) 33 metr 94 santimetr natija bilan shahar bo'yicha yangi rekord qo'ydi. Xotin-qizlardan V. Ballod (Markaziy rayon) 1 metr 55 santimetrik balandlikka sakradi va birinchi razryad talabini bajardi. 800 metr masofaga yugurishda xotin-qizlar komandasidan F.Hasanova va F.Kamolovlar o'rtasida kuchli sport kurashi bo'ldi. Musobaqa oxirida 2 minut 17,3 sekund natija bilan F.Hasanova yutib chiqdi[11].

Tahlil va natijalar. 1956 yil 10 iyunda Toshkent shahrida O'zbekiston IX spartakiadasi ochildi. Spartakiadaga respublikamizning barcha oblast, shahar va rayonlarida bo'lib o'tgan musobaqa g'oliblaridan 1700 nafarga yaqin sportchi qatnashdi. Ular orasida ishchi va kolxozchi, askar va san'atkorlarni, talaba va o'quvchi komsomol-yoshlarni ham uchratish mumkin. O'zbekiston IX spartakiadasida sportning 13 turi bo'yicha musobaqalar bo'ldi. Shu sababli fizkultura tashkilotlari va sport jamiyatlarida sportning voleybol, basketbol, shtanga, kurash, qilichbozlik, suzish va yugurish kabi turlari bo'yicha qizg'in tayyorgarliklar bo'lib o'tdi. O'tgan musobaqlarning yaxshi natijalari spartakiadaning muvaffaqiyat bilan yakunlanishidan dalolat beradi. Sport gimnastikasida birinchilikni egallash uchun 100 nafarga yaqin sportchi musobaqaqlashdi. Ulardan 25 nafarga yaqin fizkulturachi sport masteri dasturidagi musobaqalarga ishtirot etdi. Bundan tashqari S. Chukseyeva, R. Bolshakova, K. Sorvin, S. Tumanova kabi master va talentli yoshlar spartakiada dasturi bo'yicha bellashishdi. Spartakiada kunlari Toshkentdag'i park va stadionlar, voleybol, basketbol maydonlari, suv havzalari sport bayrami tusini oldi[12].

O'zbekiston IX spartakiadasida yengil atletika markaziy o'rinni tutadi. Erkaklar yengil atlyotikaning 23 ta turi va xotin-qizlar 13 ta turi bo'yicha qizg'in kurashdi. Bu musobaqlar «Spartak» stadionida 10 iyundan 15 iyungacha har kuni ertalab soat 9 dan kech soat 18 gacha davom etdi. «Dinamo» stadionida gimnastika va basketbol musobaqalari bo'ldi. Ikki basketbol maydonchasida birinchilik uchun 11 ta erkaklar va 11 ta xotin-qizlar komandalari kurashdi.

O'zbekiston IX spartakiadasi oldidan 5412 ta fizkultura jamoalari ishtirokida 188 ta shahar va rayonda hamda 10 ta oblastda spartakiada musobaqlari bo'lib o'tdi. Bu musobaqlarda 500 ming nafar yigit va qiz qatnashishdi. Mazkur spartakiadaga tayyorgarlik davrida yangidan 100 ta fizkultura jamoalari tashkil etildi. Fizkulturachilarning soni esa 40 ming kishiga kupaydi. O'zbekiston sportchilaridan 11 nafar sportchi sport masteri talabini bajardi, 105 nafar kishi birinchi, 780 nafar kishi ikkinchi va 3839 nafar kishi uchunchi razryadli bo'ldi. Qashqadaryo oblast spartakiadasiga 400 nafar fizkulturachi qatnashdi.

Respublikaning oblast, shahar va rayonlarida o'tkazilgan spartakiada vaktida respublika bo'yicha 9 ta rekord va oblastlar bo'yicha 96 ta rekord yangilandi. O'zbekiston IX spartakiadasi finalida 9 ta oblastdan, Qoraqalpog'iston ASSRdan va Toshkent shahridan 1700 nafar sportchi va 360

nafar sudya katnashadi. 1954 yilda bo‘lgan O‘zbekiston VIII spartakiadasiga 1515 nafar sportchi katnashgan edi. O‘sanda birinchi o‘rinni Toshkent shahri, ikkinchi o‘rinni Farg‘ona oblasti, uchinchi o‘rinni Samarqand oblasti jamoalari olgan edi[13].

Xulosalar. 1959 yil iyun oyida O‘zbekiston XI spartakiadasi bo‘lib o‘tdi etdi. 2500 nafardan ortiq kishi sportning 21 ta turi bo‘yicha respublika championi degan faxrlı

nomni olish uchun, Moskvaga SSSR xalqlari spartakiadasiga borish uchun O‘zbekiston terma komandasini tarkibiga kirish huquqi uchun kurashishdi. Dasturning hamma turlari bo‘yicha championlar belgilandi. 800 metr masofani 2 minut 16,7 sekundda yugurib o‘tgan F. Hasanova g‘oliblikni qo‘lga kiritdi. Shuningdek, spartakiadaning yugurish musobaqasida T. Bondarenko, L. Xalerina va Parpiyevalar yaxshi natijalarga erishgan[14].

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekistonda jismoniy madaniyat va sport tarixi. B.67.
2. Qashqadaryo haqiqati, 1951 yil 4 aprel.
3. Qashqadaryo haqiqati, 1951 yil 29 aprel.
4. Qizil O‘zbekiston, 1950 yil 27 iyul.
5. Qizil O‘zbekiston, 1950 yil 10 avgust.
6. Qizil O‘zbekiston, 1950 yil 9 avgust.
7. Yosh shaxmatchi va shashkachilarining respublika musobaqasi tugadi // O‘qituvchilar gazetasi, 1955 yil 15 iyul.
8. Qizil O‘zbekiston, 1956 yil 20 may.
9. Qizil O‘zbekiston, 1955 yil 24 mart.
10. Qizil O‘zbekiston, 1955 yil 24 mart.
11. Qizil O‘zbekiston, 1956 yil 7 iyul.
12. Qizil O‘zbekiston, 1956 yil 10 iyul.
13. Qizil O‘zbekiston, 1956 yil 10 iyul.
14. Qizil O‘zbekiston, 1959 yil 19 iyun.
15. E.Y.Alimovna, E.A.Jomurodovich. Difficult aspects of tourism development in Uzbekistan. / Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. ISSN (E): 2751-1731, Volume 02, May, 2022. ISSN (E): 2751-1731



UDK:221/227:71(575,1)

O'Imas RASHIDOV,
Buxoro davlat universiteti prorektori va tadqiqotchisi

O'zMU professori A. Yermetov taqrizi asosida

ROSSIYA SIYOSIY AGENTLIGINING BUXORO AMIRLIGI DAVLAT BOSHQARUVIGA TA'SIRI

Annotatsiya

Mazkur maqola Rossiya siyosiy agentligining Buxoro amirligi davlat boshqaruviga ta'siri masalalariga bag'ishlangan. Bunda siyosiy agentlikning tashkil topishi, maqsadi, vazifalari, vakolatlari hamda Buxoro amirligi davlat boshqaruvini har tomonlhma nazorat qilishi bilan bog'liq muhim jihatlar olib berilgan.

Kalit so'zlar: Rossiya siyosiy agentligi, Buxoro amirligi, davlat boshqaruvi, imperiya, mustamlakachilik, Turkistondagi general-gubernatorligi, rus manzilgohlari, elchixona, islohot, maxfiy shartnoma, bojxona.

ВЛИЯНИЕ РОССИЙСКОГО ПОЛИТИЧЕСКОГО АГЕНТСТВА НА ГОСУДАРСТВЕННОЕ УПРАВЛЕНИЕ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА

Аннотация

Данная статья посвящена влиянию российского политического агентства на государственное управление Бухарского эмирата. Раскрываются важные аспекты, связанные с организацией политического органа, его целью, задачами, полномочиями и комплексным контролем государственного управления Бухарского эмирата.

Ключевые слова: российское политическое агентство, Бухарский эмирят, правительство, империя, колониализм, генерал-губернаторство в Туркестане, русские резиденции, посольство, реформы, тайное соглашение, таможня.

THE INFLUENCE OF THE RUSSIAN POLITICAL AGENCY ON THE GOVERNMENT OF BUKHARA EMIRATE

Annotation

This article is devoted to the influence of the Russian political agency on the state administration of the Bukhara Emirate. It reveals important aspects related to the organization of the political agency, its purpose, tasks, powers and comprehensive control of the state administration of the Bukhara Emirate.

Keywords: Russian political agency, Bukhara emirate, government, empire, colonialism, governor general in Turkestan, Russian residences, embassy, reforms, secret agreement, customs.

Kirish. Rossiya imperiyasi Buxoro amirligini yarim vassalga aylantirib, uning hududini katta qismini ajratib olgan bo'lsada bu bilan qanoatlanmadı. Endi amirlikni har tomonlhma nazorat qilishi istab uning davlat boshqaruvini maxsus siyosiy idora orqali boshqarishni ixtiyor qildi. SHu maqsadda imperator Aleksandr III (1845-1894; hukmronlik davri: 1881-1894) tomonidan 1885 yil 12 noyabrda chiqarilgan farmon bilan 1886 yil 1 yanvarda Rossiya imperatorligini Buxorodagi siyosiy agentligi tashkil qilindi hamda uning qarorgohi Yangi Buxoro (hozirgi Kogon) shahrida joylashtirildi[1]. Agentlikni siyosiy agent boshqarib, u Rossiya tashqi ishlar ministrligi tomonidan tayinlangan. Buxorodagi siyosiy agentlik Turkistondagi general-gubernatorlik hamda Rossiya harbiy ishlar ministrligi va Rossiya tashqi ishlar ministrligiga bo'yungan [2]. Xullas, siyosiy agentlik idorasi Buxoroda Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosatini yuritgan idora hisoblangan.

Imperator Nikolay II (1868-1918; hukmronlik davri: 1894-1917) tomonidan 1903 yil 5 mayda chiqarilgan farmonga ko'ra siyosiy agentlikning huquq va burchlari yana ham kengaytiriladi. Siyosiy agentlikka barcha siyosiy va iqtisodiy masalalar bo'yicha Buxoro hukumati bilan aloqa olib borish, ayni vaqtda amir va uning vazirlarini Rossiya munosabati yuzasidan ularni kuzatib borish va nazorat qilish topshirildi [3]. Shuningdek, siyosiy agentlik zimmasiga Buxoroning Pomirdagi bekliklari: Shug'non, Rushon va Vaxon ustidan

nazorat; Afg'oniston chegarasini kuzatib borish; amirlikning ruslar yashaydigan manzilgohlarida chiqayotgan gazetalar va teatrda qo'yiladigan pesalarni senzuradan o'tkazish; ekin dalalaridagi chigirkani yo'qotish uchun Buxoro hukumatidan siyosiy vakolatxonaga kelib tushuvchi pul mablag'lari hisobotini olib borish; Buxoro amirligidagi yashovchi xristianlar (nasroniyalar)ga homiylik qilish; Zarafshon daryosi suvini taqsimlash; shaharlarni obodonlashtirish; kasalxonalar va pochta-telegraf binolari hamda boshqa muassasalarini barpo etish masalalari ham yuklangan [4].

Siyosiy agentlikning asosiy vazifasi Buxoro amirini nazorat qilish bo'lganligi uchun Amir Abdulahadxon poytaxtni tashlab, bejiz yuz chaqirimdan ham ko'proq uzoqlikdagi Karmana shahriga ketib qolmagan edi.

Siyosiy agentga amirlikdagi rus manzilgohlarida yashayotgan ham rus fuqarolari, ham Buxoro fuqarolariga nisbatan sud ishlari olib borish huquqi berilgan edi. Bu huquq 1888 yil 11 mayda rus podshosi tasdiqlagan agentlikning nizomida ham ko'rsatib o'tiladi. Buxoro amirligidagi rus manzilgohlariga nisbatan Buxorodagi siyosiy agent general-gubernatorning barcha huquqlariga ega bo'lgan. Siyosiy agentlik (vakolatxona)ning Buxorodagi ta'sirini kengaytirish va Buxoro hukumati faoliyatini yanada faol nazorat qilish uchun 1910 yil boshlarida agentlik shtati kengaytirilib, siyosiy agentning ma'muriy qism bo'yicha yordamchisi lavomi joriy

etilib, bu amaldor bevosita Turkiston general-gubernatoriga bo'yusungan.

Yangi Buxoro (Kogon) shahri iqtisodiy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, 1917 yili shaharda 7 ta paxta tozalash zavodi, yog'-moy ishlab chiqarish va vinochilik zavodi, tamaki fabrikalari bo'lgan[5]. bundan tashqari Yangi Buxoro shahri amirlikning moliyaviy markazi bo'lib, unda bir qancha banklarning bo'limlar, jumladan, yillik oboroti 1912 yilda 90 mln rubl bo'lgan Rossiya davlat bankingin bo'limi mavjud edi.

XX asr boshlarida Buxorodagi rus manzilgohlarida harbiy xizmatchilarni ham qo'shganda 60 000 nafar rus fuqarolari yashagan. Ularni ijtimoiy tarkibi rus amaldorlari, savdogarlar, hunarmandlar, ishchilar hamda ularning oila a'zolari bo'lgan. bu erda yashovchi aholi milliy tarkibiga ko'ra rang-barang bo'lib, ko'chib kelganlar orasida ruslar, armanilar, tatarlar, yahudiyalar, forslar ko'pchilik edi [6].

Sadriddin Ayniyning yozishicha, Buxoro hukmdori Amir Abdulahadxon 1910 yil 22 dekabrda o'tar kechasi (hijriy 1329 yil 7 muharram kuni) Karmana yaqinida joylashgan Xayroboddag'i chorborg' saroyida vafot etgan [7] va Karmana shahridagi Qosim SHayx memoriy majmuasida dafn etilgan. Marhum amirning o'g'li va valiahdi, Karmana hokimi Mir Sayyid Olimxon To'ra Otasi vafot etgan xilxona ustida mustahkam daxma qurdirgan [8]. 1910 yil 24 dekabrda Amir Sayyid Olimxon (To'rajon To'ra) Buxoro shahriga kelib, amirlik taxtiga o'tirgan [9].

Amir Olimxon hukmronligining dastlabki kunlaridanoq xalqning iqtisodiy va ijtimoiy ahvolini yaxshilashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishga kirishadi. Bu haqda keyinchalik uning o'g'li Sayyid Mansur Olimiy[10] (1931-1996) quyidagilarni yozadi: "Amir Sayyid Olimxon 1910 yil Buxoro taxtiga o'tirdi. Hokimiyat tepasiga kelgan kundan boshlab, ichki islohotlar o'tkazishga kirishdi... Amir Olimxon tijorat, sanoat, ziroat, masjid va maktablarni kengaytirishga e'tiborni qaratdi" [11].

Amir Olimxon taxtga o'tirishi munosabati bilan umumiyligi avf e'lon qildi. Unga ko'ra, ashaddiy jinoyatchilardan tashqari uy qamog'i va zindonda saqlanayotgan mahbuslarga ozodlik berildi. Buxoro zindonida jazo muddatini o'tayotgan 50 nafar mahbus, uy qamog'idagi 21 nafar odam ozodlikka chiqarildi. Ashaddiy jinoyatchilar va odam o'ldirib zindonga tashlangan 59 nafar, shuningdek, uy qamog'idagi 7 nafar kishiga ozodlik berilmadi. Ular Kobul, Darvoz va Baljuvonga surgun qilindi[12]. SHuningdek, Amir Olimxon mamlakatni bir yillik xiroj to'lashdan ozod qilish haqida farmoyish berdi [13].

Amir saroyida xizmat qilib yurgan 11 nafar shia mazhabiga mansub turli lavozimdagi shaxslar sunnify mazhabidagi mansabdorlar xohishi bilan mansabidan bo'shatilib, shahar chekkalariga kichik lavozimlarga tayinlab yuborildi [14].

Amir Olimxon hukmronligining dastlabki yillarda ma'muriy boshqaruvda ham o'zgarishlarni amalgalashadi. U Qorategin, Hisor, Ko'lob, Sariosyo, SHerobod, CHorjo'y, Boysun, SHahrisabz viloyatlarining beklarini lavozimidan bo'shatib, o'miga boshqa kishilarni tayinlaydi. Mirzo Salimbekning "Tavorixi muttaqadimin va muttaahirin" asarida yozilishicha, 1911 yili Avliyoqulbek biy parvonachi mang'it Qorategin viloyati, Jalil al-Qodir Devonbegi Hisor viloyati, Mullo Ne'mat Ollobek biy dodxoh Ko'lob viloyati, SHohbek biy Sariosyo viloyati, Mirzo Azim Xo'ja Sherobod viloyati hokimi lavozimlarini egallashgan. 1912 yil (hijriy 1330 yil) Muhammad Yusufbiy dodxoh Chorjo'y viloyati, Ibod al-Hofiz Inoq Buxoriy Boysun viloyati hokimi qilib tayinlanadi. Bu paytda Mirzo Salimbek O'roq Kesh (SHahrisabz) hokimi

edi[15]. Amirning ichki siyosatda o'tkazgan bu o'zgarishlardan ko'zlagan asosiy maqsadi – xalq manfaatlariga xizmat qilishdan iborat edi.

Rossiya siyosiy agentining Buxoro amirligiga ta'siri kuchli bo'lgan. S.Ayniyning yozishicha, rus ma'murlarining islohot masalasini qo'zg'ashidan o'z shaxsiy manfaati ham bo'lgan. bularning islohot talab qilishlari jiddiy bo'lmay yolg'iz o'zlarini ko'rsatishdan iborat edi. Xullas, 1914 yil aprel va may oylarida yana islohot masalasi kelib chiqadi. Buxorodagi rus elchixonasining boshlig'i Miller va uning noibi Shulga va V.Vvedenskiy jiddiy ishlarga kirishdilar. Ular butun ma'murlarga oylik tayin qilishni, biltixsosha qozixonalarining islohoti va qozilarga xazinadan maosh berib, fuqaroden aqcha olmasliklarini qat'iy suratda talab qildilar. Bu to'g'rida amir va vazir bilan ko'rishib, loyihiilar taqdim etdilar[16].

1886 yil 3 martda Rossiya imperiyasining Buxoro amirligidagi birinchi siyosiy aganti qilib Nikolay Charikov tasdiqlandi. Bu lavozimda Nikolay Charikov (1886-1890), Pavel Lessar (1890-1895), Vladimir Ignatev (1895-1902), Yakov Lyuts (1902-1911), Aleksandr Somov (1911-1913), Aleksey Belyaev (1914-1916), Aleksandr Miller (1916-1917) kabi Rossiya diplomatlari faoliyat ko'rsatgan. Bu paytda siyosiy agentlik joylashgan Yangi Buxoro shahridagi markaziy ko'chalarga siyosiy agentlari Charikov, Lessar, Ignatev nomlari qo'yiladi[17].

Buxorodagi siyosiy agentlik, ayniqsa, Pomir bekliklari (Shug'non, Rushon va Vaxon) masalasiga katta e'tibor berdi va bu masala bilan jiddiy shug'ullanib, rus hukumatiga uchun ijobjiy natijalarni qo'lga kiritdi. Rus hukmati Buxoro amirligiga qarashli Badaxshon va Pomirni bosib olib, bu erda mustahkam o'rashib olgach, uning hududiy va siyosiy tuzilishi masalalari bilan jiddiy shug'ullanadi. Aynan mana shu holatda rus hukumatining Osyo qit'asida o'zi bosib olgan hududlarga nisbatan mustamlakachilik siyosati mohiyati yaqqol ko'rindisi[18]. Bu masalada rus hukumatiga ehtiyojkorona ish olib borib, bu masalalarda tashqi siyosiy kelishmovchiliklar va katta sarf-xarajatlardan qochishga harakat qildi.

SHuning uchun ham Rossiya Pomirdagi amirlikka qarashli hamda o'zi bosib olgan 3 ta Pomir bekliklari (yarim mustaqil davlatlar) hududini Buxoro amirligiga topshirib, o'ziga qo'shni "bufer zona" tashkil etishni mo'ljalladi. Rus hukmati ushbu hududlarda yangi boshqaruv tizimini shakllantirish, yo'llar qurish va boshqa xarajatlardan qochib ana shunday yo'lni tanlagan edi.

1895 yil 31 yanvarda Turkiston o'lkasi general-gubernatori Vrevskiy Buxorodagi Rossiya siyosiy agenti Lessarga murojaat qilib, Pomirdagi bekliklarni Buxoro amirligiga tasarrufiga o'tkazish masalasi bo'yicha amirning fikri va xoxishi to'g'risida ma'lumot berishni so'raydi. Buxoro hukmdori Amir Abdulahadxon hamda rus siyosiy agenti o'rtaida olib borilgan muzokaralardan keyin bu masala echimini topadi [19].

Arxiv hujjalari keltirilishicha, 1896 yil 29 iyunda Panj daryosi ortidagi Darvoz bekligi erlari Afg'onistonga, Pomirdagi Vaxon, Rushon, Shug'non bekliklari Buxoroga topshiriladi [20].

Rossiya va Angliya imperiyalari o'rtaida tuzilgan maxfiy shartnomaga ko'ra, Buxoro amirligining Amudaryoning yuqori qismi bo'lgan Panj daryosi o'ng tarafidagi erlari (Darvozning katta qismi, shuningdek, Balx, Mozori Sharif, Shibirg'on, Qunduz hamda Badaxshon va Pomir hududining bir qismi) Afg'onistonga berib yuborildi. Azaldan Buxoro amirligiga qaraydigan, asosan o'zbeklar va tojiklar yashaydigan ba hududlar Buxoro amiri va xalqining roziligisiz Afg'onistonga "sovg'a" qilindi[21]. Bu holat Rossiya va

Angliya imperiyalarining Turkiston mintaqasida o'z geosiyosiy manfaatlарини ko'zlab, o'zaro murosа qilishi edi. Har ikki imperiya о'rtasidagi chegara chizig'i qilib o'sha paytda Amudaryo tanlandi. Buxoro amirligiga qarashli Amudaryoning narigi tomonidagi butun hududi Afg'onistoniga olib berildi. Afg'onistonda Buyuk Britaniya imperiyasi, Buxoro amirligida Rossiya imperiyasi hukmronligi o'zaro tan olindi. Xullas, Pomir va Badaxshon hududida har ikki imperiya tomonidan "bufer zona" yaratildi.

Bundan tashqari Buxorodagi Rossiya siyosiy agentligi tomonidan amirlikdagi ichki boshqaruв masalalariga ham aralashib turilgan. Jumladan, 1914 yil 3 may kuni siyosiy agent Rossiya tashqi ishlар ministri Sazonov topshirig'i asosida Buxoro hukmdori Amir Olimxon bilan uchrashib, Buxoro hukumatи boshqaruvidagi amaldorlar faoliyatи hamda ularni xazinadan maosh bilan ta'minlash masalalarini muhokama qilindi [22]. Uchrashuv natijasida Amir Olimxon 1914 yil iyulda Buxorodagi barcha 11 mustaqil amlokdorlikdagi amlokdorlarga qat'iy maosh belgilash to'g'risida farmon chiqardi [23].

Bundan tashqari 1887 yil 27 mayda imperator Aleksandr III buyrug'i asosida siyosiy agentga Buxoro amirligi hududidagi rus fuqarolari sodir etgan jinoyatlar va harakatlarni ko'rib chiqish yuklatiladi [24].

Amirlik hukumati Rossiya imperiyasi bilan hal qilinadigan barcha masalardan siyosiy agentlik orqali amalga oshirish bilan birgalikda Toshkentdagи rus hukumati huzurida Buxoro amirligi vakolatxonasini ishga tushirishga muvaffaq bo'ldi. Toshkentdagи amirlik vakolatxonasida mashhur davlat

arbobi va tarixchi olim Mirza Salimbek [25] (1848-1930) ham bir muddat faoliyat ko'rsatadi.

1895 yil 1 yanvarga kelib, Buxoro amirligi o'z bojxona tizimidan ham mahrum bo'ldi. Rossiya-Buxoro bojxona chizig'i bekor qilinib amirlikning tashqi chegaralardagi barcha bojxona tizimi Rossiya imperiyasining bojxona tizimi tasarrufiga o'tkazilgan edi. Buxorodagi ichki bozorlar 1894-1895 yillar mobaynida Rossiya imperiyasining ichki bozorlari qatoriga kiritildi. O'sha paytda har yili taxminan 2 mln oltin rubl bojxona orqali amirlik xazinasiga daromad tushardi [26]. 1895 yilda Rossiya tomonidan Karki, Kalif, Kushka, Pattakesar, Hisor va Ayvanja yangi bojxona idoralari tashkil etildi.

Xulosa. Buxorodagi siyosiy agentlikning asosiy vazifasi amirni qattiq nazorat qilish bo'lgan. Fevral inqilobidan so'ng 1917 yil martda agentlik maqomi o'zgartirilib, u Rossiya siyosiy rezidentligiga (vakolatxonasiga) aylantirildi. Sovet hokimiyyati o'rnatilgach, 1917 yil dekabrda Turkiston o'lkasi Xalq Komissarlari Sovetining Buxoro ishlari bo'yicha kollegiyasi ta'sis etildi. Turkiston ASSR tuzilgach (1918 yil 30 aprel), Turkiston o'lkasining Buxoro ishlari bo'yicha komissari tayinlandi. Buxoroda amirlik tuzumi ag'darib tashlangach, 1920 yil sentyabrda u BXSR hukumati qoshida RSFSR hukumatinining muxtor vakilligiga aylantirildi [27].

Shunday qilib, salkam 40 yil davomida turli tuzumlar davrida turfa shakl va nomlarda faoliyat ko'rsatgan Buxorodagi Rossiya vakolatxonalar Rossiya imperiyasi va sovet Rossiyasining mustamlakachilik siyosatini Buxoroda amalga oshirishga xizmat qildi.

ADABIYOTLAR

- Ражабов К., Иноятов С.. Бухоро тарихи. – Тошкент: Tafakkur, 2016. – Б. 130-131.
- Тухтаметов Т.Г. Русско-бухарские отношения в конце XIX– начале XX в. – Ташкент: Фан, 1966. – С. 46.
- Бухоро Шарқ дурданси. – Тошкент: Шарқ, 1997. – Б. 67.
- О'zbekiston Milliy arxiv, I-3-fond, 1-ro'yxat, 353-ish, 40-varaq.
- Фомченко А. Русские поселения в Бухарском эмирате. – Ташкент, 1958. – С.15.
- Тухтаметов Т.Г. Русско-бухарские отношения в конце XIX– начале XX в. – Ташкент: Фан, 1966. – С. 49.
- Садриддин Айний. Бухоро манғит амирлари тарихи.
- Ражабов К. Амир Абулаҳадхон ёхуд "о'жиз" хукмдор // "Бухоро мавжлари". 2007. №2. – Б. 36-41.
- К кончине Эмира Бухарского // "Туркестанские ведомости" (Ташкент). 29 декабря 1910 г.
- Sayyid Mansur Olimiy – Amir Olimxonning o'g'li bo'lib, 1931 yilda Afg'onistonda tug'ilgan. Hozirda Turkiyada yashaydi. Uzoq yillar o'qituvchilik kasbi bilan shug'ullangan. Qizil armiya bosqini oqibatida Buxoro boshiga tushgan kulftalar, uning sabablari va mamlakatni tashlab ketishga majbur bo'lgan otasi Amir Olimxon haqida bir asar yozishni o'zining burchi deb hisoblagan. 1996 yilda Turkiyada arab alifbosi fors tilida Sayyid Mansur Olimiyning "Buxoro gaxvorai Turkiston" ("Buxoro – Turkiston beshigi") asari chop etilgan. Bu asar 2004 yilda o'zbek tilida Buxoroda nashr qilingan.
- Сайид Мансур Олимий. Бухоро – Туркистон бешиги /Форс тилидан таржима, таржимон номидан сўз боши ва айрим изоҳлар муаллифи Х. Тўраев. - Бухоро: "Бухоро" нашриёти, 2004. – Б 71.
- O'zbekiston Milliy arxiv I-1-fond, 31-ro'yxat, 735-ish, 22-varaq.
- Амир Сайид Олимхон. Бухоро ҳалқининг ҳасрати тарихи. (Форс тилидан таржима, муқаддима ва изоҳлар муаллифи Абусодик Ирисов).- Тошкент: Фан, 1991. – Б. 8.
- Вести из Бухары // "Туркестанская ведомости", 24 февраля 1911 года. - № 43.
- Ражабов К. Сўнгти манғит хукмдори // Бухоро мавжлари, 2007. - № 3. – Б. 41.
- Садриддин Айний. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар // Асарлар. Саккиз томлик. Том 1. – Тошкент: Ўздавадабийнапр, 1963. – Б.155.
- Amonova F. Buxoro amirligi iqtisodiyotida sanoat korxonalarning tutgan o'rni (XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlari). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati. – Toshkent, 2021. – В.20.
- Холикова Р. Россия-Бухоро: тарих чорраҳасида (XIX аср иккинчи ярми – XX аср бошлари). – Тошкент: O'qituvchi, 2005. – Б. 188-190.
- O'zbekiston Milliy arxiv, I-3-fond, 2-ro'yxat, 66-ish, 58-61-varaqlar.
- O'zbekiston Milliy arxiv, I-3-fond, 1-ro'yxat, 48-ish, 26-varaq.
- O'zbekiston Milliy arxiv, I-3-fond, 2-ro'yxat, 26-ish, 1-5-varaqlar.
- Холикова Р. Россия-Бухоро: тарих чорраҳасида. – Б. 191.
- O'zbekiston Milliy arxiv, I-3-fond, 2-ro'yxat, 9-ish, 46-48-varaqlar.

24. O'zbekiston Milliy arxivni, I-1-fond, 29-ro'uxat, 842-ish, 14-varaq.
25. Мирза Салимбек. Тарихи Салими (источник по истории Бухарского эмирата). Перевод с персидского, введение статья и примечания: Н.Наркулов. – Ташкент: Akademiya, 2009. – С.12-13.
26. O'zbekiston Milliy arxivni, I-3-fond, 1-ro'uxat, 170-ish, 14-18-varaqlar.
27. Ражабов К., Иноятов С.. Бухоро тарихи. – Тошкент: Tafakkur, 2016. – Б. 130-131.



Aziza REZVONOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi
E-mail: rezvonovaaziza@gmail.com

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti professori A.Zamonov taqrizi asosida

BUXORODAGI MIR ARAB MADRASASI TARIXIGA DOIR BA'ZI MULOHAZALAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada Buxorodagi Ubaydullaxon me'morchilik va qurilish faoliyati, uning hukmdorligi davrida pir rahnomosi Mir Arab (Amir Abdulla Yamaniy) tomonidan qurilgan Mir Arab madrasasi bilan bog'liq ma'lumotlar tahlil qilingan. Shuningdek, XVI asrning ikkinchi yarmida Buxoro me'morchiligi maktabining o'ziga xosligi va binolarning boy va sermehnat naqsh - koshinli sopol yig'ma mazayka bezaklariga alohida to'xtalib o'tilgan. Shu yo'naliш ishlatalilgan inshootlardan biri Buxorodagi Mir Arab madrasasi hamda uning me'moriy yechimi, tashqi kompazitsion ko'rinishi tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlar asosida o'rganilgan. Unda Mir Arab madrasasi 25-30 yil davomida qurilgan, degan taxminlarga oydinliklar kiritilgan. Mir Arab hazratlari vafotidan so'ng, madrasaning qurilish tarixi, shart-sharoitlari, moliyalashtirish manbalar ham uning me'moriy yechimi tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: Ubaydullaxon, Mir Arab (Amir Abdulla Yamaniy, G'ijdivon, Najmiy Soniy, madrasa, inshoot, ta'lim, Buxoro shahri, obida, sulola, arxitektura, me'morchilik, qurilish tarixi).

SOME REMARKS ON THE HISTORY OF MIR ARAB MADRASHA IN BUKHARA

Annotation

This article analyzes information related to the architectural and construction activities of Ubaidullah Khan in Bukhara, the Mir Arab madrasa built by the pir leader Mir Arab (Amir Abdulla Yaman) during his reign. Also, in the second half of the 16th century, the originality of the Bukhara school of architecture and the rich and laborious pattern of the buildings - tiled ceramic composite mazaika decorations were specially emphasized. One of the buildings where this direction was used is the Mir Arab madrasa in Bukhara and its architectural solution and external compositional appearance were studied on the basis of historical sources and scientific literature. It clarified the assumptions that the Mir Arab madrasa was built for 25-30 years. After the death of His Holiness Mir Arab, the construction history of the madrasa, conditions, financing sources and its architectural solution were analyzed.

Key words: Ubaidullah Khan, Mir Arab (Amir Abdulla Yaman, Gijdivan, Najmi Soni, madrasa, structure, education, Bukhara city, monument, dynasty, architecture, architecture, construction history).

НЕКОТОРЫЕ ЗАМЕЧАНИЯ К ИСТОРИИ МИР АРАБСКОГО МЕДРАША В БУХАРЕ

Аннотация

В данной статье анализируются сведения, связанные с архитектурно-строительной деятельностью Убайдулла-хана в Бухаре, медресе Мир Араб, построенного лидером пиров Мир Арабом (Амиром Абдуллоя Ямани) во время его правления. Также во второй половине XVI века особо подчеркивалось своеобразие бухарской школы зодчества и богатый и кропотливый рисунок построек - изразцовые керамические составные украшения мазаики. Одним из зданий, где использовалось это направление, является медресе Мир Араб в Бухаре, его архитектурное решение и внешний композиционный облик изучены на основе исторических источников и научной литературы. Он уточнил предположения о том, что медресе Мир Араб строилось 25-30 лет. После смерти Его Святейшества Мир Араб была проанализирована история строительства медресе, условия, источники финансирования и его архитектурное решение.

Ключевые слова: Убайдулла-хан, Мир Араб (Амир Абдулла Ямани, Гиждиван, Наджми Сони, медресе, строение, образование, город Бухара, памятник, династия, архитектура, история строительства).

Kirish. Buxoro – Markaziy Osiyoning qadimiy shaharlaridan bo'lib, Buyuk Ipak yo'lidagi eng yirik va mashhur savdo markazlaridan biridir. Shahar umumjahon tamadduni rivojlanishining eng muhim bosqichlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan o'zining ming yillar davomida shakllangan boy va noyob tarixi bilan madaniy-ma'rifiy va ma'naviy-diniy qadriyatlarning rivojlanishiga ulkan hissasini qo'shib kelgani bilan butun dunyoda shuhrat qozongan.

XVI asrda "Muhammad Shayboniyxon boshchiligidagi ko'chmanchi o'zbeklar Movarounnahr va Xurosonni egallab, temuriy shahzodalar hukmronligiga chek qo'ydi va ulkan hududga o'zlarining markazlashgan davlatiga asos soldi. Bu davlat poytaxti avval Samarqand bo'lgan bo'lsa, XVI asr

o'rtalaridan boshlab, Buxoroga ko'chiriladi [11]." Demak XVI asr o'rtalaridan boshlab shayboniy hukmdorlar tomonidan Buxoroda markazlashgan va poytaxt shahar sifatida ijtimoiy – siyosiy, iqtisodiy madaniy- ma'rifiy rivojlanishlar amalga oshirildi.

Shayboniy hukmdorlar poytaxt Buxoro va uning atroflarini obod qilishga harakat qildilar. Ayniqsa, bu ishlar Ubaydullaxon (1533-1540) davrida me'morchilikka katta e'tiborini qaratdi. So'zimizning isboti sifatida o'sha davr tarixchisi Hofiz Tanish Buxoriyning "Ubaydullaxon adolat shevasida dimparvar va siyosat yo'lida g'oyatda mashhur podshoh edi. Uning davrida va halovati zamonida Movarounnahr, xususan Buxoro viloyati gullab yashnadi [9]."

Ubaydullaxon davrida Buxoro xonligida shahar obodonchiliga va yo'llar qurilishiga ham jiddiy e'tibor berilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mustaqillik sharofati bilan tarixning har bir davri, shu jumladan, O'rta Osiyoda hukmronlik qilgan xonliklar davri bo'yicha ham manbalar, ilmiy asarlar orqali tahlil qilinib, xolisona tarix yoritila boshlandi. O'zbek xalqi davlatchiligi tarixini o'rganishda nisbatan kam tadqiq etilgan hamda e'tibordan chetda qolib kelgan shayboniyalar sulolasini hukmronligi davri ham o'ziga xos o'ringa ega. Bugungi kunda shayboniyalar sulolasini hukmronlik qilgan Buxoro xonligidagi madaniy jarayonlar tarixi bo'yicha ilmiy tadqiqot natijalarini sanoqla. Shunday bo'sha-da, Buxoro xonligida shayboniyalar hukm surgani davri tarixinining turli jihatlarini R.G.Mukminova, B.A.Ahmedov, G.A.Agzamova, H.H.To'rayev, A.Ziyo, Q.K.Rajabov, A.Jumanazarov, A.Zamonov kabi mamlakatimiz olimlari tadqiq qilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolani yozishda tarixiylik, xolislik tamoyillariga amal qilgan holda, tizimlilik, xronologik va qiyosiy tahlil, statistik tadqiqot usullaridan foydalанилини, Buxoro xonligida shayboniyalar sulolasining yirik madaniyat vakillaridan biri bo'lgan hukmdor Ubaydullaxon hukmronligi va uning davrida ustozni va rahnamosi sharafiga bunyod etilgan Mir Arab madrasasini qurilishi bilan bog'liq faoliyati tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. Ubaydullaxon davrida Buxoroda ilm – fan va ta'lrim sohasini rivojlantirish maqsadida bir qancha ta'lim muassasalarini, qator yodgorliklari va turli maqsadga mo'ljallangan qurilish ishlarni amalga oshirganlar.


Buxoro shahri qadimiy va me'moriy jihatdan beqiyos shaharlardan biri bo'lib, uning 1997-yilda 2500 yillik yubileyi nishonlandi. Muso Saidjonovning 1927-yilda arab alifbosida yozilgan "Buxoro shahri va uning eski binolari" asari XVI asr Buxoro xonligidagi madaniy jarayonlar va shahardagi buniyodkorlik ishlari, me'moriy inshootlarning qurilish tarixi haqida qimmatli ma'lumotlar beradi [9]. Bu asar Buxoro shahrida buniyodkorlik ishlari, me'moriy inshootlarning qurilish tarixi haqidagi ma'lumotlarni berishi bilan ajrarib turadi.

XVI asr davomida shu davrning barcha muhandislik imkoniyatlari va jamiyatning ma'naviyat va madaniyat darajasiga mos ravishda ko'plab binolar, me'moriy majmular, inshootlar bunyod etildi. Bu davrda yetuk buniyodkorlik, ta'lim

muassasalaridan biri Mir Arab madrasasidir. Mir Arab madrasasi 1520-1536 yillarda ichida Ubaydullaxonning ustozni va rahnamosi Amir Abdulla Yamaniy (Mir Arab) sharafiga bunyod etilgan. O'sha davr tarixchisi Xasanxo'ja Nisoriyning "Ubaydullokhon baloi ofatlarni daf qiluvchi Buxoro shaxri obodonchiligi va qurilishlari uchun ko'p say - harakatlar ko'rsatdi. Buxoro qadimiy shahar bo'lib, tegrasi ulkandir. Besinchin ilmdan deb hisoblaydilar zuxroga taalluqlidir [7]" kabi so'zlarini keltirishimiz mumkin.

XVI asr Buxoro me'morchiligidagi asosiy rivojlanish yo'nalishlari bo'yicha har biri taqriban uch o'n yillikni qamraydigan uchta qurilish davrini ajratish mumkin. Birinchi davr - 1500-1530 yillarda - Buxoroning temuriylardan keyingi rivojlanish davrini o'z ichiga olib, u asosan Ubaydulloxonning qurilish faoliyati bilan bog'liq [3]. Ya'ni bu davr Buxoro me'morchiligi maktabining o'ziga xos shakllangan davri hisoblanadi. Bu davr binolari boy va sermehnat naqsh – koshinli sopol yig'ma mazayka bezab turishimi ko'rishimiz mumkin. Buniyodkorlik ishlardan nafaqat sulola namoyandalar, balki o'z davrining ko'zga ko'ringan katta moddiy imkoniyatiga ega kishilari ham chetda qolmaganlar. Shular jumlasiga Ubaydullaxon hukmronligida ustozni va rahnamosi sharafiga bunyod qilingan Mir Arab madrasasi misol keltirishimiz mumkin.

Bu madrasa qurilishi 1512-yil G'ijduron yaqinida shayboniyarning Eron qo'shinlari ustidan g'alabasidan tushgan o'la – mablag'ni Ubaydullokhon o'z piri Mir Arabga madrasa buniyod etish uchun taqdim qilgan [6]. G'ijduron jangidagi g'alaba Mir Arab (Amir Abdulla Yamaniy) tufayli qo'iga kiritilganligi bois safaviyalar qo'shinidan tortib olingan katta o'ljaning asosiy qismini Ubaydulloxon o'z ustoziga topshiradi. Chunki, Eron hukmdori Najmiy Soniy qo'shinining mag'lub bo'lishi muhum siyosiy ahamiyatga ega edi. Sababi shunda ediki, bu voqeal shayboniyarning taxtda qolish qolmasligini hal qilardi. G'ijduron jangidagi g'alaba Mir Arab (Amir Abdulla Yamaniy) tufayli qo'iga kiritilganligi bois safaviyalar qo'shinidan tortib olingan katta o'ljaning asosiy qismini Ubaydulloxon o'z ustoziga topshiradi. Buyuk tariqat piri o'z navbatida bu mablag'ga Buxorodagi mashhur Mir Arab madrasasini qudiradi [8]. Yuqorida bir birini tasdiqlovchi ma'lumotlar ham Ubaydulloxon o'z piri Mir Arabga madrasa buniyod etish uchun olingan o'la – mablag'ni taqdim etganini ko'rsatadi.



Ushbu madrasanining imoratiga qachon va qaysi yilda kirishilgani ma'lum bo'lmasa ham, imoratning bitishidan avval 936 – hijriy yilda Mir Arab hazratlarining o'lgani ma'lumdir. Mir Arab hazratlarining Sayramdag'i mol-mulki o'zi Buxoroda bo'lgan chog'ida 928 hijriy yilda Yassi hokimi Ko'chkunchixon o'g'li Abdullo Sulton va Toshkent hokimi Sevinchxon tamonidan talon - taroj qilinadi. Bundan keyin Mir Arab hazratlarining Buxoroda turib qolganligi va shu yil

oralig'ida madrasa imoratini boshlagandir deb qiyos qilinsa bo'ladi. Mir Arab hazratlari vafotidan so'ng uning vasiyati bo'yicha o'z kuyovi Shayx Zikriyoy imoratni qurilishini davom ettirib, 92 hijriy yilda bitkazadi [4]. Yuqorida ma'lumotlarga ko'ra madrasa 10-15 yil davomida quriladi.

Mir Arab madrasasi dunyoga dong'i ketgan madrasalardan biri bo'ldi desak adashmaymiz. U Masjidi Kalonning ro'parasida bo'lib, yonida mashhur Minorai Kalon

joylashgan bo‘lib, keng va yuksak sahnasi, to‘rt peshtoqi, ikki yuksak gumbazi bor. Gumbaz va peshtoqlari koshin bilan ishlangan, peshtoqlar turli yozuvlar bilan bezatilgan ekan. Inshoot darvozasi niyoyatda chiroliy tarzda turli naqshlar va yozuvlar bilan bezatilgan bo‘lib, unda ko‘k rang ustuvor bo‘lgan [1]. Yuqoridagi ikkita mulohazali fikrlardan ham bilishimiz mumkinki, madrasa Ubaydullaxon davrida qurilgan inshootlar ichida eng nufuzlisidir.

“Ubaydulloxonning davlati ayyomida barpo bo‘lgan oliv imoratlardan biri Mir Arab oliv madrasasidirkim, tengi yo‘q darajada qurilgan. Uning ta’rixini ham Aziziy shunday bitgan. Ta’rixi:

Mip Arab, faxri Ajam, on ki soxt

Madrasai oliyi bas bul ajab.

Bul ajab on ast, ki ta’rixi o‘st,

“Madrasai oliyi Mir Arab”...

dan hosil bo‘ladi (942—1536). Ushbu forsiy qitani xattot Mirali Fathobodiy —Buxoriy madrasa darvozasiga yozgan hisoblanadi. Shuni takidlash lozimki, Sadriddin Ayniy yozishicha “Madrasaning umumiyat tarixi uchun mashhur xushnavislardan Buxorolik kotib Mir Ali ushbu forsiy qit’ani aytib, madrasa darvozasiga yozgan:” deb aytilgan. Bu yerda biz bir birini inkor qildigan tarixiy faktlar keltirilganini ko‘rshimiz mumkin.

Shayboniyalar davri me’morchiligidagi temuriylar me’morchiligidan farqli o‘laroq peshtoq va koshinlardagi epigrafik yozuvlarda ilk bor turkiy tildagi bitiklardan foydalana boshlaganligi aniqlangan.

Ish jarayonida Mir Arab madrasasi faoliyatiga doir bitta vaqf hujjatini uchratdik deb yozadi muallif Jumanazar Abdusattor. Unda madrasa xujralari soni ko‘rsatilmagan. Hujjat qog’ozni eni 36 sm, satrlar oralig‘i 2.5 sm atrofida, nasx xatiga yozilgan. Ilgari namda qolgani sababli hujjatning bir tomoni mog‘orlagan va yozuvlariga zarar yetgan. Ya‘ni yuqoridagi hujjat ma’lumotlarida ko‘rsatilishicha, madrasaning sharqiy qismida xazrat Mir Arabning mulki, ko‘cha mavlono Muhammad Miskin madrasasi vaqf yerlari bo‘lgan deb ko‘rsatilgan.

Madrasada darslar katta-katta guruhlarda olib borilgan. Guruhlar asosan ellik, oltmisht yetmish talabalardan tarkib topgan va darslar madrasaning katta xonalarida o‘tkazilgan. Bu xonalar madrasa masjidi vazifasini ham bajargan. Bundan tashqari manbalarda madrasa talabalari diniy bilim bo‘lgan Qur’oni Karim, fiqh, shariat asoslari, diniy-axloqiy adabiyotlar bilan birga til, adabiyot tarix, falakiyat, mantiq, falsafa, xandas (geometriya) kabi dunyoviy va aniq fanlardan ham ta’lim olganlar [5]. Shunga qaramasdan, bu davrda madrasalarda diniy-axloqiy ta’limga asosiy e’tibor qaratilib, dunyoviy ta’lim berish nisbatan orqada qolgan edi. Bizning kunlarimizgacha saqlanib qolgan me’morchilik yodgorliklari hamda yozma manbalar xonlikda adabiyot, tarix, xattotlik va musiqa san’ati, me’morchilik rivojlanganligidan dalolat beradi.

Manbalarda takidlanishicha, madrasada tib, ilmi nujum, mantiq, xattotlik, matematikaga oid kitoblar saqlangani aytildi. Madrasada bugungi kunda ham ko‘plab qadimiy kitoblar saqlanib kelinmoqda.

Madrasa o‘qituvchilar-mudarrislar va boshqa xizmatchilar maoshlari, talabalar nafaqalari, kutubxonalar xarajatlari, ta’mirlash ishlari va boshqalarga ketadigan mablag‘lar vaqf yerlaridan keladigan foya hisobidan qoplangan.

Madrasani buniyod etilishida asosan xom va pishiq g‘isht, loy, yog‘och, sement, temir, tunuka va shu kabi mahsulotlardan keng foydalanilganligini ko‘rshimiz mumkin [12]. Madrasaning umumiy tarhi 68,5-x51,8 m., hovli

35,4x31,3 m., darsxona 8x8 m. Hovlisi to‘rburchak shaklida bo‘lib, atrofini oldi ravoqli, ikki oshyonli 114 hujra o‘rab turadi. Tomonlar o‘rtasidagi 4 baland peshtoqli darsxona – ayvon hovli mahobatini oshiradi. Tuzilishi jihatidan naqshinkor janubiy peshtoqning dastlabki qiyofasi saqlanib qolgan, bu naqshlarning tarkibiy qismida yulduzsimon bezaklar uchraydi. Undagi bezakkarning saqlanib qolgan ayrim parchalaridan naqshlar g‘oyat nafis va nozik bo‘lganligini bilish mumkin. Ya‘ni XVI asr binolarning tashqi bezaklarida jozibadorlik ancha susaygan, lekin binolarning intererlari ilgargidek serhasham qilib bezatilgan.

Miri Arab madrasasi an’anaviy me’moriy usul asosida qurilgan. Hashamdr bosh peshtoq, tashqarida ikki burchakda ikki guldasta, peshtoq va guldstalar oralig‘ida baland dumaloq ustivor (baraban)larga o‘rnatilgan ikki feruza gumbaz o‘ng tomondagi gumbaz ostidagi xona bugungi kunda ham masjid vazifasini o‘taydi.

Inshoot tashqaridan ikki qavatlbo‘lib, ko‘rinib tursada, u to‘rt qavatdan iborat bo‘lgan. To‘rburchak shaklida qurilgan, keyinchalik oldindan peshtob qurilib kengaytirilgan. Inshootning ichi har doim konussimon darchalar yordamida yoritib kelingan. Madrasaga kirganga chap qo‘l tarafda madrasa buniyodkori Sayyid Abdulloh Yamaniyning qabri joylashgan. Shu bilan birga maxsus qurilgan xilhonada shayboniy hukumdr Ubaydullaxon qabri va bir necha qabrlar hozirgi kungacha ham saqlanib kelinmoqda. Qabrlardan chetroqda kichkina xona bo‘lib, u chillaxona deyilgan.

Hujralar bosh peshtoq tomonidagi ko‘chaga (Masjidi Kalonga) hamda hovlining to‘rt tomoniga qaratib ikki qator qilib qurilgan. Hovli burchaklari hujra ravoqlari bilan chegaralangan va to‘rt devorning o‘rtasida chuqr ravoqli to‘rtta peshtoq ishlangan. Hilxona gumbazi to‘rtta o‘zaro kesishgan toq ustiga dekorativ gumbaz va aylana ustivorga o‘rnatilgan tashqi qubbadan iborat. Hovlidagi ayvonnning yuqori qismida panjara bo‘lgan. Bino pardozida koshinkorlik va koshinburush ishlatalilgan [2]. Bundan ko‘rshimiz mumkinki, Mir Arab madrasasi xalq me’morchiligi an’analaridan foydalanilgan, monumental binolar tipida va Sharq me’morchilik an’analarining “Chor” uslubida, eshiklari xotamkori uslubida qurilgan.

Sadriddin Ayniying “Mir Arab madrasasi Buxoro inqilobi chog‘ida bir oz zararlangan va otilg‘on to‘plardan minorasining ba‘zi bir yerkari upirilg‘ondi. Shuni isloh qilish chorasini ko‘rshimiz kepak.” deb idora qilishni ta’kidlagan.

Rejalashtirilgan madrasa qurilishi uchun an’anaviy hajm-rejaviy yechim qabul qilingan. Fasadning o‘rtasida birinchi bo‘lib ko‘zga tashlanadigan yirik peshtoq joylashtirilgan. Ichki hovli burchaklari kesilgan to‘g‘ri to‘rburchak shaklida bo‘lib, uning atrofida ikki qavatlbo‘lib hujralar joylashgan. Bosh fasad bo‘ylab peshtoqning o‘ng va chap qanonida ikkita gumbazli zal joylashgan. Bosh fasad burchaklarida vazmin kichik minora - «guldasta» tiklangan. Ba‘zi bir yechimlar bo‘yicha masjid loyihasi mumtoz yechimlardan farq qiladi. Kiraverishda o‘ng qo‘lda darsxona, chap qo‘lda go‘rxona joylashgan. Daxmalar tantanavor tarzda qurilgan, zal parusli konstruksiylar bilan yopilgan [10]. Madrasa arxitekturaviy jihatdan mukammal va qulay qilib barpo etilgan.

Madrasani bezashda, asosan, oq, sariq, yashil ranglardan unumli foydalanilgan. Qizil rang kishining qon bosimini ko‘taradi, deb hisoblashgan. Bundan tashqari, Buxoro issiq hudud bo‘lganligi bois bu rang odamlarga ko‘p ham yoqmagani. Koshinlarga kam miqdorda tilla, kumush, mis, qo‘rg‘oshin qo‘shilgan. Bularning hammasi sifatliligi bilan ajralib turadigan kvars qumiga aralashtirib ishlatalilgan. Bundan

ko'rishimiz mumkin, madrasada ranglarning bir biri bilan uyg'unligi va insonlarga muntonosibligiga ham alohida e'tibor berilgan.

Shu madrasada yoshligidan tahlil olgan, Sadreddin Ayniy Buxorolik taniqli tojik adibi o'zining Buxoro kitobida xonalarni izohlab "odam ham, havo ham, yorug'lik ham birgina eshikdan kiradi, o'choqning tutuni ham o'sha yerdan chiqadi, dahlizdag'i o'choqda ovqat pishiriladi, o'tin qo'yiladi, yuz-qo'l yuviladi" deb yozib qoldirgan. Bu esa XVI asrlar me'morchiligidagi binolar konstruksiyalari yanada takomillashtaganidan dalolat beradi.

Mir Arab davrida ham uning sharafiga Sayramda bo'lg'on imoratlarning biri Ubaydullaxon madrasasidir. Ushbu madrasa zamonning eng katta madrasalaridan bo'lib, keng va baland peshtoqli peshtoqning ikki yonida ikki yuksak minorasi bor ekan. Bu minoralarning qafaslari ostida bir cho'p bog'lanib, undan yo'g'on bir zanjir osdirilgan. Minoras ustiga chiqib, cho'pni qimirlatganda zanjir harakatga kelar ekan, shundoqkim, bu holni uzoqdan ko'raturg'onlar minorasini yiqilayotibdir deb guman qilar ekanlar. Vosifiy "Badee ul-vaqoe" da ushbu madrasanining rasmi kushodiga o'zi hozir bo'lganligini yozib qoldirgan. 1921-yil Rossiya imperiyasining bosqini tufayli madrasanining peshtoqi to`p zarbidan madrasa sathiga qulab tushgan.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnda aytish mumkinki, Ubaydullaxon davrida Buxoroda ilm-fan, shaharsozlik, me'morchilik va hunarmandchilik, savdo-sotiqlari sohalarda katta yutuqlarga erishilgan. Bu esa shayboniyalar hukmonligi davri o'zbek davlatchiligi tarixida muhim ahamiyatga ega davr ekanligini ko'rsatib turibdi. Shayboniyalar ham temuriylardan qolishmagan holda bunyodkorlik ishlarini amalga oshirgan. Buni birgina Ubaydullaxon davrida bunyod etilgan Mir Arab madrasasi misolida ko'radigan bo'lsak, ko'pgina me'moriy yodgorliklar tag-tugi bilan yo'q bo'lib ketgan ammo, Mir Arab madrasasi me'morchiligi san'atining o'zi bir alohida madaniy meros sifatida namoyon bo'lib turibdi. Bu madrasa bugungi kunda yurtimizda mavjud bo'lgan madrasalar orasida hozirgi kunga qadar o'quv sohasida uzuksiz faoliyat olib kelmoqda.

Shu yerda ta'bir joiz bo'lsa, rus yozuvchisi N.V.Gogolning quyidagi fikrini bayon etish maqsadga muvofiqdir. "Me'morchilik ham xalqning toshga bitgan yilnomasidir va u halok bo'lgan xalq haqida va uning adabiyoti va na afsonalar so'zlay olmagandagina tilga kiradi". Haqiqatdan ham me'morchilik tarixi insoniyat jamiyatini taraqqiyotining naqadar ulkan va mashaqqatli yo'lni bosib o'tganligidan dalolat berib turadi. Bundan ko'rishimiz mumkinki, shayboniyalar davri me'morchiligi madaniyat va san'at tarixida chuqur o'rganilishi kerak bo'lgan eng dolzARB mavzulardan biridir.

ADABIYOTLAR

1. Абдусаттор Ж. Бухоро: Таълим тизими тарихи.-Тошкент:2017, 339.b
2. Ахмедов М.К. Ўрта Осиё меморчилиги тарихи.-Тошкент:Ўзбекистон,1995.-6.66-67.
3. Бухоро шарқ дурданаси.-Тошкент: Шарқ, 1997.-б.98.
4. Бухоро мавжлари. Садриддин Айний.Мир Араб иморатлари.-Тошкент:2009.-6.12.
5. Каримов.Б. Буҳородаги Мир Араб мадрасаси. // Ўзбекистон макон ва замонлар оша.-Тошкент: 2011, б.79
6. Мирзаев Б.Убайдуллахон-Шайбонийлар давлатининг ҳукмдори.-Тошкент: Mumtoz so'z,2016.-б.23-24.
7. Нисорий, Ҳасанхожа.Музаккири ахбоб. Форс тилидан тарж: И.Бекжон.-Тошкент: А. Қодирий номидаги Халқ мероси,-б.21.
8. Ражабов Қ, Очилов Э.Убайдуллахон. – Тошкент: Abu matbuot-konsalt, 2011, 14 б.
9. Сайджонов М. Бухоро шаҳри ва унинг эски бинолари. / таржimon X. Тўраев –Тошкент: 2005, 58 б.
10. Ҳоғиз Таниш ал-Буҳорий. Абдулланома. Биринчи китоб./ таржimon С. Мирзаев –Тошкент: Шарқ, 1999, 416 б.
11. Vaxitov.M.M.,Mirzayev Sh.R.Me'morchilik – Тошкент: Tafakkur, 2010, 361 b.
12. Zamonov A.Buxoro xonligi tarixi. – T.: Bayoz, 2021.
13. Zamonov A.Tarix fanidan olimpiyadaga tayyorlanamiz. – T.: Bayoz, 2012.



A'zamjon TO'XTABAEV,
Namangan davlat universiteti dotsenti, PhD
E-mail: toxtabayev09051981@gmail.com

NamDU tarix fanlari doktori, professor A.Rasulov taqrizi asosida

O'ZBEKISTONDA AEROPORTLAR QURILISHI VA FAOLIYATI TARIXI (1920-50-YY.)

Annotatsiya

Mazkur maqolada XX asrning 20-50 yillarda O'zbekiston SSRda aeroportlar tarixi yoritilgan. Unda ilk aeroportlarning tashkil topishi, O'rta Osiyo xususan O'zbekistonda aeroportlarning qurilish tarixi, aeroportlarda amalga oshirilgan ishlar, foydalanilgan transportlar bo'yicha ma'lumotlar, statistik raqamlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Havo transporti, aeroport, aerodrom, aerovokzal, samolyot, tranzit.

ИСТОРИЯ СТРОИТЕЛЬСТВА И ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ АЭРОПОРТОВ В УЗБЕКИСТАНЕ (1920-50-Е ГГ.)

Аннотация

В статье рассматривается история аэропортов в Узбекской ССР в 20-50-е годы XX века. Приводятся данные об организации первых аэропортов, история строительства аэропортов в Средней Азии-Узбекистане в частности, работы, проводимые в аэропортах, данные об используемом транспорте и статистические показатели.

Ключевые слова: Воздушный транспорт, Аэропорт, аэродром, Авиационная станция, самолеты, транзит.

THE HISTORY OF THE CONSTRUCTION AND OPERATION OF AIRPORTS IN UZBEKISTAN (1920-50s)

Annotation

This article covers the history of airports in the Uzbek SSR in the 20-50s of the XX century. It provides data on the organization of the first airports, the history of the construction of airports in Central Asia-Uzbekistan in particular, the work carried out at airports, the data on used transport and statistical figures.

Key words: Air Transport, Airport, airfield, Air Station, aircraft, transit.

Kirish. Havo transporti taraqqiyotida aeroportlar infratuzilmalarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Aeroport – havo kemalariga xizmat qiluvchi, yo'lovchi va yuklarini qabul qilish yoki manzilga etkazishdagi kuzatish maskan hisoblanadi. Aeroportlarda yo'lovchilarga havo transporti orqali sifatlari va xavfsiz tizimda faoliyat yuritadi. Aeroport radiolokatorlar, avtomatik radiotexnika vositalari, yorug'lik signal tizimlari va navigatsiya qurilmalari bilan jihozlanib, fuqaro aviaxizmatini ta'minlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Aeroport tushunchasi yoki samolyotlarning qo'nishi va uchishi uchun mo'ljallangan hudud tushunchasi, ehtimol, odamlar parvoz qilgan vaqtidan beri mavjud bo'lgan. Biroq, aeroportdan birinchi marta 1909-yilda AQShning Merilend shtatidagi College Park aeroportida foydalanish qayd etilgan. Aslida birinchi qurilgan aeroport Vankuverda (Washington shtat, AQSh) Pearson Field aeroporti bo'lgan[1]. U 1905-yilda qurilgan, lekin 1911-yilgacha u aslida havo kemalari uchun o'rnatish stantsiyasi sifatida ishlataligan. Shuning uchun Pearson Field inshooti dunyodagi eng qadimgi aeroportlar ro'yxatida ko'rinxaydi. Shuningdek, Parij yaqinidagi Touss-le-Noble aeroporti 1907-yilda tashkil etilgan va shu vaqtidan beri ishlaydi. Dastlabki aerodromlar va aeroportlar samolyotlardan harbiy, qishloq xo'jaligi, havo pochtasi va havo kuzatuvi maqsadlarida foydalanish natijasida paydo bo'lgan.

O'zbekistonda aeroportlar tarixan dastlab aerodromlardan vujudga kelib, asosan, uchish-qo'nish maydonlariga ega bo'lgan, xolos. Qoraqalpog'istonda birinchi aeroport XX asrning 20-yillarida To'rtko'lda barpo etilib, Nukus, Yangi-Urganch va Mo'ynoq bo'ylab uchadigan reyslar

ishga tushdi[2]. 1922-yilda Xorazm Nozirlar Kengashining ijroiya qo'mitasi "Xiva bilan Chorjo'y o'rtasida havo yili ochish haqida" qaror qabul qilinib, Xivaning Xonqa darvozasi oldida aeroplanelar bekti ajratish taklif etildi. Ammo 1929-yilda aerostantsiyani Urganchga ko'chirishga to'g'ri keladi.

1923-yilda Buxoro Xalq Sovet respublikasida "Dobrolyot" jamiyatni tuzildi. Ushbu jamiyatning "Yunkers-13" havo kemalaridan tashkil topgan otryadi Kogonda joylashgan. "Kogon" aeroporti 1924-1930-yillarda Toshkent – Buxoro – Xiva – To'rtko'l va Toshkent – Buxoro – Qarshi – Termiz yo'nalişlari bo'ylab uchadigan havo transportlari uchun oraliq qo'nalg'a vazifasini o'tagan.

Janubiy avia "darvoza" hisoblangan Termiz aeroporti 1924-yilda Toshkent – Termiz havo yo'li bilan ochilgan. Termiz aeroporti orqali 1927-yildan Toshkent-Qobul xalqaro havo yo'li ishga tushdi. Mazkur aeroport Sovet Ittifoqining janubiy chegara hududiga yaqin joyda joylashganligi uchun ko'plab samolyotlarga yoqilg'i quyish kabi ehtiyojlarni bajargan.

1927-yildan Samarqandda rasman oraliq havo stantsiyasi ishga tushirilgan. Bu erdan samolyotlar Toshkent, Chorjo'y va Dushanbe shaharlariga qatnagan. Asosan, PS-9, P-5, R-5 rusumli samolyotlaridan foydalanilgan. Samarqand aerodromidan 1930-yildan Toshkentdagagi 21-aviotryadining oraliq qo'nish maydoni sifatida foydalanilgan[3].

O'zbek-Tojik Fuqaro Havo floti boshqarmasiga qarashli aeroportlar ichida XX asrning o'ttizinchı yillarda ham Andijon aeroporti bo'lgan. U yerdan dastlab harbiy uchuvchilar foydalangan.

Qoraqalpog'istonning Qo'ng'irot va Chimboy aeroportlari uchun 1931-yilda joy ajratilib, bir yildan keyin Qoraqalpog'iston bo'ylab pochta-yo'lovchi tayyoralarining doimiy reyslari boshlandi.

Toshkentda 1932-yil iyun oyida aeroport va uning tarkibida uch bino, 22-ATU, oshxona barpo etildi. Fuqaro Havo floti hisobotida, Toshkent aeroportining qurilish loyihasi tanqid qilingan, salohiyatlari ishchilarini etishmasligi, binoning sisfatsizligi qayd etilgan. Mazkur ma'lumotlar 1933-yilda Fuqaro Havo floti boshqarmasi aeroport qurilishiga o'z vaqtida tayyorgarlik ko'rishga e'tibor qaratmagani bildiradi. Natijada, aeroport bir necha yillar tuproq yo'lli oddiy maydonga o'xshab, yog'ingarchilik sababli tez-tez yopib qo'yilgan paytlar ham bo'lgan.

Samarqand aeroporti rasmiy 1933-yil 21-fevralda ro'yxatdan o'tgan. 1934- yilda dastlab Qo'qonning Chorsu maydoniga "temir qush" kelib qo'ngan.

1936-yilda modifikatsiyalashgan Samarqand aeroportida ommaviy parvozlar uchun sharoit yaratilib, meteorologiya xizmati tashkil etildi.

1936-yilda Qoraqalpog'istonda alohida aviaguruh tashkil etilib, unga Pyotr Shpit komandir etib tayinlandi. O'sha yili O'zbekiston aviatorlariga Turkmaniston havo floti boshqarmasidan Yangi Urganch, To'rtko'l, Chimboy, Xo'jayli aeroportlari o'tkazilib, Nukusda aeroport qurila boshlandi[4].

1937-yilda Urganch aeroportida ikkita Po-5 samolyotidan tashkil topgan tibbiy aviaguruxning tuzilishi, uning mintaqadagi Xoramz va Qoraqalpog'istonga xizmat qiladigan tez yordam stantsiyasiga aylantirdi.

Farg'ona aeroporti 1938-yilda tashkil topgan. Aeroportda asosan, PO-2 samolyoti yuk, pochta va yo'lovchilarini tashish bilan birga tibbiy reyslarini ham bajargan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). O'zbekistonda aeroportlar qurilishi va faoliyati tarixi (1920-50-yy.) nomli maqolani yoritishda mahalliy va xorjy mualliflar fikrlari va tanqdy qarashlariga tayanilgan. Shuningdek, analiz va sintez, mantiqiylik, tarixiylik kabi ilmiy tamoyil va uslublardan foydalaniilgan.

Tahsil va natijalar. XX asrning 40-yillarida Toshkent, Nukus, Chorjo'y, Frunze, O'sh, Farg'ona aeroportlari eng yirik yuklarni qabul qiluvchi va jo'natuvchi maskan hisoblangan. Toshkent aeroporti orqali 1940-yilning 15-mayidan boshlab rasmiy ravishda Toshkent-Moskva havo yo'lli bo'ylab tayyora parvoz qila boshladi.

1941-yil 6-iyundagi O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Kengashining 600-sonli qaroriga ko'ra, Nukusdagi aerodromni kengaytirishga 120 ming rubl miqdorida mablag' ajratildi. 1943-yil 20-iyunda Nukus aeroportining uchish maydonchasini kengaytirish bo'yicha qurilish boshlandi[5].

Farg'ona – Andijon – Namangan – Qo'qon – Farg'ona xalqasi bo'ylab samolyotlarda yuk tashishi bo'yicha havo liniyasi ochish rejasiga bo'yicha 1941- yilning noyabr oyida Namangan aeroporti uchun kursantlar aerodromiga yer ajratilgan.

O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Kengashining 1943-yil 15-sentabrdagi 1328-sonli qaroriga muvofiq, Nukus aeroport qurilishi uchun III kvartalga 50.000 va IV kvartal uchun qo'shimcha 100.000 rubl mablag' ajratilgan. Mazkur mablag'lar hisobidan Nukus aeroporti zamonaviy ko'rinishga keltirilib, Toshkent-Nukus o'rtasida doimiy parvozlar qatnovi boshlandi. 1945-yilga kelib, Namangandagi mahalliy aerodromda Po-2 samolyotlari uchun uchish-qo'nish uchun

shibbalangan yo'l, qo'rg'on chetida xizmat ko'rsatish imoratlari barpo etilgan[6].

Urushdan keyingi yillarda O'zbekiston SSRda aeroportlarga alohida e'tibor qaratilgan. O'zbekiston fuqaro havo floti boshqarmasining buyrug'iga asosan, tog' havo yo'llarida joylashgan 20 ta aeroport va aerodromlar ro'yxati tasdiqlangan. Aeroportlar noqulay ob-havo sharoiti, tungi samolyot reyslarini qabul qilish yoki jo'natish uchun maxsus qayta jihozlandi. Ayniqsa, Toshkent aeroportiga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, O'zbekiston poytaxtini Toshkent – Moskva, Qrim va Kavkaz kurort shaharlari, oblast markazlari, Sovet Ittifoqining sanoatlashgan hududlari bilan bog'lagan havo yo'llarida yo'lovchilarini tashish sifatini jiddiy yaxshilagan.

Shuningdek, samolyotlarning texnik nosozligi kuzatilganda yoki ob-havo sharoitida qo'nish uchun zaxira aeroportlariga ham katta e'tibor qaratilgan. Toshkent-Urganch-Nukus havo qatnovi uchun Chorjo'y aeroporti zaxira aeroporti vazifasini bajargan.

1948-yilda Toshkentdan Moskva, Leningrad, Irkutiya, Yoqtiston, Novosibirsk, Olma-ota va Frunzega muntazam havo yo'llari ochilgan.

1949-yil 14-martdag'i Farg'ona oblasti Ijroiya qo'mitasining qaroriga muvofiq, aeroportda yo'lovchilar kutish zallari kengaytirilib, radio aloqalarini qabul qilish va telefon aloqalarini bilan jihozlandi. 1950 yildan Toshkent-Namangan oralig'ida Li-2 samolyoti qatnay boshlagan.

Urushdan keyingi yillarda O'zbekiston SSRda aeroportlarga alohida e'tibor qaratilgan. O'zbekiston fuqaro havo floti boshqarmasining buyrug'iga asosan, tog' havo yo'llarida joylashgan 20 ta aeroport va aerodromlar ro'yxati tasdiqlangan. Aeroportlar noqulay ob-havo sharoiti, tungi samolyot reyslarini qabul qilish yoki jo'natish uchun maxsus qayta jihozlandi[7]. Ayniqsa, Toshkent aeroportiga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, O'zbekiston poytaxtini Toshkent – Moskva, Qrim va Kavkaz kurort shaharlari, oblast markazlari, Sovet Ittifoqining sanoatlashgan hududlari bilan bog'lagan havo yo'llarida yo'lovchilarini tashish sifatini jiddiy yaxshilagan. Shuningdek, samolyotlarning texnik nosozligi kuzatilganda yoki ob-havo sharoitida qo'nish uchun zaxira aeroportlariga ham katta e'tibor qaratilgan. Toshkent-Urganch-Nukus havo qatnovi uchun Chorjo'y aeroporti zaxira aeroporti vazifasini bajargan.

1948-yilda Toshkentdan Moskva, Leningrad, Irkutiya, Yoqtiston, Novosibirsk, Olma-ota va Frunzega muntazam havo yo'llari ochilgan. 1949-yil 14- martdag'i Farg'ona oblasti Ijroiya qo'mitasining qaroriga muvofiq, aeroportda yo'lovchilar kutish zallari kengaytirilib, radio aloqalarini qabul qilish va telefon aloqalarini bilan jihozlandi. 1950-yildan Toshkent-Namangan oralig'ida Li-2 samolyoti qatnay boshlagan[8].

XX asrning 50-yillari havo transportida texnik inqilob sodir bo'lib, uning ko'rsatkichi turboreaktiv va turboprop samolyotlarning keng joriy etilishi bilan belgilangan. Mazkur jarayon aeroportlar sohasini takomillashtirish, ularni eng zamonaviy xizmat ko'rsatish texnikasi bilan jihozlash bilan birga amalga oshirilgan. Ittifoq va respublika ahamiyatiga ega havo yo'llari tarmog'i kengayib, Toshkent aeroporti xalqaro havo qatnovlarining yirik markaziga aylangan. Respublika fuqarolik havo flotini eng yangi texnika bilan jihozlash yurtimizda yo'lovchi tashishning o'sish sur'atlarini oshirish imkonini bergen. Yo'lovchilar aviatashuvarining jadal sur'atda o'sishi respublika yo'lovchi transportida tarkibiy o'zgarishlarga ta'sir ko'rsatib, umumiy tashishda havo transporti ulushining oshishi bilan tavsiflanadi.

Tranzitning rivojlanishi aeroportlarda yo'lovchilar uchun bron qilish tizimini har tomonlama takomillashtirishni talab qildi. Shu maqsadda respublika aeroportlarida idoralar va aeroportlar, samolyotlar va aeroportlar o'rtaida o'rinnarni bron qilish, bo'sh o'rinnar mavjudligi to'g'risida, bandlovlarini bekor qilish to'g'risidagi ma'lumotlar va boshqa xabarlar uchun aniq ishlardigan tijorat aloqasi yaratildi. Toshkentda bron qilish ishlari kechayu-kunduz olib borildi. Respublika hukumati ko'magida bir qator shaharlarda yangi aerovokzallar (Aerovokzal – aeroportlarda havo transporti yo'lovchilariga xizmat ko'rsatiladigan) va yuk operatsiyalari o'tkaziladigan bino yoki binolar majmui. Aerokzal tarkibiga vokzal oldi maydoni (shahar transporti to'xtab turish maydoni bilan birga), samolyotlar turadigan perron, perron-texnika xizmati ko'rsatish binolari, samolyot bortida yo'lovchilarga beriladigan oziq-ovqat tayyorlash tsexi, mehmonxonalar, komanda-dispatcherlik punktini o'z ichiga olgan asosiy inshootlar majmui kiradi) qurildi. Andijon, Farg'on'a, Nukus aeroportlari Il-18 samolyotlarini qabul qila boshladij[9]. Samarcand aeroportida uchish-qo'nish yo'lagi qurib bitkazildi, Toshkentda uchish-qo'nish yo'lagi uzaytirildi. An-24 va Yak-40 samolyotlari mahalliy havo liniyalarda foydalanildi. Bu markaziy va mahalliy liniyalarda samolyotlar harakatini tezlashtirish, shuningdek, yo'lovchilar, pochta va yuklarni tashishni ko'paytirish imkonini berdi.

1956-yil Toshkent aeroportiga radiolokatsiya va aloqa xizmatini tubdan qayta jihozlash boshlanib, Moskvadagi

"Vnukovo" aeroportidan andozasi asosida qo'nish tizimlari shakllandi[10]. Aeroportlarda "eshityapman-boshqaryapman" o'rniда "ko'ryapman-eshityapman-boshqaryapman" tarzidagi ish jarayoniga o'tildi. Bu hol Toshkent aeroportini zamonaviy darajaga ko'tardi.

Samarqand oblast Ijroiya komitetining 1958-yil 1-oktabrdagi "Samarqand aeroportida yo'lovchilarga madaniy xizmat ko'rsatishni yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, 150 kishiga "Yozgi kutish zali" barpo etildi, aviaciaptalar sotishga mo'ljallangan ikki ofis, aeroport hududida sabzavot va mevalarni sotish uchun do'kon, alkogolsiz ichimliklar, muzqaymoq va qandolat mahsulotlari sotadigan kiosklar, kitob, jurnal, gazeta va shaharning tarixiy obidalari aks etgan manzaralari rasmlar sotuvni tashkil etilgan[11].

Xulosa va takliflarlo Xulosa qilib aytganda, aeroportlarning qurilishida xalq xo'jaligi sohalari ehtiyoji bilan birga fuqaro aviatsiyasi rivojiga harbiy, aniqrog'i mudofaa ehtiyojlari strategik mezon qilib olinganligini ko'rsatadi. Chunki qurilishi obyektlari uchun joy tanlash, qulaylik harbiy yuklarni mobil yetkazishda havo yo'llaridan samarali maqsadlarda foydalanishni ko'zlagan. Andijon va Namangan aeroportlari qurilishida asosan harbiy aviatsiya uchish-qo'nish imkonи ustuvor maqsad qilib qo'yilgan edi. Aeroport qurilishi bo'yicha mutaxassislar fuqaro havo transporti, unga infratuzilma, yer usti transporti tizimi bilan bog'lanishi masalasini ham taklif etilgan. Biroq ular aviatsiya bosh boshqarmasi tomonidan e'tiborga olinmadi.

ADABIYOTLAR

- Самарқанд вилоят давлат архиви. 74-жамғарма, 1-рўйхат, 5115-йигма жилд, 45-46-вараклар.
- Сорокин Е. Ферганская долина // Гражданская авиация. – 1961. – №7. – С. 11.
- Ўзбекистон авиацияси 70 ёшда. – Тошкент, 1994.
- Ўзбекистон миллий архиви, 837-жамғарма, 32-рўйхат, 2569-йигма жилд.
- Ўзбекистон миллий архиви, Р-2172-жамғарма, 2-рўйхат, 357-йигма жилд.
- Ўзбекистон миллий архиви, Р-2172-жамғарма, 2-рўйхат, 81-йигма жилд.
- Ўзбекистон миллий архиви, Р-95-жамғарма, 2-рўйхат, 1923-йигма жилд.
- UZBEKISTAN AIRWAYS. 1-сон. 2016 йил.
- Нарзуллаев Ф. Н. История развития гражданской авиации в Узбекистане и ее вклад в подъеме народного хозяйства. Дисс. на соиск. кан. ист. наук – Ташкент, 1984.
- Азамjon Tukhtabaev. История воздушного транспорта в Узбекистане (1950–1980-е гг.). Общество и инновации: Том 3 № 3/S (2022). DOI <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss10/S-pp74-77>
- Azamjon Sh. Tukhtabaev. Air transport: Structure, activity, shape. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. 2020, Volume: 10, Issue: 6 pp. 288-291. Article DOI: 10.5958/2249-7137.2020.00590.X